

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

S T A T I S T I K A
fanidan amaliy mashg‘ulotlar

O‘QUV-USLUBIY QO‘LLANMA

2-QISM

TOSHKENT 2016

Burxanov A.U., Atemkulova D.A. Statistika fanidan amaliy mashg'ulotlar o'quv-uslubiy qo'llanma. – T.:ToshDTU, 2016. -152 bet.

O'quv-uslubiy qo'llanmada "Statistika" fanining iqtisodiy bo'limiga oid materiallar kiritilgan bo'lib, u Davlat ta'lim standartlari va kurs bo'yicha tasdiqlangan dastur asosida tuzilgan. Bu dasturni amalga oshirish uchun talabalar "Oliy matematika", "Informatika va axborot texnologiyalari", "Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika" fanlaridan yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.

O'quv-uslubiy qo'llanmaning tarkibiy tuzilishi talabaga "Statistika"ni mustaqil o'rganish imkonini beradi, chunki unda o'zini tekshirish uchun topshiriqlardan tashqari namunaviy misollarni yechish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ham berilgan.

O'quv-uslubiy qo'llanma oliy ta'limning "Menejment", "Marketing", "Kichik biznes", "Moliyaviy tahlil", "Soliq va soliqqa tortish", "Buxgalteriya hisobi va audit", "Sug'urta ishi", "Makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot" yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent davlat texnika universiteti Ilmiy-uslubiy kengashining qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

Tursunxodjayev M.L. – ToshDTU "Menejment" kafedrasi professori.

Xasanov B.O'. – TIMI "Moliya iqtisodiyot ishlari" bo'yicha prorektor, dotsent, i.f.n.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyoti holatini ko‘z bilan ko‘rib, uning to‘g‘risida to‘la va to‘g‘ri tasavvurga kelish qiyin. Bir qarashda, hayot farovonday ko‘rinishi mumkin, yoki aksincha, lyokin uning nimalar evaziga bo‘lganligini, kelajakda bizni nimalar kutayotganligi bilish va mushohada qilish murakkab va keng qamrovli masala hisoblanadi. Bu masalani to‘g‘ri anglash va yechimlarini topish ko‘p jihatdan iqtisodiyotda faoliyat ko‘rsatayotgan kadrlarning malakasiga, mamlakatda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan hisobot va statistika tizimiga bog‘liqdir.

O‘zbekistonda olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar yil sayin oshib bormoqda. Ya’ni, “Mamlakatimiz Yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor tovarlar tashkil etdi.

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o‘tdi. Inflyasiya darajasi yil yakunlari bo‘yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir.

O‘tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig‘i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo‘lsa-da, davlat byudjeti Yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi.

2014 yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o‘tdi va AQSH dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo‘yilmalarning 21,2 foizdan ortig‘i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to‘rtidan uch qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir”¹ – ushbu statistik ko‘rsatkichlar yuqorigi fikrimizning yaqqol dalili bo‘la oladi.

¹ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi. 2016 yil, 16 yanvar.

Iqtisodiy statistika – statistika ilmi va amaliyotining muhim bo'limi bo'lib, u davlat hokimiyati organlarini, xo'jalik subyektlarini, fuqarolar va tashkilotlarni hamda jamoatchilikni rasmiy statistik axborotlar bilan ta'minlaydi.

Buning uchun jahonning barcha mamlakatlarida qo'llanilayotgan makro va mikro darajadagi bozor qonuniyatlarining holati va uning rivojlanishini o'rganishda foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqadi va undan foydalanadi.

Iqtisodiy statistika o'quv fanining maqsadi o'rganuvchilar oldida ijtimoiy hayotdagi jarayonlar va voqealar rivojlanishi hamda holatini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi mazmunini ochib berishdan iborat.

Iqtisodiy statistika o'quv fanining vazifasi – talabalarga quyidagilarni o'rgatishdan iborat: iqtisodiy masalalarni statistik o'rganish, respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbolini aniqlash va tadqiqoti uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlarni hisoblash metodologiyasi va uni statistik usullar yordamida tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

Taqdim etilayotgan o'quv-uslubiy qo'llanma o'quv dasturi asosida tayyorlangan.

O'quv-uslubiy qo'llanmada iqtisodiy statistikaning statistik hisoblar uslubiyatini hozirgi kun statistik amaliyotiga moslashtirgan holda fanning barcha mavzulari: O'zbekiston milliy hisoblar tizimi – iqtisodiy statistikaning uslubiy negizi, aholi statistikasi, mehnat bozori statistikasi, milliy boylik statistikasi, Yalpi ichki mahsulot statistikasi, milliy daromad va milliy hisoblar tizimidagi boshqa daromad ko'rsatkichlari, tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi, moliya-kredit tizimi statistikasi, aholi turmush darajasi statistikasi keltirilgan.

O'quv-uslubiy qo'llanmaning har bir mavzusi yagona tizim bo'yicha tuzilgan. Undan oldin statistik aning tegishli bo'limlariga oid statistik ko'rsatkichlar tizimining qisqacha mazmuni va namunali misollarni yechish usuli ko'rsatilgan. Shundan keyin talaba mustaqil ishlashi uchun topshiriqlar berilgan.

Masalalarni tuzishda mualliflar har bo'limdagi muhim ko'rsatkichlarni mujassamlashtirish, talabani turli ko'rsatkichlarni o'zaro bog'lanishini tahlil qilishga o'rgatish, statistik hisoblar natijalarini tahlil qilishga undashga intilganlar. O'quv-uslubiy qo'llanmada berilgan aksariyat misollar shartli raqamlarda, shuningdek, ayrimlari haqiqiy statistik ma'lumotlardan olib, tuzilgan.

2-BO‘LIM. IQTISODIY STATISTIKA

1-MAVZU. O‘ZBEKISTON MILLIY HISOBLAR TIZIMI – IQTISODIY STATISTIKANING USLUBIY NEGIZI.

Amaliy mashg‘ulot vazifasi: Milliy hisoblar tizimi (MHT)ni tavsiflash. Ishlab chiqarish bosqichlarini baholash. YaIMni hisoblash usullarini o‘zlashtirish. YAIMni o‘zgarmas baholarda hisoblash. YAIM deflyatorini hisoblash. Ixtiyordagi yalpi milliy daromad (IYAMD), milliy jamg‘arma, sof kredit(+) yoki sof qarz(-) tushunchalarini ta’riflash.

Amaliy mashg‘ulot rejasi:

1. Milliy hisoblar tizimi (MHT)
2. Ishlab chiqarish bosqichlarini baholash.
3. YaIMni hisoblash usullari
4. YAIMni o‘zgarmas baholarda hisoblash.
5. YAIM deflyatorini hisoblash yo‘llari.
6. Ixtiyordagi Yalpi milliy daromad (IYAMD), Milliy jamg‘arma, Sof kredit(+) yoki Sof qarz (-).

Nazorat va muxokama uchun savollar:

1. Milliy hisoblar tizimi deb nimaga aytiladi?
2. Ishlab chiqarish bosqichlari qanday baholanadi?
3. YaIMni hisoblashning qanday usullari mavjud?
4. YAIM deflyatori qanday aniqlanadi?
5. Ixtiyordagi Yalpi milliy daromad (IYAMD), Milliy jamg‘arma, Sof kredit(+) yoki Sof qarz (-) atamalarini izohlang.

Amaliy mashg‘ulotning uslubiy ta’minoti

Iqtisodiy rivojlanishni baholovchi ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida faoliyat natijalarini ifodalaydi. Ishlab chiqarish faoliyatining pirovard natijalari alohida korxona va tashkilotlar, tarmoqlar, sektorlar va butun iqtisodiyot bo‘yicha o‘rganiladi. Ishlab chiqarish natijalarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash mamlakat rivojlanishi va istiqboli uchun muhimdir.

Mamlakat iqtisodini umumlashtirib, baholovchi ko‘rsatkichlar makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar deb ataladi. Bu ko‘rsatkichlar hozirgi kunda milliy hisoblar tizimi (MHT) asosida aniqlanadi va iqtisodiy faoliyatning turli bosqichlari (ishlab chiqarish, daromadlarni shakllantirish va taqsimlash hamda ularning oxirgi iste‘moli) ni tavsiflaydi.

Ishlab chiqarish bosqichlari quyidagi ko'rsatkichlar yordamida baholanadi: Yalpi ishlab chiqarish (YAICH), oraliq iste'mol (OI), Yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ), Yalpi ichki mahsulot (YaIM), sof ichki mahsulot (SIM) va boshqalar.

YAICH – ma'lum davr mobaynida muayyan mamlakat hududida institutsional birliklar yaratgan jami mahsulot va xizmatlarning Yalpi qiymatidir.

OI – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovar va xizmatlar qiymatidir. Uning tarkibiga asosiy kapital iste'moli qo'shilmaydi.

YaQQ – bu YAICH va OI orasidagi tafovut, ya'ni:

$$\mathbf{YaQQ = YAICH - OI}$$

YaQQning bozor bahosidagi qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{YaQQ_{bb} = YaQQ_{ab} + SSm.va imp.}$$

Bu yerda:

SSm.va imp. – mahsulot va importga sof soliq, ya'ni:

$$\mathbf{SSm.va imp. = Soliq\ m.va\ imp. - Subsidiya\ m.va\ imp.}$$

YaIMni quyidagi 3 usul bilan hisoblash mumkin:

1. Yalpi qo'shilgan qiymat yig'indisi (ishlab chiqarish) usuli.
2. Birlamchi daromadlar yig'indisi (taqsimlash) usuli.
3. Yakuniy foydalanish komponentlari (pirovad yig'indisi) usuli.

YaIMni ishlab chiqarish usulida hisoblash uchun tarmoqlar yoki sektorlar bo'yicha guruhlangan barcha mustaqil rezidentlarning Yalpi qo'shilgan qiymati jamlanadi:

$$\mathbf{YaIM = \sum YaQQ}$$

$$\mathbf{YaQQ = YAICH - OI}$$

YAICH – tarkibiga quyidagilar kiradi:

- barcha mahsulotlar;
- boshqa institutsional birliklarga, xususan, davlat boshqaruv organlari va notijorat tashkilotlarga ko'rsatilgan xizmatlar;
- uy xo'jaligi va yashash uchun ko'rsatilgan zaruriy xizmatlar qiymati.

Oraliq iste'moli quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- moddiy xarajatlar;
- nomoddiy xizmatlar uchun to'lovlar;
- safar xarajatlari va mehmonxona xizmatlari;
- oraliq iste'molning boshqa xarajatlari;
- mehmonxona xarajatlari.

Taqsimlash usuli. YaIM bu usulda hisoblanganda, uning hajmi mamlakat hududidagi barcha rezident va norezidentlarga to'langan birlamchi daromadlar yig'indisi teng bo'ladi.

$YaIM = \sum BD$ (birlamchi daromad).

1993-yilda statistika amaliyotiga kiritilgan MHT ning uchinchi xalqaro standarti bo'yicha quyidagi daromadlar birlamchi daromad hisoblanadi:

1. Ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan daromadlar:

- a) mehnat haqi hamda ishlab chiqarish va iqtisodiyotdagi sof soliqlar;
- b) Yalpi foyda va Yalpi aralash daromadlar.

2. Mulkdan olingan daromadlar, ya'ni boshqa iqtisodiy birliklarda foydalanish uchun ularning ixtiyoriga berilgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlardan olingan daromadlar.

a) foizlar;

b) dividendlar;

s) chet el investitsiyalarini qayta investitsiyalash natijasida olingan daromad turi;

d) sug'urta polislarining egalariga beriladigan mulkdan olingan daromadlar;

e) renta.

Mehnat haqiga Yalpi ish haqi, ijtimoiy sug'urta ajratmalari, natural ish haqi kiradi.

Ishlab chiqarish va import soliqlari 2 xil bo'ladi:

- 1. Mahsulot va import solig'i
- 2. Ishlab chiqarishning boshqa solig'i

$YaIM_{taq} = YaF + AD + MX + SS$

Bu yerda:

YaF – Yalpi foyda;

AD – aralash daromadlar;

MX – mehnat haqi;

SS – ishlab chiqarish va importga sof soliqlar.

Mahsulot va import solig'iga quyidagilar kiradi.:

- a) QQS;
- b) aksiz solig'i;
- s) oborot solig'i;
- d) reklama solig'i;
- e) foyda solig'i;
- f) eksport va import solig'i.

YaQQ ning yollanma xodimlariga mehnat haqi, ishlab chiqarish va import solig'i to'langandan keyin qoladigan qismi Yalpi oraliq daromadlar deb ataladi.

Pirovad iste'mol xarajatlari yig'indisi usuli.

Bu usulda YAIM ning qiymati yakuniy iste'molni tashkil etuvchi elementlarning summasi sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{YaIM_{pir.} = YAI + YAJ + E - I + Sx.}$$

Bu yerda:

YAI – uy xo'jaliklari, davlat muassasalari va ijtimoiy tashkilotlarning pirovard iste'moli;

YAJ – Yalpi jamg'arma;

E – mahsulot va xizmatlar eksporti;

I – mahsulot va xizmatlar importi;

Sx. – statistik xatolik.

YAIMni o'zgarmas baholarda hisoblash

YAIMni joriy bozor baholarida hisoblash iqtisodiyotning tarkibini, iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi nisbatni, davlat byudjetining YAIMga nisbatan taqchilligini va boshqa muhim iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini bersada, ammo iqtisodiyotning haqiqiy holatini ko'rsata olmaydi. Chunki mahsulot va xizmatlarning hajmi o'zgarmagan yoki kamaygan hollarda ham narxning oshishi hisobiga o'sish sodir bo'lishi mumkin. Vaholanki, jamiyatning ehtiyojini faqat moddiy shakldagi mahsulot qondira oladi. YAIM ning haqiqiy dinamikasini hisoblashda baho ta'sirini bartaraf etish, ya'ni YAIMning fizik hajmi indeksini (J_q) hisoblash zarur:

$$J_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}$$

q_0 va q_1 – bazis va joriy davrda ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori;

R_0 – mahsulot birligining bazis davridagi bahosi;

YAIM fizik hajmining indeksi iqtisodiy o'sish yoki kon'yukturadagi tebranishni tavsiflovchi muhim ko'rsatkichdir.

YAIM ni o'zgarmas baholarda hisoblashning quyidagi usullari mavjud:

1. Baho indeksi yordamida YAIM deflyatorni hisoblash.

2. Ikki karali deflyatorlash.

3. YAIM ning fizik hajmi yordamida bazis davridagi ko'rsatkichlarni ekstrapolyatsiya qilish.

Bu usullarni qo'llash yordamida YAIM ning real qiymatlari aniqlanadi.

Nominal YAIM joriy bozor narxlaridagi mahsulot va xizmatlar qiymati bo'lib, quyidagicha hisoblanadi:

$$YaIM_H = \sum q_1 p_1$$

$$J_{qp} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0} \quad - \quad \text{nominal YAIM indeksi}$$

$$J_p = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0} \quad - \quad \text{bahoning umumiy indeksi}$$

Bu indekslar o'rtasida quyidagicha bog'lanish mavjud:

$$J_{qp} = J_q * J_p$$

Real YAIM –ishlab chiqarish va xizmatlarning haqiqiy moddiy hajmini belgilaydi.

$$\text{Real YAIM} = \frac{\text{nominal YAIM}}{\text{baho indeks}}$$

Ya'ni

$$\frac{\sum q_1 p_1}{J_p} = \frac{\sum q_1 p_1}{\frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0}} = \sum q_1 p_0$$

YAIM deflyatori quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$YAIM_{dflet} = \frac{\text{nominal YAIM}}{\text{Real YAIM}}$$

YAIMning deflyatori barcha ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar birligi bahosining joriy davrda bazis davrga nisbatan o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi.

Bundan tashqari quyidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar aniqlanadi:

Sof ichki mahsulot = YAIM –asosiy kapital iste'moli

Yalpi milliy daromad = YAIM+xorijdan olingan birlamchi daromadlar qoldig'i (+,-).

Sof milliy daromad = YAMD –asosiy kapital iste'moli.

Ixtiyoridagi Yalpi milliy daromadi = YAMD + chet davlatdan olingan joriy transfertlar.

Yalpi jamg'arma = YAMD-pirovard iste'mol.

Milliy jamg'arma = IYAMD-yakuniy iste'mol.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orasidagi o'zaro bog'liqliklar:

1. Yalpi ichki mahsulot.
2. Asosiy kapital iste'moli.
3. Sof ichki mahsulot.

4. Chet davlatlardan olingan birlamchi daromadlar saldosi.
5. Yalpi milliy daromad (1+4).
6. Sof milliy daromad(5-2).
7. Chet davlatlardan olingan joriy transfertlar saldosi.
8. Ixtiyordagi Yalpi milliy daromad (5+7).
9. Yakuniy iste'mol.
10. Milliy jamg'arma (8-9).
11. Chet davlatlardan olingan kapital transfertlar saldosi.
12. Investitsiyani moliyalashtirish manbai (10+11).
13. YAIM ning elementi ko'rinishidagi Yalpi jamg'arma.
14. Ishlab chiqarishdan tashqari ,nomoddiy, nomoliyaviy aktivlar.
15. Sof kredit (sof qarz) (M-N-O) ega bo'lish.

Ixtiyordagi Yalpi milliy daromad (IYAMD) – bu YAMD dan chet davlatlarga berilgan va olingan joriy transfertlar bilan farq qiladi. Transfertilarga gumanitar yordamlar, chet davlatlardagi qarindosh – urug'lar-dan olingan sovg'alar, rezidentlar tomonidan chet davlatlarga to'langan jarimalar va peniyalar kiradi.

Milliy jamg'arma – IYAMD dagi pirovard iste'mol miqdorini ayirish yo'li bilan aniqlanadi. Jamg'arish –bu investitsiyani moliyalash manbaidir, boshqacha aytganda, asosiy fondlarning o'sishi, moddiy aylanma vositalar zaxirasining ortishi, boyliklarning ko'payishidir.

Sof kredit(+) yoki **Sof qarz (-)** – biror davlat (sektor) ning boshqa davlatga kredit berish imkoniyati bor yoki yo'q degan moliyaviy resurs-lar hajmini (qarz) ifodalaydigan ko'rsatkich.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-misol. Quyidagi ma'lumotlar mavjud:

1.1-jadval

	2014	2015	
		Taqqoslama baho	Joriy baho
Aholi iste'moli	249	269	286
Davlat iste'moli	39	42	46
As.kam YAM	137	135	137
Zaxira o'sishi	5	2	3
Eksport	46	54	44
Import	43	45	34

Aniqlang:

- 1) YAIM tarkibi va dinamikasini;
- 2) YAIM va alohida komp.lari uchun deflyator indeksini.

2-misol. Quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan:

1.2-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar	
	2008	2009
1. Ish haqi	230	268
2. Aholi iste'moli	249	286
3. Davlat iste'moli	39	46
4. Mahsulotga import va soliqlar	35	38
5. Mahsulot va import subsidiya	5	4
6. «Tashqi dunyodan» olgan daromad	3	4
7. AKI (asosiy kapital iste'moli)	61	73

Aniqlang:

- 1) YAIM bozor va joriy bahoda;
- 2) YAID bozor va joriy bahoda;
- 3) MD bozor va joriy bahoda;

3-misol. Quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan.

1.3-jadval

	Yillar	
	2014-yil	2015-yil
YAIM	6250	7015
NKI	720	810
OI(oralik iste'mol)	3360	3820
Baho indeksi		
OI	0.98	1.05
AF	1.01	1.07
MD	0.99	1.06

Aniqlang:

- 1) MD fizik hajmi indeksi.
- 2) YaIM bahosi indeksi (defilyator).

4-misol. Mamlakat bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan (mln.so'm):

1.4-jadval

No	Ko'rsatkichlar	Mln.so'm
1	Yalpi ishlab chiqarish, amaldagi baholarda	3258
2	Mahsulot va importlarga soliq	260
3	Mahsulot va importga subsidiya	104
4	Oraliq iste'mol	1440
4	Yalpi iqtisodiy foyda va aralash daromad	818
5	Ish haqi	885
6	Ishlab chiqarish va importga soliq	345

8	Pirovard iste'mol	1431
9	Yalpi jamg'arma	503
10	Eksport	132
11	Ishlab chiqarish va importga soliq	124
12	Import	42,9

Berilgan ma'lumotlar bo'yicha YaIM ni aniqlang.

5-misol. Mamlakat bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan (mln.so'm):

1.5-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Mln.so'm
1	Yalpi iqtisodiy foyda va aralash daromad	1325
2	Ish haqi	2564
3	Ishlab chiqarish va importga soliq	635
4	Ishlab chiqarish va importga subsidiya	123
5	«Tashqi dunyo»dan olingan daromad	15
6	«Tashqi dunyo»ga ketgan daromad	48

Berilgan ma'lumotlar bo'yicha YAIM va YAMD hajmini aniqlang.

6-misol. Quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan (mln.so'm):

1.6-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Mln. so'm
1	Pirovard iste'mol: – uy xo'jaligi iste'moli – davlat tashkilotlari iste'moli – boshqa notijorat tashkilotlar iste'moli	945 360 43
2	Yalpi jamg'arma: – asosiy kapital jamg'armasi – aylanma kapital zaxirasining o'zgarishi	406 52
3	Eksport	169
4	Import	94

Berilgan ma'lumotlar bo'yicha YAIM hajmini aniqlang.

7-misol. Mamlakat bo'yicha quyidagi shartli ko'rsatkichlar mavjud (mlrd.so'm)

1.7-jadval

№	Ko'rsatkichlar	2011	2012	2013	2014	2015
1	YAIM, amaldagi baholarda	3255,6	4925,8	7450,2	9837,8	12189,5
2	Asosiy kapital, solishtirma baholarda	3887,6	9895,8	13156	17718,5	20901,7
3	Iqtisodiyotda band bo'lganlar soni, ming	8983	9136	9333,0	9589,0	9910,6

Berilganlar bo'yicha YAIM, asosiy kapital hajmining qo'shimcha o'zgarishini mutlaq va nisbiy miqdorlarda, YAIM hajmining mutlaq o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar (asosiy kapital va asosiy kapitaldan foydalanish darajasi) hamda iqtisodiyotda band bo'lganlarga to'g'ri keladigan YAIM hissasini mutlaq miqdorlarda hisoblang.

8-misol. Quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan (mln.so'm):

1.8-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Bazis davr	Hisobot davr
1	YAIM, solishtirma baholarda	625	674
2	Asosiy kapital, solishtirma baholarda	473	482
3	Iqtisodiyotda band bo'lganlar soni, ming	22	24

Berilganlar bo'yicha YAIM, asosiy kapital hajmining qo'shimcha o'zgarishini mutlaq va nisbiy miqdorlarda, YAIM hajmining mutlaq o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar (asosiy kapital va asosiy kapitaldan foydalanish darajasi) hamda iqtisodiyotda band bo'lganlarga to'g'ri keladigan YAIM hajmini hissasini mutlaq miqdorlarda hisoblang.

9-misol. Quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan (mlrd.so'm):

1) Iqtisodiyotning Yalpi foydasi	962.5
2) Yollangan ishchilarga to'langan mehnat haqi	942.0
3) Ishlab chiqarish va importga soliq	350.0
4) Ishlab chiqarish va importga subsidiya (-).....	125.0
5) O'z daromadiga	
«Tashqi dunyodan» olgan	25.0
«Tashqi dunyoga» bergan	62.5
6) Chet eldagi joriy transfertlar qoldig'i.....	18.0
7) Yakuniy iste'mol xarajatlari.....	1462.5

Aniqlang:

1. Yalpi ichki mahsulot.
2. Yalpi milliy daromad.
3. Yalpi ixtiyordagi daromad.

10-misol. Quyidagi shartli ma'lumotlar mavjud (mlrd.so'm).

1) Ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar.....	884
2) Jami material xarajatlari.....	425
Shu jumladan, amortizatsiya	68
3) Amortizatsiyaning hisoblangan qiymati	39
4) Boshqa oraliq iste'molga kirmagan elementlar	102

5) Ishlab chiqarish va importga subsidiya (-).....	21
6) Ishlab chiqarish va importga soliq	61.2
7) Yollangan ishchilarning ish haqi	217.6

Aniqlang:

Yalpi ichki mahsulot qiymatini.

11-misol. Quyidagi shartli ma'lumotlar asosida rejadagi YAIMni aniqlang:

1) Bozor bahosidagi Yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot.....	2610
2) Asosiy kapitalning iste'moli.....	414
3) Ishlab chiqarishga soliq	29.7
a) Sh. j. mahsulot va importga soliq	20.6
4) Ishlab chiqarishga subsidiya.....	10.7
a) Sh. j. mahsulot va importga subsidiya.....	8.9
5) Tovar va xizmatlar importi.....	186
6) Tovar va xizmatlar eksporti.....	179
7) Sof foyda	40
Oraliq iste'mol mahsulot va xizmatlar qiymati 39.3 % ni tashkil etgan.	

12-misol. Quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan (mlrd.so'm):

1) Yollangan ishchilarga to'langan mehnat haqi	360
2) Ishlab chiqarish va importga soliq	133
3) Ishlab chiqarish va importga subsidiya (-)	36
4) Yalpi foyda	370
5) O'z daromadiga	
«Tashqi dunyodan» olgan	8.5
«Tashqi dunyoga» bergan	15.0
6) Tashqi dunyodan olgan tushum joriy transfertlar qoldig'i	5.5
7) Asosiy kapitalning iste'moli.....	179

Aniqlang:

1. Yalpi ichki mahsulotni.
2. Yalpi milliy daromadni.
3. Yalpi ixtiyordagi daromadni.
4. Sof YAIM va Sof YAMDni.

13-misol. Reja bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan (mlrd.so'm):

1) Asosiy baholarda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar.....	7992
2) Mahsulot va xizmatlar importi	1280.9
3) Mahsulot va importga soliq.....	599.0

4) Mahsulot va importga subsidiya.....	109.0
5) Oraliq iste'mol	3653.9
6) Yakuniy iste'mol xarajatlari.....	3303.9
7) Yalpi jamg'arma.....	729.2
8) Mahsulot va xizmatlar eksporti.....	2090.7

Aniqlang:

Yalpi ichki mahsulotni 2 xil usulda

14-misol. Quyidagi shartli ma'lumotlar mavjud (mlrd.so'm):

1) Iqtisodiyotning Yalpi foydasi.....	256
2) Yollangan ishchilarga ish haqi	250
3) Ishlab chiqarish va importga soliq.....	93
4) Ishlab chiqarish va importga subsidiya.....	33
5) O'z daromadiga	
«Tashqi dunyodan» olgani	7
«Tashqi dunyoga» bergan	17

Aniqlang:

Yalpi ichki mahsulotni.

15-misol. Quyidagi shartli ma'lumotlar asosida YAIM va SIM ni hisoblang (mlrd.so'm):

1) Asosiy baholarda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar.....	1992
2) Oraliq iste'mol	1020
3) Ishlab chiqarishga soliq	187
shu jumladan, mahsulot va importga soliq.....	177
4) Ishlab chiqarishga subsidiya	123
shu jumladan, mahsulot va importga subsidiya.....	103
5) Yollangan ishchilarga ish haqi	528
6) Iqtisodiyotning Yalpi foydasi.....	434
7) Asosiy kapitalning iste'moli.....	190

16-misol. Iqtisodiyot sektorlari faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar berilgan (joriy baholarda, mln.so'm):

1.9-jadval

Ko'rsatkichlar	Yalpi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish	Oraliq iste'mol
1) Nomoliyaviy korxonalar	3685741.8	2451641.1
2) Moliya tashkilotlari	141351.3	18020.9
3) Davlat boshqaruv idoralari	643308.9	261325.3
4) Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar	33761.3	13011.1
5) Uy xo'jaligi	1639441.6	485105.3

Eslatma:

a) Mahsulot va import uchun soliq 485105.3 so‘m.

b) Mahsulot va importga subsidiya 21337.9 so‘m.

Keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, hisoblang:

1. Iqtisodiyot sektorlarning Yalpi qo‘shilgan qiymatini;

2. Iqtisodiyotning Yalpi ichki mahsulotini;

3. Iqtisodiyotning Yalpi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga nisbatan sektorlarning Yalpi ishlab chiqarishi ;

Yalpi qo‘yilgan ko‘rsatkichlarning umumiyini aniqlang!

17-misol. Mamlakatda 2013-2015-yillarda ishlab chiqarilgan xarajatlar to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlar berilgan.

1.10-jadval

Ko‘rsatkichlar	Yillar		
	2013-yil	2014-yil	2015-yil
1. Yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar, asosiy bahoda	14010634.4	18234420.6	22777353.3
2. Oraliq iste’mol	7498419.0	9741661.2	12241283.3
3. Mahsulot va importga soliq	975967.2	1374117.8	1741783.3
4. Mahsulot va import uchun subsidiya	37951.0	29036.5	16863.7

Hisoblang:

Yalpi ichki mahsulot va uning Yalpi ishlab chiqilgan mahsulot va xizmatlardagi ulushini.

18-misol. Quyidagi jadvalda mamlakatning 2010-2015-yillardagi joriy baholar-dan Yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichlari va uning indeksi berilgan:

1.11-jadval

Ko‘rsatkichlar	Yillar					
	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Yalpi ichki mahsulot joriy baholarda (mln.so‘m)	3255.6	4925.3	7450.2	9837.8	12261.0	15210.4
Yalpi ichki mahsulotning fizik indeksi oldingi yilga nisbatan, %	103.8	104.2	104.0	104.2	107.7	107.0

Hisoblang:

1) Har bir yil uchun deflyator indeksini.

2) 2010 – 2015-yillar uchun o‘rtacha deflyator indeksini.

3) 2010 – 2015-yillar Yalpi ichki mahsulotni bazis yili, (2010-yilga) nisbatan o‘zgarishini.

19–misol. Mamlakatning mulk shakllari bo'yicha Yalpi ichki mahsulot shartli ko'rsatkichlari keltirilgan:

1.12-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Yalpi ichki mahsulot, mlrd.so'm	302.8	3255,6	4925,3	7450,2	9837,8	12189,5
Shu jumladan, davlat sektorida, %	41,6	27,4	25,8	25,6	23,9	24,2
Nodavlat sektorida, %	58,4	72,6	74,2	74,4	76,1	75,8

Hisoblang:

1. Davlat va nodavlat sektorida YAIM usulidagi qiymatlarni.
2. 2010-yilga nisbatan YAIM va mulkchilik tashkilotlari dinamikasini jadval shakliga keltirib, tashkil qilinadi.

20-misol. Mamlakat bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan:

1.13-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Yalpi ichki mahsulot mlrd.so'm	302.8	3255,6	4925,3	7450,2	9837,8	12189,5
Shu jumladan, mahsulot ishlab chiqarish	158,8	1645,0	2470,4	3705,2	4827,7	5919,9
Xizmat ko'rsatish	104,2	1202,9	1870,8	2807,0	3665,0	4561,8
Mahsulot va importga sof soliqlar	39,8	407,7	584,1	938,0	1345,1	1707,8

Hisoblang:

1. YAIM tarkibini va qancha vaqt ichida o'zgarishini.

21-misol. Mamlakatning iqtisodiy sektorlari bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan:

1.14-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar			
	2012-yil		2015-yil	
	Mln.so'm	%	Mln.so'm	Jamiga nisbatan %
Jami iqtisodiyot bo'yicha.	3255566,7		9837840,7	
Shu jumladan: nomoliyaviy sektor	1234100,7		4162337,5	
moliyaviy sektor	123330,4		286542,5	
davlat boshqaruv organlari	381983,6		1047633,4	
uy xo'jaligi	1154336,3		3053397,3	

uy xo'jaligi xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar.	20750,2		67977,0	
shartli moliyaviy xizmatlar.	- 60575,9		- 125128,3	

Hisoblang:

Yalpi qo'shilgan qiymatni.

a) salmog'ini.

b) dinamikasini.

22-misol. Mamlakatning iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan.(mln.so'm):

1.15-jadval

	Yillar			
	2011-yil	2012-yil	2013-yil	2014-yil.
Yalpi ishlab chiqarish, asosiy bahoda.	6143604,9	9325248,0	14010637,4	18234420,6
Mahsulot va importga soliq	428979,3	612393,8	975967,2	1374117,8
Mahsulot va importga subsidiya	21337,9	28323,9	37951,0	29036,5
Yalpi ichki mahsulot, bozor bahosida	3255566,7	4925269,8	7450234,6	9837840,7

Aniqlang:

1. Iqtisodiyotni oraliq iste'molini.

2. Oraliq iste'molni YAICH umumiy yillar bo'yicha.

3. Yalpi ichki mahsulotni asosiy bahoda.

23-misol. Joriy yilda mamlakatni yakuniy iste'mol xarajatlari 4498,6 mln.so'm, Yalpi jamg'arma 1360,5 mln.so'm, tovar va xizmatlar eksporti 3236,0 mln.so'm, tovar va xizmatlar importi 1760,4 mln.so'm.

Aniqlang:

YAIM bozor bahosida.

24-misol. Joriy yilda mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish 12314,1 mln. so'm. Mahsulotga soliq 980,9 mln.so'm, mahsulotga subsidiya 147,7 mln. so'm, oraliq iste'mol - 5845,1 mln.so'm.

Aniqlang:

YAIM bozor bahosida.

25-misol. Mamlakatni milliy boyligi buyicha quyidagi shartli ma'lumotlar mavjud.

Ko'rsatkichlar	Yillar		
	2012-yil	2013-yil	2014-yil
Nomoliyaviy aktivlar.	5183	?	5141
Shu jumladan:	77	75	?
– zaxiradagi aylanma mablag'lar			
– asosiy kapital	1103	1144	1175
– noishlab chiqaruvchi aktivlar.	?	3931	3891
Moliyaviy aktivlar.	3721	3852	4015

Aniqlang:

1. Yetishmayotgan raqamlarni.
2. Har bir yil uchun milliy boylik hajmini.
3. Milliy boylikning tarkibi va dinamikasi ma'lumotlar ini tahlil qiling.

2-MAVZU. AHOLI STATISTIKASI

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Aholi statistikasini tasniflash. Aholi statistikasining ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyatini tahlil qilish. aholi sonini shakllanish qonuniyatlari o'rganish orqali ularning sonini hisoblash. Aholi sonini va uning mamlakat hududi bo'yicha joylanishini (ma'muriy hudud, shahar va qishloq hududi) aniqlash. Aholi tarkibini (jinsi, yoshi, millati, ijtimoiy holati, ma'lumoti va boshqa belgilari bo'yicha) o'rganish. Aholi tabiiy harakatini (tug'ilish, vafot etish, tabiiy o'sish, nikoh-dan o'tish yoki ajralish) o'rganish. Aholi migratsiyasini o'rganish. O'rtacha umr ko'rish uzunligini va hayotiylik darajasini aniqlash. Aholini kelajakdagi sonini va tarkibini bashoratlash.

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Aholi statistikasining mohiyati va ahamiyati.
2. Aholi statistikasining tasniflari.
3. Aholi statistikasining ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyati.
4. Aholi sonining shakllanish qonuniyatlari.
5. XXI asrda yuz beradigan demografik holat va aholi statistikasining vazifalari.
6. Aholining soni, tarkibi, kategoriyalari va joylanish ko'rsatkichlari.
7. Aholining tabiiy va mexanik harakati statistikasi.
8. Aholini kutiladigan o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichlari va ularni hisoblash.
9. Aholining kelajakdagi sonini hisoblash usullari.

10. Aholini ijtimoiy tavsiflash ko'rsatkichlari: aholining bilim ko'rsatkichlari, sog'lig'i va tibbiy yordamga, toza suvga, sanitariyaga ega bo'lish imkoniyatlari.

Nazorat va muxokama uchun savollar

1. Aholi statistikasining tasniflanishi?
2. Aholi statistikasining ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni qanday?
3. Aholi sonining qanday shakllanish qonuniyatlari mavjud?
4. Aholining soni, tarkibi, kategoriyalari va joylanish ko'rsatkichlari qanday hisoblanadi?
5. Aholining tabiiy va mexanik harakati statistikasi.
6. Aholining kutiladigan o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichlari va ularni hisoblash.
7. Aholining kelajakdagi sonini hisoblash usullari.
8. Aholini ijtimoiy tavsiflash ko'rsatkichlari: aholining bilim ko'rsatkichlari, sog'lig'i va tibbiy yordamga, toza suvga, sanitariyaga ega bo'lish imkoniyatlari.

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Bu mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida talabalar aholi statistikasining ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyati, aholi sonini shakllanish qonuniyatlari, ularning soni va hisoblash texnologiyasi bilan shug'ullanishlari zarur. Aholi statistikasi mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot samarali o'tishi uchun mavzu bo'yicha mustaqil ish olib borilganda quyidagi masalalarga alohida ahamiyat berish talab qilinadi:

- XXI asrda yuz beradigan demografik holat va aholi statistikasining vazifalari.
- Aholining soni, tarkibi, kategoriyalari va joylanish ko'rsatkichlari.
- Aholining tabiiy va mexanik harakati statistikasi.
- Aholini kutiladigan o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichlari va ularni hisoblash.
- Aholining kelajakdagi sonini hisoblash usullari.
- Aholini ijtimoiy tavsiflash ko'rsatkichlari: aholining bilim ko'rsatkichlari, sog'lig'i va tibbiy yordamga, toza suvga, sanitariyaga ega bo'lish imkoniyatlari.

Aholi statistikasi statistika fanining qadimiy tarmoqlaridan biri bo'lib, u aholini, uning soni va dinamikasi bilan bog'liq jarayonlarni, ijtimoiy shart-sharoitlarni o'rganadi.

Aholi sonini shakllanish qonuniyatlari, joylanishi va tarkibi hamda demografik jarayonlar: tugʻilish, nikohdan oʻtish va ajralish, oʻsish, migratsiya, oʻlim kabilar aholi statistikasining predmeti hisoblanadi.

Ilk davrlarda aholini oʻrganishda asosan, ularning soni aniqlanib, bu esa urushda qatnashuvchi kishilarni aniqlash, soliq olish maqsadlarida amalga oshirilgan.

Aholi statistikasi ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega.

Aholi statistikasida kuzatuv birligi va aʼzosi alohida kishi, oila, uy xoʻjaligi hisoblanadi. Uy xoʻjaligi bir yoki bir nechta oiladan, baʼzan bir kishidan ham iborat boʻlishi mumkin. Shuning uchun ularni oʻrganish xalqaro amaliyotda keng qoʻllaniladi.

Aholi maʼlum bir hudud (mamlakatning bir qismi, mamlakat, mamlakatlar guruhi, yer yuzi) da yashovchi kishilar toʻplamidir.

Maʼlum hududda doimiy va mavjud aholi soni aniqlanadi. Aholining soni davlat, shahar va qishloq aholisi, erkaklar va ayollar boʻyicha oʻrganiladi.

Kuzatuv obʼekti va birligi tadqiqotning maqsadiga qarab tanlanadi. Aholi statistikasining asosiy manbai joriy hisob va aholini roʻyxatga olish (yoppasiga yoki qisman) hisoblanadi. Bunda roʻyxatga olish boshlangʻich maʼlumotlar manbaidir. Aholi roʻyxati aholi toʻgʻrisida toʻliq va aniq maʼlumotlarga ega boʻlish imkoniyatini yaratadi. Tugʻilganlar, vafot etganlar, koʻchib kelgan yoki ket-ganlarning joriy hisobi aholi roʻyxati orqali olingan maʼlumotlar asosida har yillik aholi sonini aniqlashga yordam beradi.

Yoppasiga roʻyxatga olish murakkab va serxarajat jarayondir. Shuning uchun u juda kam amalga oshiriladi. Sobiq ittifoq davrida 1920, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989-yillarda aholi roʻyxatga olingan.

Aholining har bir statistik tadqiqoti natijasida turli xil vazifalar hal qilinadi.

Aholi statistikasining **asosiy vazifalari** quyidagilar hisoblanadi:

1. Aholi sonini va uning mamlakat hududi boʻyicha joylanishini (maʼmuriy hudud, shahar va qishloq hududi) aniqlash;
2. Aholi tarkibini (jinsi, yoshi, millati, ijtimoiy holati, maʼlumoti va boshqa belgilari boʻyicha) oʻrganish;
3. Aholi tabiiy harakatini (tugʻilish, vafot etish, tabiiy oʻsish, nikohdan oʻtish yoki ajralish) oʻrganish;
4. Aholi migratsiyasini oʻrganish;
5. Oʻrtacha umr koʻrish uzunligini va hayotiylik darajasini aniqlash.
6. Aholini kelajakdagi sonini va tarkibini bashoratlash.

Yuqorida aytilganidek, aholi ro'yxati aholi sonini aniqlovchi boshlang'ich manba hisoblanadi. Bunda aholi soni ma'lum bir kunga yoki paytga tegishli bo'ladi. Aholi ro'yxatlari orasidagi davrlar uchun aholi soni hisob-kitob yo'li quyidagicha aniqlanadi. (bunda oxirgi aholi ro'yxati va tabiiy va mexanik harakatining joriy hisobi ma'lumotlari aholi sonini aniqlash uchun asos qilib olinadi: ya'ni (ma'lum bir hudud uchun))

$$A_1 = A_0 + T - B + Kel - Ket$$

bu yerda:

A_0 – yil boshida aholi soni;

T – yil davomida tug'ilganlar soni;

V – yil davomida vafot etganlar soni;

Kel – yil davomida boshqa hududlardan ko'chib kelganlar;

Ket – yil davomida boshqa hududlarga ko'chib ketganlar;

A_1 – yil oxirida aholi soni.

Ma'lum bir sanadagi aholi sonini aniqlashda statistikada turli, ya'ni doimiy va mavjud aholi toifalari qo'llaniladi.

Doimiy aholi-bu ro'yxat o'tkazilgan paytda qaysi joyda bo'lganligidan qat'iy nazar, muayyan hududda doimiy yashovchi kishilar toifasidir.

Mavjud aholi – bu ro'yxat o'tkazilgan paytda muayyan aholi punktlarida haqiqatda bo'lgan barcha kishilar toifasidir.

Aholi toifalari o'rtasida quyidagi tengliklar o'rinli:

$$DA = MA + BY - BYA$$

$$MA = DA + BYA - BY$$

bu yerda:

DA – doimiy aholi soni;

MA – mavjud aholi soni;

VY – vaqtincha yo'q aholi soni;

VYA – vaqtincha yashovchilar soni.

Bir qator ko'rsatkichlarni aniqlash uchun statistikada aholining ma'lum bir davr (yil) uchun o'rtacha miqdori quyidagi usullarda hisoblanadi:

1. Agar aholi soni davr boshiga va oxiriga berilgan bo'lsa, oddiy o'rtacha arifmetik formuladan foydalaniladi:

$$\bar{A} = \frac{A_0 + A_1}{2}$$

bu yerda:

$\bar{A}$ – o'rtacha aholi soni;

A_0 – davr (yil) boshidagi aholi soni;

A_1 – davr (yil) oxiridagi aholi soni.

2. Agar aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar ma'lum sanaga teng davrlarda berilgan bo'lsa, o'rtacha xronologik formuladan foydalaniladi:

$$\bar{A} = \frac{\frac{A_0}{2} + A_1 + A_2 + \dots + \frac{A_n}{2}}{n-1}$$

3. Agar aholi soni ma'lum sanaga teng bo'lmagan davrlarda berilgan bo'lsa, o'rtacha arifmetik tortilgan formuladan foydalaniladi.

$$\bar{A} = \frac{\frac{A_0 + A_1}{2} \cdot t_1 + \frac{A_1 + A_2}{2} \cdot t_2 + \dots + \frac{A_{n-1} + A_n}{2} \cdot t_n}{t_1 + t_2 + \dots + t_n}$$

yoki

$$\bar{A} = \frac{\bar{A}_1 \cdot t_1 + \bar{A}_2 \cdot t_2 + \dots + \bar{A}_n \cdot t_n}{t_1 + t_2 + \dots + t_n} = \frac{\sum_{i=1}^n \bar{A}_i \cdot t_i}{\sum_{i=1}^n t_i}$$

bu yerda:

$A_1, A_2, \dots, A_n$ – davrlar boshi (yoki oxiri)dagi aholi soni ;

$t_1, t_2, \dots, t_n$ – davrlar oralig'i uzunligi (kun, oy, kvartal va hokazo).

$\bar{A}_1, \bar{A}_2, \dots, \bar{A}_n$ – har bir davr uchun o'rtacha aholi soni;

n – davrlar soni.

1-misol. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan:

1. 2007-yil boshida aholi soni (A_0) – 26407,8 ming kishi

2. Yil davomida:

tug'ilganlar soni (T) – 533500 kishi;

o'lganlar soni (O') – 140600 kishi;

doimiy yashash uchun ko'chib kelganlar (Kel) -6700 kishi;

respublikadan ko'chib ketganlar (Ket) – 95500 kishi.

3. 15-49 yoshdagi ayollarning o'rtacha yillik soni (A_{15-49}) – 6710,9 ming kishi.

Berilgan ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblab chiqamiz.

1) Yil oxiridagi aholi soni (A_1):

$$\begin{aligned} A_1 &= A_0 + (T - O') + (Kel - Ket) = 26407,8 + (533,5 - 140,6) + (6,7 - 95,5) = \\ &= 26407,8 + 392,9 + (-88,8) = 26711,9 \text{ ming kishi} \end{aligned}$$

2) Aholining o'rtacha yillik soni ($\bar{A}$):

$$\bar{A} = \frac{A_0 + A_1}{2} = \frac{26407.8 + 26711.9}{2} = 26559.8 \text{ ming kishi}$$

3) Umumiy tugʻilish ko'effitsiyenti ($K_{\text{tug}^{'}}$)

$$K_{\text{tug}^{'}} = \frac{T}{A} \cdot 1000 = \frac{533,5}{26559,8} \cdot 1000 = 20,0\%$$

4) O'lim ko'effitsiyenti ($K_{\text{o'l}}$)

$$K_{\text{o'l}} = \frac{\ddot{Y}}{A} \cdot 1000 = \frac{140,6}{26559,8} \cdot 1000 = 5,3\%$$

5) Tabiiy o'sish ko'effitsiyenti ($K_{\text{to}^{'}}$)

$$K_{\text{to}^{'}} = \frac{T - \text{o}^{'}}{A} \cdot 1000 = \frac{533,5 - 140,6}{26559,8} \cdot 1000 = 14,8\%$$

6) Migratsiya yoki mexanik o'sish ko'effitsiyenti ($K_{\text{mo}^{'}}$)

$$K_{\text{mo}^{'}} = \frac{Kel - Ket}{\bar{S}} \cdot 1000 = \frac{6,7 - 95,5}{26559,8} \cdot 1000 = -3,3\%$$

7) Umumiy yoki sof o'sish ko'effitsiyenti

$$K_{\text{so}^{'}} = K_{\text{to}^{'}} + K_{\text{mo}^{'}} = 14.8 + (-3.3) = 11.5\%$$

8) Maxsus tugʻilish ko'effitsiyenti (K_{mt})

$$K_{\text{mt}} = \frac{T}{A_{15-49}} \cdot 1000 = \frac{533,5}{6710,9} \cdot 1000 = 79,5\%$$

9) Migratsion oborot intensivligi ko'effitsiyenti

$$K_{\text{m.o.i.}} = \frac{Kel + Ket}{\bar{S}} \cdot 1000 = \frac{6,7 + 95,5}{26559,8} \cdot 1000 = 3,85\%$$

10) Migratsiya samaradorligi ko'effitsiyenti

$$K_{\text{m.s.}} = \frac{Kel - Ket}{Kel + Ket} \cdot 100 = \frac{6,7 - 95,5}{6,7 + 95,5} \cdot 100 = \frac{-88,8}{102,2} = -86,9\%$$

11) Hayotlik ko'effitsiyenti

$$K_{\text{hayot}} = \frac{T}{O^{'}} = \frac{533,5}{140,6} = 3,8 \text{ yoki } K_{\text{hayot}} = \frac{K_{\text{tug}^{'}}}{K_{\text{o'l}}} = \frac{20,0\%}{5,3\%} = 3,8.$$

Berilgan ma'lumotlar asosida aholining kelajakdagi sonini (uning mutlaq yoki nisbiy o'zgarishini o'zgarimas desak) aniqlash mumkin.

Shunga ko'ra, aholining 5 yildan keyingi soni:

$$A_5 = A_0 + n \cdot \Delta A = 26407.8 + 5 \cdot 304.1 = 27928.3 \text{ min } g \text{ kishi}$$

$$A_5 = A_0 \left(\frac{1 + K_{so'}}{1000} \right)^5 = 26407.8 \cdot \left(\frac{1 + 11.5}{1000} \right)^5 = 27961.6 \text{ min } g \text{ kishi}$$

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-misol. O'zbekiston aholisining harakati (ming kishi).

2.1-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar			
	2012	2013	2014	2015
1.Mavjud aholi: – yil boshidagi soni – o'rtacha yillik soni	24488.0	24908.2	25210.8	
2.Yil davomida: – tug'ilganlar soni – o'limlar soni – tabiiy o'sish – sof o'sish – mexanik harakatning saldosi (+,-)	527.6 135.6 ... 420.2 ...	513.0 132.6 ... 302.6 ...	532.5 137 ... 395.5 ...	533.5 140.6 ... 392.9 ...
3.Aholi harakatining nisbiy ko'rsatkichlari, (‰) – tug'ilish – o'lim – tabiiy o'sish – mexanik harakat – sof o'sish				
4.O'lim, jami: – go'daklarning o'limi. – Go'daklar o'limi koeffitsiyenti (1000 ta tirik tug'ilgan bolaga nisbatan,‰)	10.1 ...	9.4 ...	8.8 ...	8.2

Aniqlang: 1) Shartli belgi (...) qo'yilgan bo'sh kataklardagi ko'rsatkichlarni;

2) 2006-yil ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasi aholisining 2010-yildagi sonini taxminlang (bashoratlang):

– $\Delta \bar{A}$ asosida ;

– $\Delta \bar{K}$ sof o'sish asosida.

2-misol. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (ming kishi):

2.2-jadval

Yil	Aholining o'rtacha yillik soni	Shundan, shahar aholisi	Tug'ilganlar soni	O'lganlar soni	Migratsiya saldosi
-----	--------------------------------	-------------------------	-------------------	----------------	--------------------

2000	20420	8265	692	125	-180
2001	20863	8366	723	130	-96
2002	21360	8474	710	140	-74
2003	21853	8559	689	145	-54
2004	22282	8635	657	148	-139
2005	22690	8712	678	144	-89
2006	23130	8819	639	145	-50
2007	23560	8931	609	138	-49
2008	23967	8989	557	141	-52
2009	24216	9070	545	131	-48
2010	24572	9265	527	136	-61
2011	25211	9357	513	132.6	-72.4
2012	25523	9411	532	137	-79.1
2013	25802	9451	508.4	135.9	88.1
2014	26116	9512	540.4	130.4	88.8
2015	26509	9655	533.5	140.6	

Berilgan ma'lumotlar asosida hisoblang:

- 1) tug'ilish , o'lish, tabiiy o'sish, migratsiya koeffitsiyenti;
- 2) umumiy o'sish koeffitsiyenti;
- 3) qishloq aholisining soni va salmog'ini;
- 4) hisoblangan ma'lumotlarni jadval shaklida keltiring va qisqacha xulosa qiling.

3-misol. Quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan:

2.3-jadval

№	Ko'rsatkichlar	miqdori
1	O'rtacha yillik aholi soni, ming kishi	1460
2	Mehnat resurslari soni, ming kishi	740
3	Tug'ilish koeffitsiyenti, %	19
4	O'lim koeffitsiyenti, %	12
5	Mexanik o'sish koeffitsiyenti, %	-2

Aniqlang:

- 1) Tabiiy o'sish va sof o'sish sonini;
- 2) Sof o'sish koeffitsiyentini;
- 3) 5 yildan keyingi aholi sonini ;
- 4) Mehnat resurslarining jami aholi sonidagi salmog'ini va kelgusi yildagi salmog'i 0.05 punktga oshsa va aholi soni joriy yildagi kabi o'z-garsa, mehnat resurslarining kelgusi yildagi sonini aniqlang.

4-misol. Quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan.

Aholi soni yil boshida 24200 ming kishi, yil oxirida 24600 ming kishi; 15-49 yoshdagi ayollar soni yil boshida 9240 ming kishi, yil oxirida 9360 ming kishi. Yil davomida tug'ilganlar soni 240 ming kishi, vafot etganlar soni 325 ming kishi, undan 1 yoshgacha bo'lgan go'daklar o'limi 13 ming nafar. Shu ma'lumotlar asosida tabiiy o'sish, mexanik o'sish, sof o'sish, maxsus tug'ilish va 1 yoshgacha bolalar o'limi koeffitsiyentini, 5 yildan keyingi aholi sonini aniqlang.

5-misol. Aholi soni yil boshida 24200 ming kishi; 15-49 yoshdagi ayollar salmog'i jami aholi soniga nisbatan yil boshida 35 %, yil oxirida 36 %. Yil davomida tug'ilganlar soni 375 ming kishi, vafot etganlar soni 60 ming kishi, ko'chib kelganlar soni 120 ming kishi, ko'chib ketganlar soni 85 ming kishi. Shu ma'lumotlar asosida o'rtacha yillik aholi sonini, o'rtacha yillik ayollar sonini, tabiiy o'sish, mexanik o'sish, tug'ilish va sof o'sish koeffitsiyentini hamda 5 yildan keyingi aholi sonini hisoblang.

6-misol. Aholining o'rtacha yillik soni 25200 ming kishi, yil davomida ko'chib kelganlar soni 440 ming kishi, ko'chib ketganlar soni 320 ming kishi bo'lsa, umumiy migratsiya, migratsiya samaradorligi va migratsion oborot intensivligi koeffitsiyentlarini aniqlang.

7-misol. Tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti 25.5‰, 15-49 yoshdagi ayollarning jami aholiga nisbatan salmog'i 27%, tug'ilganlar soni 68 ming kishi bo'lsa, tug'ilish koeffitsiyentini, aholi va ularning o'rtacha yillik sonini aniqlang.

8-misol. 2014-yilda maxsus tug'ilish koeffitsiyenti 28‰, 15-49 yoshdagi ayollarning jami aholiga nisbati salmog'i 30%, tug'ilganlar soni 13 ming kishi bo'lsa, tug'ilishning umumiy koeffitsiyentini, ayollar va aholining o'rtacha yillik sonini aniqlang.

9-misol. Berilganlar bo'yicha 2014 va 2015-yillar uchun aholining o'rtacha sonini aniqlang:

2.4-jadval

1-variant	2-variant	Aholi soni, mln.kishi
01.01.2013 y	01.01.2014 y	86.2
01.04.2013 y	01.04.2014 y	86.5
01.07.2013 y	01.09.2014 y	88.9
01.10.2013 y	01.10.2014 y	90.4
01.01.2014 y	01.01.2014 y	92.6

10-misol. Shaharda 2007-yilda tug‘ilishning maxsus ko‘effitsiyenti 49.9 %, tug‘ilganlar soni 5 ming kishini, o‘lganlar soni 3 ming kishini, 15-49 yoshdagi ayollar salmog‘i 26 %, migratsiya saldosi 4 ming kishini tashkil etgan.

Aholining tug‘ilish, o‘lish, umumiy o‘sish va hayotlik ko‘effitsiyentlarini aniqlang.

11-misol. Quyidagi ma’lumotlar keltirilgan:

tug‘ilishning maxsus ko‘effitsiyenti «A» tumanida 12 %, «B» tumanida esa 14 % ni tashkil etgan. Aholining o‘rtacha yillik soni «B» tumanida «A» tumandagiga nisbatan 3 marta ko‘p. Ikkala tuman bo‘yicha tug‘ilishning umumiy ko‘effitsiyentini aniqlang.

12-misol. Xududda iqtisodiy faol aholi soni 1.73 mln kishini, ishsizlar soni 71.5 ming kishini, jami aholi soni 3.5 mln kishini tashkil etganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Aniqlang:

- 1) Aholining iqtisodiy faollik ko‘effitsiyentini;
- 2) bandlik va ishsizlik ko‘effitsiyentini.

13-misol. Viloyat aholisi 2200 ming kishi, shundan ayollar 52.8% tashkil etgan. Mehnatga qobiliyatli yoshdagi erkaklar va ayollar salmog‘i ularning jami sonida mos ravishda 62.5% va 52.5 %, ishlayotgan I va II guruh nogironlari salmog‘i esa 1 % teng bo‘lgan. Bundan tashqari 93.6 ming ta pensionerlar va 10 ming ta 14-15 yoshdagi o‘spirinlar haqi to‘lanadigan ish bilan ta’minlangan. Viloyatda boshqa davlatlardan 15 ming kishi kelib, ishlagan va 7 ming kishi ishlash uchun boshqa mamlakatlarga ketgan. Iqtisodiy faol aholi soni 1025.5 mingni tashkil etib, shundan 8 % ishsiz bo‘lgan. Mehnatga qobiliyatli yoshdagi iqtisodiy nafaol aholi 275 ming kishini tashkil etgan. Mehnat resurslarining balansini tuzing.

Aniqlang:

- 1) Mehnat resurslarining sonini;
- 2) Mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi salmog‘ini;
- 3) Mehnatga qobiliyatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi sonini;
- 4) Band aholi sonini;
- 5) Jami aholining va mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholining mehnatga layoqatlilik ko‘effitsiyentlarini;
- 6) Iqtisodiy faollik, bandlik va ishsizlik ko‘effitsiyentlarini;
- 7) Mehnatga layoqatli aholining iqtisodiy faollik darajasini.

14-misol. Shahardagi ayollar soni va tug‘ganlar bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar keltirilgan.

2.5-jadval

Yosh guruhlari, yil	Ayollar soni, ming kishi	Tug‘ganlar soni, ming kishi
15-19	48.5	2.55
20-24	48.0	7.87
25-29	61.8	6.37
30-34	63.9	3.49
35-39	58.6	1.29
40-44	38.9	0.19
45-49	41.9	0.01

Shahar aholisining o‘rtacha yillik soni 1470 ming kishini tashkil etgan.

Aniqlang:

- 1) Umumiy tug‘ilish koeffitsiyentini;
- 2) Maxsus tug‘ilish koeffitsiyentini;
- 3) Yoshlar bo‘yicha maxsus tug‘ilish koeffitsiyentlarini;
- 4) Umumiy tug‘ilish koeffitsiyentini.

15-misol. Shahar aholisi yil boshiga 1516.2 ming kishi va yil oxiriga 1551.8 ming kishini tashkil qilgan. Yil davomida 38682 kishi tug‘ildi, 10989 kishi o‘ldi, shu jumladan 1516 nafar bir yoshgacha bo‘lgan bolalar, 18113 kishi nikohdan o‘tganlar, 1380 kishi ajrashgan.

Aniqlang:

- 1) aholining o‘rtacha yillik sonini;
- 2) tug‘ilish, o‘lim, bolalar o‘limi koeffitsiyentlarini;
- 3) tabiiy va mexanik o‘sish koeffitsiyentlarini;
- 4) Nikohdan o‘tish va ajralish koeffitsiyentlarini.

16-misol. Iqtisodiy faol va nafaol aholi to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan (ming kishi).

2.6-jadval

Aholi soni	2415
Mehnat yoshidan oshgan ishchilar	920
Individual asosda ishlayotgan shaxslar	120
Oilaviy pudradda oylik olmasdan ishlayotganlar	25
Ish beruvchilar	15
Kooperativ a‘zolari	150

Ishsizlar va ish qidirayotganlar	145
Vaqtincha ish qidirayotganlar	5
O'spirinlar	50
Ishdan ajragan mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi	150
Uy bekalari, (mehnatga qobiliyatli yoshda)	150
Pensionerlar va nogironlar	520
Pensiya yoshida, ishlayotganlar	30
Ishlayotgan o'spirinlar	10
Mehnat yoshida ishlamayotganlar(ishlashga muhtoj emas)	30
Uzoq vaqt ishlamayotgan va ish qidirishni to'xtatganlar	5

Aniqlang:

band aholi sonini;

ishsizlar sonini;

iqtisodiy faol aholi sonini;

iqtisodiy nafaol aholi sonini;

iqtisodiy faollik koeffitsiyentini;

bandlik koeffitsiyentini;

ishsizlik koeffitsiyentini.

7-misol. O'zbekiston Respublikasida aholining yoshi bo'yicha guruhlangan quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: (yil oxiriga, ming kishi).

2.7-jadval

Aholining yoshi bo'yicha guruhlar	2013-yil		2014-yil	
	ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
Jami aholi. Shu jumladan, yoshda, yil:	12743	12684	12876	12831
1	2	3	4	5
0-2	749.9	792.2	739.7	784.3
3-5	804	844.7	767.5	806.1
6-7	614.4	645.7	582.4	614.5
8-15	2529.6	2623	2525	2625
1	2	3	4	5
16-17	617.4	629.1	626.9	642.5
18-19	550.5	558.4	584.9	593.5
20-24	1191.4	1210.9	1230	1248.0
25-29	1023.6	1036.8	1042	1051.7
30-34	923.5	909.8	936	935.2
35-39	846.9	805.2	849.8	806.8
40-49	1372.3	1325.4	1434.5	1382.1

50-59	612.99	448.5	465.1	431.5
60-69	487.8	448.5	465.1	431.5
70 yoshdan yuqori	418.9	273.1	421.5	278.9

Ilova:

2.8-jadval

	2013y	2014y
Respublika bo'yicha nikohdan o'tganlar (ming kishi)	165.6	161.7
Sh.J. Qishloq aholisi	99.9	96.1
Shahar aholisi	65.7	65.6
Nikohdan ajrashganlar(ming kishi)	18.3	17.6
Sh.J. Qishloq aholisi	6.3	6.4
Shahar aholisi	12.0	11.2

Aniqlang:

1. Yillar bo'yicha har bir yosh guruhidagi aholi salmog'ini;
2. Har bir yosh guruhlari bo'yicha aholi sonining dinamikasini;
3. Nikohdan o'tish va nikohdan ajralish koeffitsiyentlarini;
4. Aholining qarish (60 va undan yuqori yoshdagilar bo'yicha) demografiyasini;
5. Olingan ma'lumotlar bo'yicha xulosa qiling.

18-misol. Aholi punktida ro'yxatga olishning kritik vaqtida 58605 kishi bo'lib, hisobchilarning aniqlashicha, 3560 kishi vaqtincha yashagan va hozir yo'q. Vaqtincha yashovchi aholi 3005 kishini tashkil etgan. Doimiy aholi sonini aniqlang.

19-misol. Andijon viloyatining hududi 4.3 ming km², uning hududida 890 ta aholi yashash punktlari mavjud bo'lib, ularda 01.01.2007-yilda 2409.8 ming kishi istiqomat qilgan.

Aholi zichligini aniqlang.

20-misol. Shaxarda yashaydi a) 16 – 54 yoshgacha o'smirlar, 85 ming kishi; b) 16-59 yoshdagi erkaklar, 75 ming kishi; v) 16-54 yoshdagi ayollar, 83 ming kishi; g) ishchi yoshidan o'tganlar 38 ming kishi. Mehnatga qobiliyatli yoshdagi ishlamayotgan I va II guruh nogironlar hamda ishchi yoshdagi ishlamaydigan pensionerlar soni mehnatga qobiliyatli yoshdagilarning umumiy soniga 1 % tashkil etadi. Ma'lumki, shaharda aholining 150 ming nafari ish bilan band bo'lib, ularning 146 mingtasi mehnatga qobiliyatli yoshdadir.

Aniqlang:

- 1) Mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi salmog‘ini;
- 2) Mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholining «Pensioner yuklamasi», potentsial almashtirilish va umumiy yuklamasi koeffitsiyentlarini;
- 3) Mehnat resurslarining sonini;
- 4) Jami aholi va mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholining mehnatga layoqatlilik koeffitsiyentlarini;
- 5) jami aholi sonidan mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholining, mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholidan mehnatga layoqatlilarining bandlik koeffitsiyentlarini.

21-misol. O‘zbekiston Respublikasida 2008-yilning 1 yanvar holatiga doimiy aholi soni 27072.8 ming kishini tashkil etib, shundan: a) 16 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar 9015.0 ming nafar. b) mehnatga qobiliyatli yoshdagilar (16-55(60)yil) 16108.0 ming kishi; v) pensiya yoshdagilar 1949.2 ming kishi.

Aniqlang:

- 1) a, b va v lar bo‘yicha aholining salmog‘ini;
- 3) Demografik yuklama koeffitsiyentlarini.

22-misol. O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlar mavjud (yil boshiga, ming kishi)

2.9-jadval

Yil	Jami aholi	Shu jumladan:	
		shahar aholisi	qishloq aholisi
2007	24487.7	9165.5	15322.2
2008	24813.1	9225.3	15587.8
2009	25115.8	9286.9	15828.9
2010	25427.9	9340.7	16087.2
2011	25707.4	9381.3	16326.1
2012	26021.3	9441.9	16579.4
2013	26312.7	9495.1	16817.6
2014	26663.8	9584.6	17079.2
2015	27072.2	9698.2	17374.0

Hisoblang:

- 1) Shahar va qishloq aholisi hamda jami aholi sonining dinamikasini;
 - 2) Zanjirsimon o‘shish va qo‘shimcha o‘shish sur‘atlarini;
 - 3) Jami aholi sonida shahar va qishloq aholisining salmog‘ini (%);
- Olingan ma’lumotlarni tahlil qiling. Ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida tasvirlang.

23-misol. O'zbekiston Respublikasida mavjud aholi soni 2015 va 2016-yillarning boshida mos ravishda 26407,8 va 26758,9 ming kishini tashkil etib, 2015-yil davomida tug'ilganlar soni 555,9 ming nafarga, vafot etganlar esa 139,6 ming kishiga, shundan 1 yoshga yetmasdan vafot etgan go'daklar soni 8,0 mingtaga teng bo'lgan.

Aniqlang: 1) mavjud aholining 2015-yil uchun o'rtacha sonini; 2) migratsiya saldosini; 3) aholining tug'ilish, vafot etish, tabiiy o'sish va hayotiylik ko'effitsiyentlarini; 4) 1 yoshgacha bo'lgan go'daklarning vafot etish (1000 ta tug'ilganlar bo'yicha) ko'effitsiyentini; 5) sof migratsiya (mexanik o'sish) ko'effitsiyentini; 6) aholining umumiy o'sish ko'effitsiyentini.

24-misol. 22-misolda keltirilgan 2007-2015-yillardagi aholi-ning umumiy soni to'g'risidagi ma'lumotlar asosida aholining 01.01.2010 va 01.01.2015-yillar uchun istiqboldagi sonini taxminlang.

25-misol. O'zbekiston Respublikasida 2015-yilda nikohlar soni 208,5 mingtani, shu jumladan, shahar aholisi bo'yicha 71,6 minggani tashkil etib, ajralishlar soni mos ravishda 16,2; 9,8 va 6,4 mingtaga teng bo'lgan. 2015-yilda jami mavjud aholining o'rtacha sonida shahar aholisining salmog'i 36,1 % tashkil etgan.

Aniqlang:

1) 1.23-misoldagi ma'lumotlar asosida jami hamda shahar va qishloq aholisi bo'yicha nikohdan o'tish va ajralishlar ko'effitsiyentini;

2) Tegishli xulosalar qiling.

26-misol. O'zbekiston Respublikasida 2015-yilda tug'ilishning umumiy ko'effitsiyenti 20,9 ‰ tashkil etib, jami aholining o'rtacha yillik sonida 15-49 yoshdagi ayollarning salmog'i 26,0 % teng bo'lgan. Tug'ilishning maxsus ko'effitsiyentini aniqlang.

27-misol. O'zbekiston Respublikasida 2015-yilda tug'ilishning maxsus ko'effitsiyenti 80,4 %, tug'ilganlar soni 555,9 ming nafar, vafot etganlar 139,6 ming kishini, jami aholining o'rtacha yillik sonida 15-49 yoshdagi ayollarning salmog'i 26,0 %, migratsiya saldosini – 65,2 ming kishiga teng bo'lgan.

Aholining tug'ilish, vafot etish, tabiiy o'sish, hayotiylik va umumiy o'sish ko'effitsiyentlarini aniqlang.

28-misol. Jami aholi sonida fertil yoshidagi ayollarning salmog'i 30 %, tug'ilish ko'effitsiyenti 8,9%, yil davomida tug'ilganlar soni 15000 nafarni tashkil etgan.

Aniqlang:

- 1) Tug'ilishning maxsus ko'effitsiyentini;
- 2) Aholining o'rtacha yillik sonini.

29-misol. Rossiya Federatsiyasida 2014-yilda aholining o'rtacha soni 145200 ming kishini tashkil etgan. 2014-yil mobaynida RFga ko'chib kelganlar soni 184,6 ming kishi, ko'chib ketganlar esa 106,9 ming kishi.

Aniqlang:

- 1) Mexanik o'sish ko'effitsiyentini;
- 2) Migratsion oborotning intensivligi ko'effitsiyentini;
- 3) Migratsiyaning samaradorligi ko'effitsiyentini.

30-misol. Agar aholining umumiy o'zgarish ko'effitsiyenti – 2%, tabiiy o'zgarish ko'effitsiyenti -4 % 0 ga teng bo'lsa, migratsiya ko'effitsiyenti qancha bo'ladi?

31-misol. Quyidagi ma'lumotlar asosida yoshni siljitish usulida aholining istiqboldagi sonini hisoblang.

2.10-jadval

Yosh	Mazkur yoshdagi aholining 2009-yil boshidagi soni, kishi	Har bir yosh yashashi mumkin bo'lgan ehtimollik koef. Rx	Yil boshidagi yoshlar		
			2010	2011	2012
16	3786	0,99641	-	-	-
17	3764	0,99600	$3786 \cdot 0,99641 = 3772$		
18	3742	0,99562	...	$3772 \cdot 0,99600 = 3757$	
19		0,99526	...	...	$3757 \cdot 0,99562 = 3740$
20		0,99503	-	...	...
21			-	-	...

3-MAVZU. MEHNAT BOZORI STATISTIKASI

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Mehnat bozori statistikasini tasniflash. Mehnat bozori statistikasini korxona iqtisodiyotidagi rolini aniqlash, ularning tarkibini guruhlariga bo'lib o'rganish. Xodimlar sonining o'zgarishlari harakatini statistik ko'rsatkichlar orqali o'rganish. Ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini tavsiflash. Korxona xodimlarining ish vaqtini hisoblash. Ish vaqti fondlaridan foydalanish koeffitsiyentlarini aniqlash.

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Mehnat bozori statistikasini tasnifi.
2. Mehnat bozori statistikasini korxona iqtisodiyotidagi roli va ularning tarkibi.
3. Xodimlar sonining o'zgarish harakatining statistik ko'rsatkichlari.
4. Ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi.
5. Korxona xodimlarining ish vaqti.
6. Ish vaqti fondlaridan foydalanish koeffitsiyentlari.

Nazorat va muxokama uchun savollar

1. Mehnat bozori statistikasini tasniflang?
2. Mehnat bozori statistikasini korxona iqtisodiyotidagi roli qanday?
3. Mehnat bozori statistikasining tarkibi qanday guruhlariga bo'lib o'rganiladi?
4. Xodimlar sonining o'zgarishlari harakatini statistik ko'rsatkichlar orqali o'rganish yo'llarini aniqlang?
5. Ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini tavsiflang?
6. Korxona xodimlarining ish vaqti qanday hisoblanadi?
7. Ish vaqti fondlaridan foydalanish koeffitsiyentlarini aniqlang?

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Iqtisodiy faoliyat insonning moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratishga qaratilgan ongli faoliyatidir. Korxona faoliyatining asosiy omillari: ishchi kuchi (jonli mehnat); asosiy fondlar (asosiy kapital-mehnat vositasi), xom ashyo resurslari (aylanma kapital-mehnat predmeti)ning bozor iqtisodiyotidagi roli va ularning natijaviy ko'rsatkichlarga ta'siri butunlay o'zgaradi.

Ularning tarkibi quyidagi guruhlariga bo'lib, o'rganiladi:

> tarmoqlar bo'yicha (asosiy va yordamchi faoliyat);

- > ish jarayonidagi tutgan o‘rniga qarab (rahbarlar, mutaxassislar, xizmatchilar va ishchilar);
- > demografik ko‘rsatkichi bo‘yicha (jinsi, yoshi bo‘yicha);
- > mutaxassisligi bo‘yicha;
- > malakasi bo‘yicha va boshqalar.

Xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni, ishga kelganlar va haqiqatda ishlaganlarning o‘rtacha soni ko‘rsatkichlarini faoliyat davri bo‘yicha aniqlash mumkin.

Ro‘yxatdagi xodimlarning o‘rtacha oylik sonini ($\bar{T}$) aniqlash uchun oyning har bir kuni bo‘yicha ro‘yxatdagi xodimlar soniga (T) qo‘shilib, shu davrning kalendari bo‘yicha kunlar soni (K_k) ga bo‘linadi, ya’ni

$$\bar{T} = \sum T : K_k \text{ yoki } \bar{T} = \sum T_{kk} : K_k$$

bu yerda $\sum T_{kk}$ – oy davomida ishlangan va ishlanmagan kishi-kunlarining yig‘indisi.

Ishga kelgan xodimlarning o‘rtacha sonini aniqlashda oy (davr) davomida ishga kelganlar sonini (yoki ishga kelingan kishikunlarini) shu oy (davr)dagi ish kunlariga bo‘linadi.

Haqiqatda ishlagan xodimlarning o‘rtacha soni $\bar{T}_{xx}$ ni aniqlashda davr davomida haqiqatda ishlaganlarning umumiy soni (T_{xx}) ni shu davrdagi ish kunlari – D_k ga bo‘linadi:

$$\bar{T} = \sum T_{xx} : D_k$$

T_{xx} = ishga kelganlar soni – ishga kelib, kun bo‘yi bekor turganlar soni.

Korxona xodimlarining soni ishdan bo‘shatilganlar va ishga kabul qilinganlar hisobiga o‘zgarib turadi.

Statistika xodimlar sonining o‘zgarishlari harakatini quyidagi ko‘rsatkichlar orqali o‘rganadi:

1. Xodimlarning ishdan bo‘shatilish koeffitsiyenti ($K_{\delta yu}$)-hisobot davrida ishdan bo‘shatilganlar sonini ($T_{\delta yu}$) xodimlarning shu davrdagi ro‘yxatdagi o‘rtacha soni ($\bar{T}$) ga bo‘lish orqali aniqlanadi:

$$K_{bo'sh} = T_{bo'sh} : \bar{T}$$

2. Xodimlarni ishga qabul qilish koeffitsiyenti-hisobot davrida ishga qabul qilinganlar sonini (T_{kk}) shu davrdagi xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soniga bo‘lish orqali aniqlanadi:

$$K_{kk} = T_{kk} : \bar{T}$$

3. Qo'nimsizlik koeffitsiyenti (K_{kun})-hisobot davrida o'z arizasiga ko'ra va intizomni buzgani uchun ishdan bo'shatilganlar sonini (T_{κ}), shu davrdagi xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha soniga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$K_{kun} = T_{\kappa} - \bar{T}$$

4. Xodimlarning doimiylik koeffitsiyenti butun davr (yil) davomida ishlaganlar sonini shu davr (yil) oxiridagi xodimlarning (yoki o'rtacha ro'yxatdagi) soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

5. Xodimlarning umumiy aylanish koeffitsiyenti (K_{um}):

$$K_{um} = (T_{\kappa} - T_{bo'sh}) : \bar{T}$$

Korxona xodimlarining ish vaqti, odatda, kishi-soat va kishi-kunlar orqali hisoblanadi. Kishi-kun hisobida har bir xodimning ishga kelgan va kelmaganligi, ishlagan va ishlamaganligi hisobga olinadi.

Ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini tavsiflash uchun quyidagi vaqt fondlari ko'rsatkichi aniqlanadi:

1. Xodimlarning kalendar vaqti fondi. Uni aniqlash uchun davrning barcha kalendar kunlaridagi xodimlarning ro'yxatdagi sonini jamlash yoki shu davrdagi xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi sonini kalendar kunlari soniga ko'paytirish zarur.

2. Tabel ish vaqti fondi. Uni aniqlash uchun kalendar vaqt fondidan bayram va dam olishga to'g'ri kelgan kunlar sonini ayirish kerak.

3. Maksimal imkoniyatli ish vaqti fondi. Uning miqdori tabel ish vaqti fondi va navbatdagi mehnat ta'tiliga to'g'ri kelgan kunlar soni o'rtasidagi tafovutga teng.

Ish vaqti fondlaridan foydalanish koeffitsiyentlarini aniqlashda haqiqatda ishlangan kishi-kunlarini mos ravishda ularning miqdoriga bo'linadi.

Ish vaqtidan foydalanishning ko'rsatkichlari:

1. Ish kunining o'rtacha doimiyligi jami ishlangan kishi-soatlarni ishlagan kishi-kunlarga bo'lish orqali aniqlanadi.

2. Har bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish kunlari soni jami ishlagan kishi-kunlarni ishchilarning ro'yxatdagi o'rtacha soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

3. Har bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish soatlari soni uni jami ishlagan kishi soatlarni ishchilarning ro'yxatdagi o'rtacha soniga bo'lish yoki ish kunining bir ishchi davomiyligini o'rtacha ishlagan o'rtacha kishi-kunlariga ko'paytirish orqali aniqlash mumkin.

Ishlab chiqarishni tashkil qilishning muhim ko'rsatkichlaridan biri ishchilarning smenalik koeffitsiyenti bo'lib, u hisobot davrida jami ishlangan kishi-kunlarning eng to'liq quvvat bilan ishlangan ish smenasidagi kishi-kunlari soniga bo'lib, aniqlanadi.

1-misol. O'z faoliyatini 10 mayda boshlagan firmaning ishchilar soni ro'yxat bo'yicha 10-21 mayda – 220 kishi, 22-25 mayda – 210 kishi, 26-31 may kunlari – 205 kishidan iborat bo'lgan.

Firma ishchilarining o'rtacha ro'yxatdagi soni:

Iyun oyida 210 kishini, III chorakda 225, Oktyabr 245 kishi, Noyabr 240 kishini, Dekabrda 242 kishini tashkil etgan.

Firma ishchilarining o'rtacha ro'yxatdagi sonini aniqlang:

may oyiga; II chorakka; 1 -yarim yillikka; IV chorakka; II yarim yillikka; yil uchun.

Yechish:

$$1) \bar{T}_{may} = \frac{220 \cdot 12 + 210 \cdot 4 + 205 \cdot 6}{31} = \frac{2640 + 840 + 1230}{31} = 152 \text{ kishi}$$

$$2) \bar{T}_{Ich} = \frac{0 + 152 + 210}{3} = 121 \text{ kishi}$$

$$3) \bar{T}_{1yarimyl} = \frac{I_{chor} + II_{chor}}{2} = \frac{0 + 121}{2} = 60 \text{ kishi}$$

$$4) \bar{T}_{IV} = \frac{245 + 240 + 242}{3} = \frac{727}{3} = 242 \text{ kishi}$$

$$5) \bar{T}_{2yarimyl} = \frac{III_{chorak} + IV_{chorak}}{2} = \frac{225 + 242}{2} = 233 \text{ kishi}$$

$$6) \bar{T}_{yillik} = \frac{I_{chor} + II_{chor} + III_{chor} + IV_{chor}}{4} = \frac{0 + 121 + 225 + 242}{4} = \frac{588}{4} = 147 \text{ kishi}$$

2-misol. Firma xodimlarini ish vaqtdan foydalanishi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan(kishi kuni):

1. Haqiqiy ishlagan kunlar 21150

2. Bayram va dam olish kunlari 4820

3. Mehnat ta'tili kunlari 1440

4. Ishga chiqmagan kunlar:

a) kasallik bo'yicha 360

b) dekret bo'yicha 172

v) o'quv ta'tili bo'yicha 150

g) boshqa sabablarga ko'ra ishlamagan kunlar 104

5. Bekor turib qolgan kunlar 190

6. Jami ishlagan kishi soatlari 136200 sh.j. ustama (sverx urochno)

1600

7. Normativ bo'yicha ish kunining uzunligi 7.0 soat berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

1) Kalendar, tabel va maksimal imkoniyatli ish vaqti fondlarini va ulardan foydalanish darajasini;

2) Haqiqiy ish kunining uzunligini va normativ ish kuni uzunligi darajasini;

3) Ustama ish kuni hisobga olinganda haqiqiy ish kuni uzunligini;

4) O'rtacha ro'yxatdagi ishchilar sonini

Yechish:

1) Kalendar, tabel va maksimal imkoniyatli ish vaqti fondlari:

$$KIVF = T_{kelgan} + T_{kelmagan} = 21150 + 4820 + 1440 + 360 + 172 + 150 + 104 + 190 = 28386 \text{ kishi-kuni}$$

$$TIVF = KIVF - T_{bayr, dam. kun} = 28386 - 4820 = 23566 \text{ kishi kun}$$

$$MIIVF = TIVF - T_{ta'til kun} = 23566 - 1440 = 22126 \text{ kishi kun}$$

Ish vaqtdan foydalanish ko'rsatkichlari:

$$K_{KIVF} = \frac{\text{Haq.ishlagan kishi - kunlar}}{\text{Kalendarish vaqti fondi}} \times 100 = \frac{21150}{28386} \times 100 = 74,5\%$$

$$K_{TIVF} = \frac{\text{Haq ishlagan kishi - kunlar}}{\text{Tabelish vaqti fondi}} \times 100 = \frac{21150}{23566} \times 100 = 89,7\%$$

$$K_{MIIVF} = \frac{\text{Haq ishlagan kishi - kunlar}}{\text{Mak. imk ish vaqti fondi}} \times 100 = \frac{21150}{22126} \times 100 = 95,6\%$$

2) Ish kunining haqiqiy uzunligi

$$= \frac{\text{Ishlagan kishi - soatlar}}{\text{Haq.ishlagan kishi - kunlari}} = \frac{136200}{21150} = 6,44 \text{ soat}$$

O'rnatilgan ish soatidan foydalanish darajasi:

$$K_{tk} = \frac{6,44}{7,0} = 0,92 \text{ yoki } 92\%$$

3) Ustama ishlagan kishi-soatlarni hisobga olmaganda ish kuni-ning haqiqiy uzunligi:

$$\frac{136200 - 1600}{21150} = \text{yoki } 6,36 \text{ soat}$$

U holda foydalanish darajasi:

$$K_{tk} = \frac{6,36}{7,0} = 90,8\%$$

4) O'rtacha ro'yxatdagi ishchilar soni:

$$\bar{T}_p = \frac{KIVF}{\text{Kalendar kunlar}} = \frac{28386}{365} = 78 \text{ kishi}$$

Mehnat unumdorligi deb, vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmiga yoki mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan vaqtga aytiladi.

Mehnat unumdorligining darajasini ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini shu mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan vaqtga nisbati ko‘rinishida $\omega = q/T$ yoki mahsulot birligiga ketgan vaqt sarfi $t = T/q$ ko‘rinishida aniqlanadi. Ushbu ikki ko‘rsatkich o‘rtasida teskari proportsional bog‘lanish bor: $t = 1/\omega$ va $\omega = 1/t$.

Har xil turdagi mahsulot ishlab chiqarilganda mehnat unumdorligi darajasini qiymat usuli yordamida hisoblanadi:

$$\omega = \frac{\sum qP}{\sum T}$$

bu yerda, q -ayrim mahsulot turlarining miqdori;

R – shu mahsulot birligining ulgurji bahosi.

Mehnat unumdorligining o‘zgarishi iqtisodiy indekslar yordamida o‘rganiladi. Individual mehnat unumdorligi indeksi quyidagicha aniqlanadi:

$$i_\omega = \frac{q_1}{T_1} : \frac{q_0}{T_0} = \omega_1 / \omega_0$$

Bu yerda q_1 va q_0 – asosiy va bazis davrlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning natura ko‘rsatkichlaridagi hajmi;

T_1 va T_0 – joriy va bazis davrlarda ishlab chiqarishga sarflangan ish vaqti;

ω_1 va ω_0 ~ joriy va bazis davrlardagi mehnat unumdorligining darajasi;

Har xil turdagi mahsulot ishlab chiqarishda mehnat unumdorligining dinamikasi qiymat ko‘rsatkichlari orqali o‘rganiladi:

$$I_\omega = \frac{\sum q_1 P_0}{\sum T_1} : \frac{\sum q_0 P_0}{\sum T_0}$$

bu yerda $\sum q_1 P_0$ va $\sum q_0 P_0$ ~ joriy va bazis davrlardagi mahsulotlarning o‘zgarmas bahodagi hajmi;

T_1 va T_0 – ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlarning joriy va bazis davrlardagi o‘rtacha soni.

Mehnat unumdorligining va sarflangan ish vaqtining o‘zgarishi quyidagi indekslar yordamida ham aniqlanadi:

$$I_{1/t} = \frac{\sum q_1 t_1}{\sum q_1 t_0} \text{ va } I_t = \frac{\sum q_1 t_1}{\sum q_1 t_0}$$

bu yerda t – mahsulot birligiga sarflangan ish vaqti.

Bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda mehnat unumdorligining quyidagi umumiy indekslar aniqlanadi:

Mehnat unumdorligining o'zgaruvchan tarkibli indeksi:

$$J_{\text{yz}(\bar{w})} = \frac{\bar{w}_1}{\bar{w}_0} = \frac{\sum W_1 T_1}{\sum W_0 T_0} = \frac{\sum W_1 d_1}{\sum W_0 d_0}$$

bu yerda d_0 ish vaqti sarfining salmog'i ($T: \sum T$);

$\bar{w}$ – mehnat unumdorligining o'rtacha darajasi.

Bu indeksning miqdoriga ikkita omil ta'sir etadi:

- a. Alohida korxonalarda mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishi;
- b. Ish vaqti sarfi salmog'ining o'zgarishi.

Ushbu omillardan har birining ta'sirini alohida aniqlash uchun o'zgar-mas (doimiy) tarkibli va tuzilmaviy siljishlar indeksleri hisoblanadi.

Uchastkalaridagi birinchi omilning ta'siri hisobiga mehnat unumdorligining o'rtacha o'zgarishi mehnat unumdorligi doimiy tarkibli indeksi bilan tavsiflanadi.

$$J_{\text{doim}(w)} = \frac{\sum W_1 T_1}{\sum W_0 T_0} = \frac{\sum W_1 d_1}{\sum W_0 d_0}$$

Ikkinchi omilning ta'siri hisobiga mehnat unumdorligining o'rtacha o'zgarishi tuzilmaviy siljishlar indeksi orqali aniqlanadi:

$$J_{\text{tuz}} = \frac{\sum W_1 T_1}{\sum W_0 T_0} = \frac{\sum W_1 d_1}{\sum W_0 d_0}$$

Ushbu indekslar o'rtasida quyidagi bog'liqliklar mavjud:

$$J_{\text{ozg}(\bar{w})} = J_{\text{doim}(w)} * J_{\text{tuz}}$$

Ish haqi milliy daromadning o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishlari uchun ularning bajargan mehnatlarining miqdori va sifatiga bog'liq holda ajratiladigan qismidir.

Ish haqi fondi deganda korxona xodimlariga ish haqi to'lash uchun ajratiladigan pul miqdori tushuniladi.

Statistikada ish vaqti birliklariga mos ravishda soatlik, kunlik va oylik ish haqi fondlari aniqlanadi.

Ishchilarning ish haqi fondlari va ish vaqti birliklariga bog'liq holda o'rtacha soatlik, o'rtacha kunlik va o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichlari aniqlanadi.

O‘rtacha soatlik ish haqi (f_s) ishchilarning haqiqatda ishlagan har bir soati uchun to‘lanadigan haqni tavsiflab, ish haqining soatlik fondini (F_s) ishlangan kishi-soatlari (T_s) ga bo‘lish orqali aniqlanadi: $f_s = F_s : T_s$

O‘rtacha kunlik ish haqi (f_k) ishchilarning haqiqatda ishlagan har bir kuni uchun oladigan haqni tavsiflab, ish haqining kunlik fondini (F_k) ishlangan kishi-kunlari (T_k) ga bo‘lish orqali aniqlanadi: $f_k = F_k : T_k$

O‘rtacha oylik ish haqi (f_{oy}) haqiqatda ishlagan har bir oy uchun to‘lanadigan haqni tavsiflab, ish haqining oylik fondini (F_{oy}) ishchilarning ro‘yxatdagi oylik o‘rtacha soni ($\bar{T}$)ga bo‘lish orqali aniqlanadi. $f_{oy} = F_{oy} : \bar{T}$

$$f_{oy} = \frac{IXFo}{T}$$

O‘rtacha ish haqi ko‘rsatkichlari o‘rtasida quyidagi bog‘liqliklar mavjud:

$$f_k = f_s \cdot T_k \text{ va } f_{oy} = f_k \cdot T_{oy}$$

bu yerda, T – ish kuni davomiyligi, soat; T_{oy} – ishchi oyining davomiyligi, kun.

O‘rtacha ish haqi darajasining o‘zgarishiga ayrim guruh ishchilarining ish haqi darajasi va har xil darajada ish haqi oluvchi xodimlar sonidagi nisbatning o‘zgarishi omillari ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu ikki omilning birgalikdagi ta’siri o‘zgaruvchi tarkibli ish haqi indeksi orqali tavsiflanadi:

$$J_f = \frac{\sum \Phi_1}{\sum T_1} : \frac{\sum \Phi_0}{T_0} = \bar{f}_1 : \bar{f}_0$$

Bu yerda, $\sum F_1$ va $\sum F_0$ – joriy va bazis davrlardagi ish haqi fondi: $\bar{f}_1$ va $\bar{f}_0$ - joriy va bazis davrlarda bir ishchiga to‘g‘ri kelgan o‘rtacha ish haqi.

3-misol. Bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi ikki korxona bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar berilgan:

3.1-jadval

Korxonalar	Bazis davri		Hisobot davri	
	Ishlab chiqarilgan mahsulot, tonna	Ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni, kishi	Ishlab chiqarilgan mahsulot,tonna	Ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni,kishi
	q_0	T_0	q_1	T_1
№1	1800	450	1260	300
№2	2250	450	5400	720

Berilgan ma’lumotlar asosida har bir korxona bo‘yicha mehnat unumdorligi darajasini, ishchilar sonini, tarkibini va mehnat unumdorligi indekslarini aniqlang.

Yechish:

mehnat unumdorligi darajasi: ($W_0=q_0: T_0$ va $W_1=q_1: T_1$):

1-korxona

$$W_0 = \frac{1800}{450} = 4,0 \text{ t/kishi};$$

$$W_1 = \frac{1260}{300} = 4,2 \text{ t/kishi};$$

2-korxona

$$W_0 = \frac{2250}{450} = 5,0 \text{ t/kishi};$$

$$W_1 = \frac{5400}{720} = 7,5 \text{ t/kishi};$$

Har bir korxona bo'yicha mehnat unumdorligi dinamikasi: ($i = \frac{W_1}{W_0}$):

$$i_1 = \frac{4,2}{4,0} = 1,05;$$

$$i_2 = \frac{7,5}{5,0} = 1,5$$

Jami ishchilarga nisbatan har bir korxona ishchisining salmog'i:

$$d_0 = T_0 : \sum T_0 \quad \text{va}$$

$$d_1 = T_1 : \sum T_1$$

1-korxona

$$d_0 = \frac{450}{900} = 0,5$$

$$d_1 = \frac{300}{102} = 0,294$$

2-korxona

$$d_0 = \frac{450}{900} = 0,5$$

$$d_1 = \frac{720}{1020} = 0,706$$

Ikki korxona bo'yicha mehnat unumdorligining o'rtacha o'zgarish darajasini umumiy o'zgaruvchan indeks asosida aniqlaymiz:

$$J_{\bar{w}} = \frac{\sum W_1 d_1}{\sum W_0 d_0} = \frac{4,2 \cdot 0,294 + 7,5 \cdot 0,706}{4,0 \cdot 0,5 + 5,0 \cdot 0,5} = 1,451 \text{ yoki } 145,1 \%$$

Har bir korxonaning mehnat unumdorligi darajasining o'rtacha o'zgarishiga ta'sirini doimiy indeks orqali aniqlaymiz:

$$I_w = \frac{\sum W_1 d_1}{\sum W_0 d_1} = \frac{4,2 \cdot 0,294 + 7,5 \cdot 0,706}{4,0 \cdot 0,294 + 5,0 \cdot 0,706} = 1,388 \text{ yoki } 138,8 \%$$

Korxonalarda mehnat unumdorligi darajasining oshishi hisobiga oʻrtacha mehnat unumdorligi 38,8 % oshgan.

Ishchilar salmogʻining oʻzgarishi hisobiga mehnat unumdorligining oʻrtacha oʻzgarishini tuzilmaviy siljishlar indeksi yordamida hisoblaymiz:

$$I_{\text{tuz}} = \frac{\sum W_0 d_1}{\sum W_0 d_0} = \frac{4,2 \cdot 0,294 + 5,0 \cdot 0,706}{4,0 \cdot 0,5 + 5,0 \cdot 0,5} = 1,046 \text{ yoki } 104,6 \%$$

Tuzilmaviy siljishlar (2-korxonada ishchilar salmogʻining oshishi) hisobiga oʻrtacha mehnat unumdorligi 4,6% oshdi. Indekslar oʻrtasida bogʻlanish mavjud:

$$I_w = I_w * I_{\text{tuz}} = 1,388 * 1,046 = 1,451$$

4-misol. Ikkita boʻlimdan iborat boʻlgan korxona xodimlarining oʻrtacha oylik ish haqlarining oʻzgarishi quyidagi shartli maʼlumotlar asosida berilgan:

3.2-jadval

Korxona boʻlimlari	Korxona xodimlarining roʻyxatdagi oʻrtacha soni		Oʻrtacha oylik ish haqi, soʻm		Ish haqi fondi, ming soʻm		Boʻlim xodimlari sonining salmogʻi		Shartli ish haqi fondi, ming soʻm
	Bazis davr	Joriy davr	Bazis davr	Joriy davr	Bazis davr	Joriy davr	Bazis davr	Joriy davr	
	T_0	T_1	f_0	f_1	$T_0 f_0$	$T_1 f_1$	d_0	d_1	$f_0 T_1$
1	65	74	250000	310000	16250	22940	0,565	0,587	1850
2	50	52	200000	280000	10000	14560	0,435	0,413	1040
jami	115	126	228260	297620	26250	37500	1,00	1,00	2890

Oʻrtacha oylik ish haqi dinamikasi va unga taʼsir qiladigan omillarni tahlil qilish uchun ish haqining oʻzgaruvchan va oʻzgarmas tarkibli hamda tuzilmaviy siljishlar indekslarini aniqlang.

Yechish:

ish haqining oʻzgaruvchi tarkibli indeksi:

$$I_f = \frac{\sum f_1 T_1}{\sum T_1} = \frac{\sum f_0 d_0}{\sum T_0} = \frac{37500000}{126} : \frac{26250000}{115} = 297619 : 228261 = 1,303 \text{ yoki } 130,3 \%$$

Korxona boʻyicha oʻrtacha ish haqi 30,3% oshgan, uning mutlaq miqdori (297619 – 228261) 69358 soʻm.

Xodimlar ish haqining o'zgarishi hisobiga ish haqining o'rtacha o'zgarishi o'zgarimas tarkib indeksi orqali aniqlanadi:

$$I_f = \frac{\sum f_1 T_1}{\sum f_0 T_1} = \frac{\sum f_1 d_1}{\sum f_0 d_1} = \frac{37500000}{28900000} = 1,2976 \text{ yoki } 129,76 \%$$

Ish haqining o'zgarishi hisobiga korxonada o'rtacha ish haqi 29,8% oshgan. Buning evaziga ish haqi fondi 37500000-28900000=8600000 so'mga ortgan.

Yuqori ish haqi oluvchi xodimlar salmog'ining o'zgarishi ish haqining tuzilmaviy siljish indeksi orqali aniqlanadi:

$$I_{\text{tuz}} = \frac{\sum f_0 T_1}{\sum T_1} : \frac{\sum f_0 T_0}{\sum T_0} = \frac{28900000}{126} : \frac{26250000}{115} = \frac{229365}{115} = 1,0048 \approx 1,005 \text{ yoki } 100,5 \%$$

Yuqori oylik oluvchi xodimlar salmog'ining o'zgarishi hisobiga o'rtacha oylik ish haqi 0,5% oshgan yoki 229365-228261=1104 so'mga o'zgargan.

$$\text{Shundan qilib } J_{\bar{f}} = J_f * I_{\text{tuz}} = 1,298 * 1,005 = 1,303$$

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-misol. Korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar keltirilgan, (kishi-kuni).

Haqiqatda ishlagan kunlar- 228000

Bekor qolingan kunlar- 200

Jami ishga chiqilmagan kunlar - 63800

Shu jumladan:

ta'til kunlari- 13600 kishi / kuni

bayram va dam olish kunlari- 48000 kishi / kuni

Aniqlang: ishchilarning kalendar va maksimal ish vaqti foydalanish darajasini.

2-misol. 2014-yilning 15 sentyabrida o'z faoliyatini boshlagan korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

3.3-jadval

Sana	Ro'yxatdagi ishchilar soni, kishi	Sana	Ro'yxatdagi ishchilar soni, kishi
15	1120	23	1124
16	1122	24	1124
17	1122	25	1122
18	1122	26	1122
19	1126	27	1122
20	1126	28	1118
21	1126	29	1118
22	1125	30	1118

Shuningdek, ishchilar soni bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

1-oktyabrga — 1115 kishi;

1-noyabrga — 1117 kishi;

1-dekabrga - 1114 kishi;

1-yanvar 2015-yilga - 1110 kishi

Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonini aniqlang:

a) sentyabr oyiga

b) III chorakka

v) IV chorakka

g) ikkinchi yarim yillikka

3-misol. Sanoat korxonasi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

1. Ishchilarning jami ishlagan kishi-kunlari..... 614898

2. Ishga chiqilmagan jami kishi-kunlar..... 115640

a) navbatdagi ta'til kunlari..... 1770

b) o'qish bo'yicha ta'til kunlari..... 18172

v) dekret bo'yicha ta'til kunlari..... 21240

g) kasallik sababli..... 1410

d) davlat topshirig'ini bajarilishi bo'yicha..... 4602

e) ma'muriyat ruxsati bo'yicha ishga chiqmaslik..... 9676

j) sababsiz ishga chiqmaslik..... 1888

z) bayram va dam olish kunlari..... 57482

3. Ishlangan kishi-soatlari..... 4550246

1. Berilgan ma'lumotlar asosida ish vaqtidan foydalanish balansini tuzing va aniqlang:

a. ish vaqti fondlaridan foydalanish koeffitsiyentlarini;

v. maksimal imkoniyatli ish vaqti fondi va ishga chiqilmagan kishi-kunlarining strukturasi ko'rsatkichlari.

4-misol. Korxona xodimlari aprel oyida 12632 kishi-kuni ishladilar. Oy davomida ish kunlarining soni 21kun. Bo'sh turib qolgan kunlar 46 kishi-kunini va ishga chiqilmagan kunlar 5352 kishi-kunini tashkil etgan.

Aniqlang:

1. Korxona xodimlarining aprel oyidagi o'rtacha ro'yxatdagi sonini;

2. Ish kunining davomiyligi, soat.

5-misol. Sanoat tarmog'ida ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi yillik soni 112640 kishi. Yil davomida ishga qabul qilinganlar 6560, ishdan

bo'sha-ganlar 7032, shundan qo'nimsizlik sabablari bo'yicha 5022. yil bo'yi ro'yxatda bo'lganlar 99846 kishi.

Ish kuchining harakati ko'rsatkichlarini (ishga qabul qilish va bo'sh shashi, qo'nimsizlik va doimiy) aniqlang.

6-misol.Korxonada ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni 1 – yarim yillikda 300, III chorakda 310, oktyabrda 312, noyabrda 305 kishini tashkil etgan. O'n bir oy uchun ro'yxatdagi o'rtacha ishchilar sonini aniqlang.

7-misol.Ikki korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

3.4-jadval

Davrlar	Ishchilarning ro'yxatdagi o'rtacha soni	
	1-korxona	2-korxona
Yanvar	8000	10000
Fevral	8020	9950
Mart	8022	9952
II chorak	8000	9980
II yarim yillik	7800	9990

Ishchilarning ro'yxatdagi o'rtacha yillik sonini aniqlang.

8-misol.Birlashmada chorak (90 kun) bo'yicha ishchilarning ish vaqtidan foydalanish to'g'risida quyidagi ma'lumotlar mavjud:

1. Ishlangan kishi – kunlari 64950
 2. Kun bo'yi bekor turilgan kishi – kunlari 40
 3. Jami ishlanmagan kishi – kunlari 17195
- Shu jumladan:
- a) navbatdagi mehnat ta'tili 2250
 - b) bayram va dam olish kunlari 12500
4. jami ishlangan kishi – soatlari 467640

Aniqlang:

1) kalendar, tabel va maksimal imkoniyatli ish vaqti fondlaridan foydalanish ko'effitsiyentlarini;

2) ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonini; 3) ish choragining o'rtacha haqiqiy uzunligini (kun) va foydalanish ko'effitsiyentini; 4) ish kunining o'rtacha haqiqiy uzunligini.

9-misol.Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida ishchilarning ro'yxatdagi soni quyidagicha bo'lgan:

1 yanvarda 1530 kishi, 1 fevralda 1536, 1 martda 1528, 1 aprelda 1515, 1 mayda 1512, 1 iyunda 1509 va 1 iyulda 1509 kishi. Ishchilarning ro'yxatdagi o'rtacha soni III chorakda 1510, IV chorakda esa 1525 kishiga teng bo'lgan.

I va II yarim yilliklar hamda yil uchun aniqlang.

10-misol. Korxona bo'yicha quyidagi yillik ma'lumotlar mavjud (kishi-kunlari):

Haqiqiy ishlagan kunlar	– 521100
Jami ishlanmagan kunlar:	
a) bayram va dam olish kunlari	– 244800
b) navbatdagi ta'til kunlari	– 98000
b) o'qish bo'yicha ta'til kunlari	– 1500
g) dekret bo'yicha ta'til kunlari	– 15400
d) kasallik bo'yicha ishlamagan kunlar	– 18000
e) davlat topshirig'ini bajarish hisobiga	– 3900
ж) rahbariyatning ruxsati bilan	– 8200
3) ishga sababsiz kelmaslik	– 1600
Ishchilar tomonidan jami ishlangan kishi-soat	– 4263684

1. Ish vaqti balansini tuzing.

2. Ro'yxatdagi o'rtacha ishchilar sonini aniqlang.

11-misol. Qurilish tashkilotida ikki oyda ish vaqtdan foydalanish bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud:

	Mart	Aprel
Jami ishlangan va ishga chiqilmagan kishi-kunlari	29400	31200
Haqiqatda ishlangan kishi-kunlari	26400	27600
Ishlangan kishi-soatlari	208560	215280
O'rnatilgan ish kunining uzunligi 8,2 soat		

Aniqlang:

1. Ishchilarning ro'yxatdagi o'rtacha sonini;

2. Haqiqiy ish kunining uzunligini, soat;

3. O'rnatilgan ish kunining uzunligidan foydalanish koeffitsiyentini.

12-misol. Tuman aholisi va mehnat resurslari to'g'risida quyidagi ma'lumotlar mavjud:

1) Aholining yillik o'rtacha soni 237,2 ming kishi;

2) Mehnat resurslarining soni 128,0 ming.

3) Oldingi yildagi koeffitsiyentlar %:

– tug'ilish 20,6

- o‘lish 5,6
- sof migratsiya -2

Hisoblang:

- 1) tug‘ilish, o‘lish, tabiiy ko‘payish va sof migratsiya sonini;
- 2) umumiy o‘lish koeffitsiyentini;
- 3) mehnat resurslarining salmog‘ini.

13-misol. Korxonaning mart oyidagi ish vaqtidan foydalanish bo‘yicha quyidagi shartli ma’lumotlar keltirilgan (22 ish kuni):

1) Ishchilar haqiqiy ishlagan, kishi-kuni	–	3233
2) Bekor turib qolgan kunlar, kishi-kuni	–	14
3) Ishga chiqmagan kunlar, kishi-kuni	–	1692

Shu jumladan:

navbatdagi ta’til kunlari	–	174
kasallik bo‘yicha.	–	20
o‘qish bo‘yicha ta’til kunlari	–	29
davlat topshirig‘ini bajarish	–	17
rahbariyat ruxsati bilan	–	9
sababsiz ishga chiqmaslik	–	7
bayram va dam olish kunlari	–	1436
4) Haqiqiy ishlagan ish vaqti, kishi-soat	–	24931
5) O‘rnatilgan ish kunining uzunligi, soat	–	7.8

Berilgan ma’lumotlar asosida ish vaqtidan foydalanish balansini tuzing.

Aniqlang:

- 1) Maksimal imkoniyatli ish vaqti fondining tarkibini;
- 2) Ish vaqti fondlaridan foydalanish koeffitsiyentlarini;
- 3) Ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi sonini;
- 4) Haqiqiy ish kunining uzunligini va ish kuni uzunligidan foydalanish koeffitsiyentini.

14-misol. Korxonada ro‘yxatdagi xodimlar soni yil boshida 620 kishini tashkil etgan. Yil davomida 70 kishi ishga qabul qilindi va 75 kishi ishdan bo‘shadi (shu jumladan: shartnoma muddatining tugashi sababli 25 kishi; pensiyaga chiqish hisobiga 12; o‘quv yurtlariga kirganlar soni 13; o‘z arizasiga ko‘ra 23 va intizomni buzgani uchun 2 kishi; ro‘yxatdagi o‘rtacha xodimlar soni 595 kishi).

Aniqlang:

- 1) Ishga qabul qilish va ishdan bo‘shashning nisbiy ko‘rsatkichlarini;
1. Qo‘nimsizlik va doimiylik koeffitsiyentlarini.

15. misol.Korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

3.5-jadval

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarish %
1) Haqiqatda ishlagan kishi-kunlari	196700	228000	
2) Bekor turib qolgan kishi-kunlari	1660	2000	
3) Jami ishga chiqmagan kishi-kunlari	64080	63800	
a) navbatdagi mehnat ta'tili	15252	13600	
b) bayram va dam olish kunlari	48828	48000	
4) Jami ish haqi fondi ,ming so'm	1423000	1702470	
5) Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati, ming so'm	3055000	3504720	

Aniqlang:

- 1) Ishchilarni o'rtacha ro'yxatdagi sonini;
- 2) Ish vaqti fondlari va ulardan foydalanish koeffitsiyentlarini;
- 3) Mehnat unumdorligi darajasini va dinamikasini;
- 4) O'rtacha oylik ish haqini.

16-misol.Hudud bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud (ming kishi):

- 1) Aholining o'rtacha yillik soni 4500
- 2) Iqtisodiyotda band bo'lganlar 1800
- 3) Ishsizlar soni 300.

Aniqlang:

- 1) Iqtisodiy faol aholini;
- 2) Aholining iqtisodiy faollik darajasini;
- 3) Bandlik va ishsizlar darajasini;
- 4) Har 1000 ta band aholiga ishsizlarning to'g'ri keladigan sonini;

17-misol.Korxonada 1 chorak bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar keltirilgan:

- 1) Ishchilar tomonidan ishlangan 24000 ming kishi – kuni
 - 2) Bekor turilgan 150 kishi-kuni.
 - 3) Jami ishlanmagan 11850 kishi-kuni
- Shu jumladan:
- a) bayram va dam olish kunlari 9600
 - b) navbatdagi ta'til kunlari 720
- I chorakdagi ish kunlari 68

Aniqlang:

- 1) Ish vaqti fondlari va undan foydalanish koeffitsiyentlarini;
- 2) Ro'yxatdagi o'rtacha ishchilar sonini;

3) O‘rtacha bir ishchining ishlagan ish kunlarini va undan foydalanish ko‘rsatkichlarini.

18-misol. Korxona bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar mavjud:

3.6-jadval

Mahsulot turi	Ishlab chiqarilgan mahsulot, tonna		Mehnat sarfi 1kishi – soat/ t	
	Bazis davri	Hisobot davri	Bazis davri	Hisobot davri
A	400	500	5.0	4.8
B	600	590	7.0	7.2
V	500	550	6.3	7.0

Aniqlang:

1) Har bir mahsulot turi bo‘yicha mehnat unumdorligining dinamikasini;

2) Umumiy mehnat unumdorligi indeksini;

3) Har bir mahsulot turi va jami mahsulotlar bo‘yicha ish vaqtining iqtisodini (yoki ortiqcha sarfini).

19-misol. Respublika aholisi 01.01.2004-yilda 25707.4 ming kishini, shu jumladan, shaharliklar 9381.3 ming kishini tashkil etgan. Yil davomida 508,5 ming kishi tug‘ildi, shundan 135,9 ming kishi, qishloq aholisidan 75,8 ming kishi o‘lgan. 1 yoshgacha bolalar o‘limi 8410 kishi, shu jumladan, shaharda 3224 va qishloqda 5186 nafarga teng bo‘lgan.

Aniqlang:

1) Yil oxiriga aholi sonini;

2) Aholini o‘rtacha yillik sonini;

3) Yil davomida aholini mutlaq tabiiy ko‘payishini;

4) Tabiiy o‘shish, tug‘ilish, o‘lish, 1 yoshgacha bolalar o‘limi va hayot koeffitsiyentlarini;

5) Shahar va qishloq aholisining salmog‘ini;

6) Shahar va qishloq aholisi bo‘yicha tabiiy harakat ko‘rsatkichlarini.

20-misol. Zavodlar bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar berilgan:

3.7-jadval

Zavodlar	Bazis davri		Joriy davr	
	Tovar mahsuloti qiymati (mln.so‘m)	Ro‘yxatdagi o‘rtacha ishchilar soni (kishi)	Tovar mahsuloti qiymati (mln. so‘m)	Ro‘yxatdagi o‘rtacha ishchilar soni (kishi)
1	2000	500	2400	500
2	5000	500	9000	600
3	3500	300	5700	550

Aniqlang: 1. Har bir zavod bo'yicha mehnat unumdorligining darajalarini va dinamikasini;

2. Jami zavodlar bo'yicha mehnat unumdorligining o'rtacha darajalarini;

Z Har bir zavod ishchilar salmog'ini;

4. Mehnat unumdorligining umumiy (o'zgaruvchan, doimiy va tuzilmaviy siljish) indekslarini.

21-misol. Bir xil turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

3.8-jadval

Korxonalar	I/ch mahsulot miqdori(tonna)		Sarflangan ish vaqti (kishi-kuni)	
	Bazis davri	Joriy davr	Bazis davri	Joriy davr
1	1100	900	1000	800
2	1800	2600	1150	1500
3	3200	4200	1600	1900
4	2200	3200	1500	1800

Aniqlang:

1. Bazis va joriy davrlarda har bir korxona bo'yicha mehnat unumdorligining darajalarini;

2. Har bir korxonada sarflangan ish vaqtining salmog'ini;

3. Mehnat unumdorligining alohida indekslarini;

4. Mehnat unumdorligining o'zgaruvchan tarkibli, umumiy indeksini;

5. Mehnat unumdorligining doimiy tarkibli umumiy indeksini;

6. Tegishli xulosalar qiling.

22-misol. Qurilish tresti bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

3.9-jadval

Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		
	Bazis yili	Reja	Haqiqatda
Ishchilarning ro'yxatdagi o'rtacha soni, kishi	4533	4651	4784
Ish haqi fondi, mln.so'm	6480	6600	6720
Qurilish – montaj ishlari hajmi, mln.so'm	188605	198007	201204

Aniqlang: 1. Rejaning bajarilish ko'rsatkichlarini:

a) o'rtacha bir ishchiga ishlab chiqarilgan mahsulot bo'yicha;

b) ishchilarning o'rtacha ish haqi bo'yicha.

2. Haqiqiy ish haqi fondining rejaga nisbatan o'zgarishini:

a) ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga;

b) ish haqi darajasining o'zgarishi hisobiga.

23-misol.Korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (kishi - kuni):

3.10-jadval

Ko'rsatkichlar	Bazis yil	Joriy yil	O'zgarishi (%)
1 .Haqiqatda ishlangan kishi – kunlari	196700	228000	
2.Ishlamay, turib qolgan kishi-kunlari	1660	2000	
3.Jami ishga chiqmagan kishi – kunlari	64080	63800	
shu jumladan:			
a) ta'til kunlari	15252	13600	
b) bayram va dam olish kunlari	48828	48000	
4. Jami ish haqi fondi, ming so'm	142300	155040	
5. Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati, ming so'm	201346	170247	
6. Ishlab chiqarish xarajatlari, ming so'm	167117	126493	

- Aniqlang:** 1. Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonini;
 2. Ish vaqtidan (tabel va maksimal imkoniyatli ish vaqti fondi) foydalanish ko'effitsiyentlarini;
 3. Mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasini;
 4. Mahsulot tannarxi va uning darajasi va dinamikasini;
 5. Rentabellik darajasini;
 6. O'rtacha ish haqi darajasini va o'zgarishini;

24-misol.Ikki korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

3.11-jadval

Korxonalar	Bazis davri		Joriy davri	
	O'rtacha yil-lik ishchilar soni (kishi)	Ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati (ming so'm)	O'rtacha yil-lik ishchilar soni (kishi)	Ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati (ming so'm)
Shahrisabz hissadorlik jamiyati	317	300897	349	723627
"Yulduz" OAO	2315	493563	2329	405200

Aniqlang:

1. Davrlar bo'yicha har bir korxonada mehnat unumdorligining darajasini;
 2. Mehnat unumdorligining alohida indekslarini;
 3. Mehnat unumdorligining umumiy indekslarini (o'zgaruvchan va doimiy tarkibli hamda tuzilmaviy siljishlar).

25-misol. Ochiq turdagi hissadorlik jamiyati bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

3.12-jadval

Ko'rsatkichlar	Bazis davri	Joriy davri
1. Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum, ming so'm	95248	262715
2. Ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	61081	200408
3. Yalpi foyda, ming so'm	34167	62307
4. O'rtacha ishchilar soni, kishi	246	247
5. Ish haqi fondi, ming so'm	59874,1	73645,2
6. Asosiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	40996,5	36803,5
7. Jami ishlagan ish kunlari, kishi – kun	66420	51050
8. Sof foyda, ming so'm	35000	36100
9. Jami ishlagan kishi – soati	524718	375217

Joriy davrdan bazis davrga nisbatan o'zgarish darajalarini aniqlang:

1. Mahsulot tannarxi darajasi bo'yicha;
2. Mehnat unumdorligining darajasi bo'yicha;
3. O'rtacha oylik ish haqi darajasi bo'yicha;
4. Ish vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti;
5. Ish kunining uzunligi, (soat) bo'yicha
6. Asosiy kapitalning rentabellik darajasi bo'yicha

26 - misol. Ikki firma bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

3.13-jadval

Ko'rsatkichlar	OOO "Uchqun"		OOO "Releavtomatika"		Hisobot davrining bazis davrga nisbatan o'zgarishi, %	
	Bazis yili	Hisobot yili	Bazis yili	Hisobot yili	OOO "Uchqun"	OOO "Releavtomatika"
1. Sotishdan olingan sof tushum (ming so'm)	77153	110730	95248	262715		
2. Ishlab chiqarish tannarxi	36920	60919	61081	200408		
3. Ishchilarni o'rtacha yillik soni (kishi)	192	171	246	247		
4. Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	103857	104942	47175	51330		
5. Aylanma mablag'larning o'rtacha qoldiq qiymati ming so'm	52219	87246	642771	80659		

Aniqlang:

- 1) Har bir korxona bo'yicha mehnat unumdorligi darajasini;
- 2) Mehnat unumdorligining alohida indeksini;
- 3) O'zgaruvchan va o'zgarmas tarkibli mehnat unumdorligining umumiy indekslarini;
- 4) Fond qaytimini;
- 5) Aylanma kapitalning aylanuvchanligini.

27-misol. Korxona ishlab chiqarishi va xodimlar faoliyati haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

3.14-jadval

Ko'rsatkichlar	Aprel	May
1. Ishlab chiqarilgan mahsulot amaldagi baholarda, ming so'm	18500	19800
2. Korxona xodimlarining o'rtacha ro'yxatdagi soni, kishi	140	150
sh.j.: ishchilar	115	134
Z. Ishchilarning ishlagan ish vaqtlari:	2560	2750
kishi-kun,	19496	21175
kishi-soat		

Aniqlang:

- 1) Mehnat unumdorligi darajasini va dinamikasini;
- 2) Bir ishchining oylik mehnat unumdorligini alohida omillar ta'sirida o'zgarishini;
- 3) Ishlab chiqilgan mahsulot hajmining o'zgarishini:
 - a) ishchilar (xodimlar) sonining o'zgarishi hisobiga;
 - b) mehnat unumdorligining o'zgarishi hisobiga.

28-misol. Korxona faoliyatini ikki davri bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

3.15-jadval

Mahsulot turi	Normativ bo'yicha bir dona-siga sarf (kishi-soat)	Noyabr		Dekabr	
		Ishlab chiqarilgan mahsulot (dona)	Jami sarflangan vaqt (kishi-soat)	Ishlab chiqarilgan mahsulot (dona)	Jami sarflangan vaqt (kishi-soat)
A	2,0	7400	14060	7500	15750
B	2,5	8000	19200	8500	20400

Aniqlang:

- 1) Mehnat unumdorligining darajasi va dinamikasini;
- 2) Mehnat indeksini.

29-misol. Ikki qex bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud:

3.16-jadval

Qex	Jami ishlangan vaqt, kishi-soat		Hisobot davrida bazis davriga nisbatan mehnat unumdorligining o'sishi, (%)
	Bazis davr	Joriy davr	
1	2360	2380	+5,5
2	1100	1090	+2,8

Aniqlang:

- 1) Korxona bo'yicha mehnat unumdorligi umumiy indeksini;
- 2) Mehnat unumdorligi o'sishi hisobiga ish vaqtining iqtisodini.

30-misol. Firmaga qarashli filiallarning ma'lumotlari keltirilgan:

3.17-jadval

Filial	Bazis davri		Joriy davr	
	O'rtacha bir ishchiga ishlab chiqarilgan mahsulot, ming so'm	Filialdagi ishchilar salmog'i (%)	O'rtacha bir ishchiga ishlab chiqarilgan mahsulot, ming so'm	Filialdagi ishchilar salmog'i (%)
1	26000	30	26500	30
2	25800	25	25200	20
3	27900	45	28700	50
Jami	-	100	-	100

Aniqlang: 1) Alohida mehnat unumdorligi indeksini;

2) Umumiy mehnat unumdorligi indeksini:

- a) o'zgaruvchan tarkibli;
- b) doimiy tarkibli;
- v) tuzilmaviy siljishlar indeksini.

31-misol. Korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

3.18-jadval

Ko'rsatkichlar	Bazis davri	Hisobot davri
Mahsulot hajmi, ming so'm	1200000	1300000
Ishlagan ish vaqti, ming kishi-soatini	2350	2559

Hisobot davrida o'rtacha ish kunining uzunligi indeksi 1.05 ni tashkil etgan, yillik ish kunining uzunligi indeksi (kun) 1.02 teng bo'lgan.

O'rtacha soatlik, kunlik va oylik mehnat unumdorligi indekslarini aniqlang.

32-misol. Korxonalar bo'yicha bazis va hisobot davrida mehnat unumdorligi dinamikasi ma'lumotlari keltirilgan:

3.19-jadval

Korxonalar	Mehnat unumdorligi indeksi(%)	Hisobot davrida ro'yxatdagi ishchilar soni
1	98	450
2	103	300
3	105	500
Jami	-	1250

Korxonalar bo'yicha mehnat unumdorligining umumiy indeksini aniqlang.

33-misol. Hisobot davrida ishchilarni o'rtacha oylik ish haqi 85220 so'mni tashkil etib, bazis davriga nisbatan 20%ga oshgan, shu davr ichida ishchilarning o'rtacha yillik soni 4% kamaygan va 143 kishini tashkil etgan.

Aniqlang:

ish haqi fondining hisobot va bazis davrlarida, mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarini va unga ta'sir etuvchi omillarni: a) o'rtacha ish haqining o'zgarishi hisobiga; b) ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga.

34-misol. Hisobot davrida ishlayotgan ishchilarning o'rtacha ish haqi bazis davriga nisbatan 8%, ish haqi fondi esa 18%ga oshgan.

Ishlayotgan ishchilarning dinamikasini aniqlang.

35-misol. Asosiy va yordamchi tsexlarda ishlayotgan ishchilar soni va o'r-tacha oylik ish haqlari to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar jadvalda kel-tirilgan:

3.20-jadval

Ishchilar toifasi	O'rtacha oylik ish haqi (so'm)		Tsexdagi ishchilar soni, kishi	
	Bazis davri	Joriy davri	Bazis davri	Joriy davri
Asosiy ishchilar	88290	97300	130	125
Yordamchi ishchilar	77670	80130	49	43

Hisoblang:

- 1) Har bir davr uchun ishchilarning o'rtacha ish haqini;
- 2) O'zgaruvchan va o'zgarmas tarkibli hamda tuzilmaviy siljishlar indeksini;
- 3) Turli xil omillar hisobiga ish haqi fondi o'zgarishini.

36-misol. Bir yoʻnalishdagi tarmoqlardan uch korxona boʻyicha quyidagi maʼlumotlar keltirilgan:

3.21-jadval

Korxonalar	Bazis davri		Joriy davri	
	Oʻrtacha oylik ish haqi, soʻm	Umumiy ish haqi solmogʻi, %	Ish haqi fondi, ming soʻm	Oʻrtacha oylik ish haqi, soʻm
1	96500	39,5	38741,0	105571
2	77970	31,7	48546	87794
3	70830	28,8	16319	79329

Hisoblang:

- 1) Oʻzgaruvchan va oʻzgarmas tarkibli hamda tuzilmaviy siljishlar indeksini;
- 2) Uch korxona boʻyicha ishchilar oʻrtacha oyliqi oʻzgarishining mutlaq va nisbiy miqdorlarini hamda omillarning taʼsirini.

37-misol. Aprel oyida korxona boʻyicha quyidagi maʼlumotlar keltirilgan:

- 1) Ishchilarning ishlagan kishi kuni 50220
- 2) Bekor turib qolgan kishi-kuni 190
- 3) Ishga chiqmagan kunlari, kishi-kuni 9000
- 4) Ishchilarni ishlagan kishi soati 303600
- 5) Oylik ish haqi fondi, ming soʻm 99216
- 6) Ishchilarni kunlik ish haqi fondi, m.soʻm 88357
- 7) Soatbay ish haqi fondi, m.soʻm 79567

Aniqlang:

oʻrtacha soatlik, kunlik, oylik ish haqlarini.

38-misol. Oʻzbekiston Respublikasining aholisi soni 2015-yilga 26116,4 ming kishi, shundan ayollar 50,01%, erkaklar 49,9 % ni, mehnat yoshidagi I-II guruh nogironlari 1,5%. Iqtisodiy faol aholi soni 10224 ming kishi, ishsizlar soni 27,7 ming kishi.

Aniqlang:

- 1) Band aholi sonini
- 2) Iqtisodiy faol, band va ishsizlar koeffitsiyentlarini
- 3) Jami aholiga nisbatan iqtisodiy faol aholining salmogʻini.

39-misol. O'zbekiston Respublikasidagi iqtisodiy faol aholi to'g'risida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

3.23-jadval

№	Ko'rsatkichlar	2014-yil	2015-yil	O'zgarish %
1	Iqtisodiy faol aholi, ming kishi shu jumladan: a) ayollar; b) erkaklar	9945,5 4790,1 5155,4	9945,5 4887,7 5057,8	
2	Band aholi, ming kishi shu jumladan a) ayollar; b) erkaklar.	9910,6 4768,7 5141,9	10196,3 4871,5 5324,8	
3	Ishsizlar shu jumladan: a) ayollar b) erkaklar	34,9 21,4 13,5	27,7 16,2 11,5	

Aniqlang:

- 1) Iqtisodiy faol aholi tarkibini;
- 2) Band aholi va ishsizlik koeffitsiyentlarni, erkak va ayollar uchun alohida koeffitsiyentlarni

40-misol. Mamlakatdagi mehnat resurslari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

3.22-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar	
	2013	2014
1) Mehnat resurslari soni, ming kishi	13181	13597
2) Iqtisodiy faol aholi soni, mehnat resurslariga nisbatan %	72,0	70,7
3) Mehnat resurslariga nisbatan iqtisodiyotga oid band bo'lganlar salmog'i, %	70,8	70,5
4) Iqtisodiy faol aholiga nisbatan bandlar salmog'i, %	99,6	99,7
1. Iqtisodiy faol aholi soni		
2. Ishsizlar sonini		
3. Ishsizlik darajasini		
4. Har 100 band aholiga to'g'ri kelgan ishsizlarni		
5. 2003,2002yilga nisbatan ko'rsatkichlarning o'zgarishini.		

Hisoblang:

jadvalda yetishmayotgan ko'rsatkichlarni.

4-MAVZU. MILLIY BOYLIK STATISTIKASI

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Milliy boylik atamasining tavsiflash. Milliy boylik hajmini hisoblash. Mamlakatning sof aktivlari ko'payishi (kamayishi) hajmini va unga ta'sir etgan omillarni hisoblash.

Asosiy fondlar tushunchasini izohlash. Asosiy fondning hajmini aniqlash va tarkibi dinamikasini o'rganish, ularning texnikaviy holatini tavsiflash va asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini tavsiflash. Asosiy fondlarning yillik amortizatsiyasini hisoblash.

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Milliy boylik atamasi.
2. Milliy boylik hajmining hisobi.
3. Mamlakatning sof aktivlari ko'payishi (kamayishi) hajmini va unga ta'sir etgan omillar hisobi.
4. Asosiy fondlar tavsifi.
5. Asosiy fondning tarkibi, dinamikasi, ularning texnikaviy holati.
6. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi.
7. Asosiy fondlarning amortizatsiyasi.

Nazorat va muxokama uchun savollar:

1. Milliy boylik tushunchasini izohlang?
2. Milliy boylik hajmi qanday aniqlanadi?
3. Zaxiraning ko'payishi (kamayishi) hajmini va unga ta'sir etgan omillarni qanday formulalar yordamida hisoblash mumkin?
4. Asosiy fondning qanday baholash turlari mavjud?
5. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi qanday aniqlanadi?
6. Asosiy fondlarning amortizatsiyasi qanday usullarda hisoblanadi?

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Milliy boyliklarni shu mamlakat rezidentlari mulki (ixtiyori)da bo'lgan jamg'arilgan nomoliyaviy aktivlar yig'indisiga ularning "qolgan dunyo" dagi (boshqa mamlakatlarga) sof talablarini qo'shish yo'li bilan ham aniqlash (ifodalash) mumkin. Boshqa mamlakatlarga talablarning sof qiymati shu mamlakat rezidentlarining chet eldagi moliyaviy aktivlari qiymati – shu mamlakat rezidentlarining (qolgan dunyoga munosabati bo'yicha) chet elga moliyaviy majburiyatlari yig'indisidir.

Milliy boylik hajmini hisoblashda (faqat chet el moliyaviy aktivlari majburiyatlari) moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlar faqat tashqi

mamlakatlarga nisbatan olinadi, chunki ichki talablar va majburiyatlar mamlakat miqyosida bir-biri bilan qoplanib ketadi. Barcha aktiv va majburiyatlar MXT uslubiyotiga (mos ravishda) ko‘ra, bozor bahosida baholanadi.

Milliy boylik tarkibiga shu mamlakat rezidentlarining mulki bo‘lgan chet ellardagi aktivlari kiritilishi va aksincha, shu mamlakat hududidagi norezidentlarning mulki kiritilmasligi zarur.

Mamlakatning sof aktivlari, ya’ni milliy boyligi ko‘rsatkichi mamlakatning mulkiy holati zaxirasi ko‘rsatkichlari turkumiga kiradi va u Yalpi ichki mahsulot va Yalpi milliy daromad kabi ko‘rsatkichlardan farq qila-di. Zaxiraning ko‘payishi (kamayishi) hajmini va unga ta’sir etgan omil-larni quyidagi formulalar yordamida hisoblash mumkin:

$$A1 = A0 + \Delta ih + \Delta bs + \Delta r$$

Bu yerda

A0 va **A1** – aktivlarning yil boshi va oxiridagi hajmi (qiymati);

Δih – iqtisodiy harakatlar (ishlab chiqarish, sotish, sotib olish, in’om etish) natijasida aktivlar qiymatining o‘zgarishi;

Δbs – aktivlar qiymatining iqtisodiy harakatlarga bog‘liq bo‘lmagan boshqa faoliyatlar tufayli o‘zgarishi (foydali qazilmalarning ochilishi, tabiiy ofatlar va boshqalar natijasida).

Δr – aktivlar nominal qiymatining inflyatsiya (deflyatsiya) natijasida o‘zgarishi.

Barcha sabablarga ko‘ra aktivlar qiymatining o‘zgarishi (amaldagi baholarda)

$$\Delta A = A1 - A0$$

Aktivlar dinamikasi (indeksi) **r0**

$$IA = A1 : A0$$

Bu yerda **r0**

A1 = ∑q1 p0 – solishtirma narxlarda baholangan aktivlarning yil oxiridagi qiymati.

Iqtisodiy aktivlarning hajmini, dinamikasini va boshqa jihatlarini to‘laroq o‘rganish uchun ular tasniflanadi.

Rossiyada milliy boylikning hajmi va strukturasi (yil boshiga):

4.1.-jadval

Ko‘rsatkich	2005	2010	2014
Milliy boylikning hajmi, mlrd. rub.	5886.8	20749.1	44577.1
Shu jumladan, jamiga nisbatan%:			
Asosiy fondlar	95	87	82
Moddiy aylanma vositalar	3	6	7
Aholining uy – joy mulki	2	7	11

Har qanday ishlab chiqarish jarayoni yuzaga kelishi uchun ishchi kuchi bilan bir qatorda ishlab chiqarish vositalari ham talab qilinadi.

Asosiy fondlar deganda, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan, uzoq muddat xizmat qiladigan, natural fizik xususiyatlarini yo'qotmaydigan, mahsulot ishlab chiqarishda yoki xizmat ko'rsatishda ishtirok etadigan ishlab chiqarish faollari tushuniladi.

Korxonaning asosiy fondlariga: ishlab chiqarish binolari, inshootlar, uzatish qurilmalari, ishchi mashinalar, quvvat beruvchi mashinalar, korxonaning ichki transport vositalari, ishlatilish muddati bir yildan ortiq bo'lgan instrumentlar, ishlab chiqarish inventarlari va boshqa asosiy fondlar kiradi.

Asosiy fondlar statistikasining asosiy vazifasiga asosiy fondning hajmini aniqlash va tarkibi dinamikasini o'rganish, ularning texnikaviy holatini tavsiflash va asosiy fondan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini aniqlash masalalari kiradi.

Asosiy fondlarni pul birliklarida hisobga olishda ularni baholashning turli usullaridan foydalaniladi. Asosiy fondlarning o'ziga xos tavsifiga ko'ra ularni baholash, baholashning o'tkazilish vaqti hamda kapital holatiga ko'ra farqlanadi.

Asosiy fond holatiga bog'liq holda ularni baholashning turlari:

- > boshlang'ich qiymati – mashina va dastgohlarni sotib olishga, ularni tashish, o'rnatishga ketgan xarajatlar, modernizatsiyalash xarajatlari, ishlab chiqarish binolarini, inshootlarini qurishga, ularni kengaytirishga ketgan xarajatlar qiymati;

- > yemirilish qiymatini boshlang'ich to'la qiymat bilan yemirilish qiymati o'rtasidagi farq ko'rinishida aniqlanadi;

- > qoldiq qiymati – yemirilishi hisobga olingan to'liq boshlang'ich qiymat;

- > qayta tiklangan qiymat – qayta baholash o'tkazilayotgan vaqtdagi sharoitlar va narx-navolar bo'yicha mashina va dastgohlarni sotib olishga, ularni tashish va o'rnatishga, ishlab chiqarish binolari va inshootlarini qurishga ketadigan xarajatlar.

Statistikada asosiy fondning aniq bir vaqtdagi qiymatini baholash bilan bir qatorda ularning o'rtacha yillik qiymati ham baholanadi.

Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati fondlarning oy boshidagi qiymatlari bo'yicha o'rtacha xronologik formulasida aniqlanadi.

Asosiy fondlarning o'rtacha oylik qiymati ularning oy boshidagi va oy oxiridagi qiymatlari bo'yicha o'rtacha arifmetik oddiy miqdor ko'rinishida aniqlanadi. Asosiy fondni ishlab chiqarish jarayonida ishlatilishi

natijasida asta-syokin yemirilib, jismonan eskiradi va o'zining qiymatini asta-syokin amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida ishlab chiqarilayotgan mahsulot qiymatiga o'tkazib boradi.

Asosiy fondlarni baholash baholashning o'tkazilish vaqti hamda fondlarning holatiga ko'ra quyidigicha bo'ladi:

– to'liq boshlang'ich qiymat $^{\wedge}(F_t \text{ b.}_q) =$ fondlarni sotib olishga $(F_{so}) +$ ularni tashishga (S_t) va o'rnatishga (S_o) ketgan xarajatlar qiymati:

$$F_{t.b.q} = F_{s.o} + S_t + S_o$$

– qayta tiklash qiymati $(F_{tq.})$ – fond unsurlari baholarining o'zgarishini (inflyatsiya darajasi) inobatga olgan holdagi qiymati $F_{tq.} = K * F_{t.bq}$

Bunda K – qayta baholash koeffitsiyent qoldiq qiymati

$(F_{qk.})$ – yemirilishni hisobga olgan holdagi to'liq boshlang'ich qiymati

$$F_{qq.} = F_{t.b.K} - F_{amor.}$$

Famor – fondlarning yemirilish qiymati asosiy fondlarning ishlab chiqarish jarayonida jismonan va ma'naviy eskirib, amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat) qiymatiga o'tkazib boriladigan qiymat/

Yillik amortizatsiya ajratmalari asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymatiga xizmat qilish muddatiga hamda shu muddatda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulot hajmiga bog'liq bo'lgan holda quyidagi usullar orqali hisoblanadi:

- teng taqsimot usuli;
- ishlab chiqarish usuli;
- tezkor usul (kumulyativ va qoldiqning kamayishi).

Asosiy fondlarning jismonan eskirishi va yangi ilg'or texnikaning joriy etilishi ularni doimo o'zgartirib turishni taqozo etadi.

Bunda $F^{o.t.b.q}(F^{o.qq})$ va $F^{1.t.b.q}(F^{1_{qq}})$ – yil boshi va oxiridagi fondlarning to'liq boshlang'ich (qoldiq) qiymatlari;

A – yillik amortizatsiya ajratmasi;

$F_{chiq.q.}$ – iqtisodiy jarayondan olib tashlangan asosiy fondlarning qoldiq qiymati.

Asosiy fondlarning harakat ko'rsatkichlari:

- yangilanish darajasi (yangilanish koeffitsiyenti - K_{ya})
- ishdan chiqqan asosiy fondlar ulushi (ishdan chiqish koeffitsiyenti – K_{chik}).

Ular quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{Ya} = \frac{\Phi_{yang}(\Phi_{kir})}{\Phi_{t.b.k}^1}; \quad K_{chik} = \frac{\Phi_{chik}}{\Phi_{t.b.k}^0}$$

Asosiy fondlarning ishlab chiqarishga yaroqli yoki yaroqsiz (yemirilgan) qismlarini ularning holat ko'rsatkichlari orqali o'rganiladi. Hisob ko'rsatkichlari, odatda yil boshi va yil oxirida quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$K_{Yarok} = \frac{\Phi_{kk}}{\Phi_{t.b.k}}; \quad K_{yem} = \frac{\Phi_{yem}}{\Phi_{t.b.k}}$$

Asosiy fondlar hajmining o'zgarishi korxonalar asosiy fondlarining to'liq boshlang'ich va qoldiq qiymatlari bo'yicha tuzilgan balanslarida ko'rsatiladi.

$$\begin{aligned} F_{t.b.q}^1 &= F_{t.b.q}^0 + F_{kir} - F_{i.chiq} \\ F_{qq}^1 &= F_{qq}^0 + F_{kir} - F_{i.chiq,kk} - A \end{aligned}$$

Bunda K_{yem} - yaroqlilik (yemirilish) koeffitsiyenti.

Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari fond samaradorligi, fond sig'imi va fond bilan qurollanganlik darajasi korxona iqtisodiy faoliyati qay darajada ekanligini tavsiflaydi.

F – fond samaradorligi (fond qaytimi) iqtisodiyotga jalb qilingan har bir so'mlik asosiy fondga to'g'ri keladigan mahsulot (ish, xizmat) qiymatidir:

$$f = \frac{qp}{\phi}$$

qp – hisobot davrida ishlab chiqarilgan Yalpi mahsulot qiymati

F – asosiy fondlarning hisobot davridagi o'rtacha yillik qiymati

Fond sig'imi (h) har bir so'mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun jalb qilingan

asosiy fondlar qiymatini ifodalaydi:

$$h = \frac{F}{qp}$$

Korxona xodimlarining asosiy fond bilan qurollanganlik darajasi (F_{qurol}) bir xodimga to'g'ri keladigan asosiy fond qiymatiga teng:

$$\Phi_{qur} = \frac{F}{T}$$

Bunda T – korxona xodimlarining ro'yxatdagi o'rtacha soni.

Ishlab chiqilgan mahsulot hajmining o'zgarishi, asosiy fondlar hajmining o'zgarish va foydalanish darajasiga bog'liqdir. Bu bog'liqlik

iqtisodiy indekslar usuli orqali tahlil qilinadi. Ya'ni fond qaytimi dinamikasi har bir korxona bo'yicha quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I_f = \frac{\sum qp_1}{\sum F_1} : \frac{\sum qp_0}{\sum F_1} = f_1 : f_0$$

$f_1; f_0$ - joriy va bazis davrdagi fond qaytimi.

Bir necha korxonalar bo'yicha fond qaytimining o'zgarishi o'zgaruvchan indeks formulasi yordamida aniqlanadi:

$$I_{\bar{f}} = \frac{\sum F_1 f_1}{\sum F_1} : \frac{\sum F_0 f_0}{\sum F_0} = \frac{\bar{f}_1}{\bar{f}_0}$$

Fond qaytimi darajasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillardan biri har bir korxonaning fond hajmining ta'siri:

$$I_{\bar{f}} = \frac{\sum F_1 f_1}{\sum F} : \frac{\sum F_0 f_1}{\sum F_1}$$

O'rtacha fond qaytimi darajasining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillardan biri bu har bir korxonaning fond qaytimidir:

$$I_{t.z.s} = I_{\bar{f}} : I_{f.doim}$$

Umumiy indeks formulalariga asoslanib, asosiy fondlarni va fond qaytimini mutlaq o'zgarishini aniqlash mumkin:

$$\Delta Q = Q_1 - Q_0$$

Mahsulot hajmining qo'shimcha o'zgarishi bir tomondan, asosiy fondlar hajmining o'zgarishi evaziga va ikkinchi tomondan, asosiy fondlarning qaytimi hisobiga:

$$a) \Delta Q_a = (\sum F_1 - \sum F_0) \cdot \bar{f}_0$$

$$b) \Delta Q_f = (f_1 - f_0) : \sum F_1$$

1-misol.

Korxona asosiy kapitali haqida quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan (shartli pul birligida:

1. Asosiy kapitalning to'liq boshlang'ich qiymati, ming.so'm 1958,8
2. Yil boshiga asosiy fondlarning yemirilishi, % 22
3. Yil davomida sotib olingan asosiy fondlar, ming so'm 436,6
4. Hisobdan chiqarilgan asosiy kapitalning to'liq boshlang'ich qiymati, ming so'm 218,0
5. Hisobdan chiqarilgan asosiy fondlarning qoldiq qiymati, ming so'm 18,0

6. Yillik amortizatsiya qiymati, ming so'm 195,0
7. Asosiy fondlarni o'rtacha qiymati, ming so'm 1982,4
8. Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati, ming so'm 3032,6

Asosiy fondning balansini tuzing. Asosiy kapital holati va harakat ko'rsatkichlarini aniqlang.

Yechish.

Asosiy fondni yil boshidagi qoldiq qiymati:

$$F_{qq}^0 = F_{tbq}^0 - F_{kr} - F_{chiq} = 1958,8 + 436,6 - 218 = 2177,4 \text{ ming so'm.}$$

Yil boshiga asosiy fondlarning yemirilish qiymati

$$F_{em}^0 = F_{tbq}^0 * K_{yem} = 1958,8 * 0,22 = 430 \text{ ming. so'm}$$

Asosiy fondlarning yil oxiriga qoldiq qiymati

$$F_{qq}^1 = F_{tbq}^1 + F_{kr} - F_{chiq} - Amor - F_{chiq. q..q} = 1528.8 + 436.6 - 218 - 195 - 18 = 1554.4 \text{ ming. so'm}$$

$$F_{tbq}^1 = F_{tbq}^0 - F_{yem} = 1958.8 - 430 = 1528.8$$

Asosiy fondlar balansi:

4.2.-jadval

Ko'rsatkichlar	Asosiy fondlar		
	To'liq qiymati	Qoldiq qiymati	Yemirilish
Yil boshiga qiymati	1958.8	1528.8	430
Yil davomida sotib olingan	+436	+436	0
Hisobdan chiqarilgan	-218	-18	-200
Yemirilish qiymati	0	-195	+195
Yil oxiriga qiymati	2177.4	1751.8	425.6

1. Asosiy fondlarning yemirilishi:

$$\text{yil boshiga } K_{em} = F_{em}^0 : F_{tbq}^0 = 430 : 1958.8 = 22\%;$$

$$\text{yil oxiriga } K_{em} = F_{em}^1 : F_{tbq}^1 = 425.6 : 2177.4 = 19.5\%.$$

2. Asosiy fondlarning yaroqlilik darajasi:

$$\text{yil boshiga } K_{yaroq} = F_{qq}^0 : F_{tbq}^0 = 1528.8 : 1958.8 = 0.78\% \text{ yoki } 78\%;$$

$$\text{yil oxiriga } K_{yaroq} = F_{qq}^1 : F_{tbq}^1 = 1751.8 : 2177.4 = 0.804.$$

3. Asosiy fondlarning yangilanish darajasi:

$$K_{yang} = F_{qrii}^1 : F_{qq}^0 = 436 : 2177.4 = 0.20 \text{ yoki } 20\%$$

4. Asosiy fondlarning chiqib ketish koeffitsiyenti

$$K_{chiqm} = F_{chiqm}^0 : F_{tbq}^0 = 218 : 1958.8 = 0.11 \text{ yoki } 11\%$$

Asosiy fondlardan foydalanish quyidagi ko'rsatkichlarda ta'riflanadi:

$$1) \text{ Fond qaytimi : } f = Q : F = 3032.6 : 1982.4 = 1.529 \text{ so'm}$$

$$2) \text{ Fond sig'imi : } h = F : Q = 1982.4 : 3032.6 = 0.65 \text{ so'm}$$

3) Fond bilan qurollanish: $K_{\text{qurol}} = F : A$.

Aylanma fond tarkibi, tarkibiy qismlar qiymatini yig'indidagi umumiydagi salmoqlar orqali ifodalash mumkin.

Firmalarga qarashli aylanma fondlarning miqdori ma'lum bir muddatda va o'rtacha hisobot davrida aniqlanadi.

Aylanma fondlarning o'rtacha qoldiq qiymati korxona aylanma kapital qoldiq qiymatlarining berilishiga qarab, turlicha aniqlanadi (o'rtacha, arifmetik, oddiy).

Aylanma fond samaradorligi deb joriy aktivlardan foydalanishdagi iqtisodiy nafga aytiladi va u quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholanadi:

aylanma fondning aylanish koeffitsiyenti (har bir so'mlik yoki ming so'mlik aylanma mablag'larga to'g'ri keladigan (realizatsiya) sotilgan mahsulot hajmi:

$$A_k = \frac{Q_p}{A}$$

bunda Q_p - sotilgan mahsulot hajmi.

Aylanma fondning biriktirish koeffitsiyenti:

$$B_k = \frac{1}{A_k} = \frac{\bar{A}}{Q_r}$$

Aylanma fondlar aylanishining o'rtacha davriyligi (aylanma fondlarning bir davridagi aylanish kunlari soni):

$$A_D = \frac{K}{A_2}$$

K – kalendar kunlari soni

$$A_D = K \cdot B_k \frac{K \cdot \bar{A}}{Q_p}$$

Aylanma fondlarga bo'lgan talabni quyidagi formula orqali ham topish mumkin:

$$A = B_k \cdot Q_p$$

Mahsulot tannarxida xom ashyo va yordamchi materiallar sarfxarajatining salmog'i ancha yuqori, shuning uchun aylanma fondlar statistikasining asosiy ko'rsatkichlaridan biri material sarflari ko'rsatkichidir. U quyidagicha aniqlanadi:

$$t = M : Q$$

m – bir birlikdagi mahsulotga ketgan material sarfi (natural yoki qiymat o'lchovida o'lchanadi).

M – xom ashyo va yordamchi materiallarning umumiy hajmi.

Mahsulot birligiga qilinayotgan xarajat dinamikasi va me'yoriy qiyoslash yordamida tahlil etiladi.

Bir mahsulot turi bo'yicha material xarajatini nisbiy miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$i_m = \frac{m_1}{m_0}$$

Shunga asosan mutlaq tafovut bilan birgalikda olib boriladi:

$$\Delta_m = m_1 - m_0$$

Bir necha mahsulot turlariga, mahsulot birligiga qilingan material xarajati umumiy indeks ko'rsatkichi yordamida aniqlanadi:

$$I_{mpg} = \frac{\sum m_1 p_1 q_1}{\sum m_0 p_0 q_0}$$

Material sarfini mutlaq farqini surati bilan maxraji o'rtasidagi ayirma natijasida aniqlash mumkin:

$$\Delta_m = \sum m_1 p_1 q_1 - \sum m_0 p_0 q_0$$

Mahsulot birligiga qilingan material xarajatlarni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha ham o'rganish mumkin:

– mahsulot hajmining o'zgarishi hisobiga (q):

$$I_{mpg(q)} = \frac{\sum m_0 p_0 q_1}{\sum m_0 p_0 q_0}$$

Mahsulot miqdori hisobiga mutlaq o'zgarishini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\Delta_{m(q)} = \sum m_0 p_0 q_1 - \sum m_0 p_0 q_0$$

– mahsulot bahosining o'zgarishi hisobiga (p):

$$I_{mpg(p)} = \frac{\sum m_0 p_1 q_1}{\sum m_0 p_0 q_0}$$

Mahsulot birligiga qilingan material xarajatlarni mutlaq o'zgarishi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta_{m(p)} = \sum m_0 p_1 q_1 - \sum m_0 p_0 q_1$$

mahsulot birligiga material xarajatlarni ta'siri:

$$I_{mpg(m)} = \frac{\sum m_1 p_1 g_1}{\sum m_0 p_1 g_1}$$

O‘rtacha mahsulot birligiga qilingan material xarajatlarning mutlaq o‘zgarishi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta_{m(m)} = \sum m_1 p_1 q_1 - \sum m_0 p_1 q_1$$

Indekslar orasidagi bog‘liqlik darajasi asosida mahsulot birligiga qilingan material xarajatlarning o‘zgarishini tekshirib ko‘rish mumkin:

$$I_{mpq} = I_{mpq(q)} \times I_{mpq(p)} \times I_{mpq(m)}$$

yoki ularni mutlaq, o‘zgarishi:

$$\Delta_{mpq} = \Delta_{(q)} + \Delta_{(p)} + \Delta_{(m)}$$

Salmoqli sarflarni me‘yoriy hamda haqiqiy ma’lumotlarga asosan aniqlash mumkin.

Salmoqli sarfning dinamikasi esa iqtisodiy indekslar salmoqli sarfining alohida va umumiy ko‘rsatkichlari orqali o‘rganiladi.

Mehnat predmetlarini o‘zlashtirish va undan foydalanishning material sig‘imini, materiallar zaxirasini aylanishi ko‘rsatkichlari orqali baholash mumkin.

Alohida xom ashyo turlari bo‘yicha uning zaxirasining aylanishi:

$$K_m = \frac{M}{Om}$$

Bunda

M – davr bo‘yicha shu turdagi xom ashyoning umumiy sarfi.

Om – shu turdagi xom ashyo zaxirasining o‘rtacha qiymati (o‘rtacha qoldiq qiymati). Xom ashyo va materiallarga bo‘lgan talab va uning qo‘shimcha o‘zgarishi:

$$1 \text{ mahsulot } m_0 = \frac{M_0}{q_0} = \frac{63354}{2206,5} = 2,87; m_1 = \frac{M_1}{q_1} = \frac{51498}{1415,7} = 36,4$$

$$2 \text{ mahsulot } m_0 = \frac{M_0}{q_0} = \frac{44026}{5158,9} = 8,5 \text{ m.so‘m}; m_1 = \frac{M_1}{q_1} = \frac{44223}{3841,6} = 11,5 \text{ m.so‘m}$$

2) O‘rtacha ikki xil mahsulotga qilingan xarajatning o‘zgarishi:

$$\begin{aligned} I_{mpq} &= \frac{\sum m_1 p_1 q_1}{\sum m_0 p_0 q_0} = \frac{36,4 \cdot 101,3 \cdot 1415,7 + 11,5 \cdot 94,5 \cdot 3841,6}{28,7 \cdot 104,7 \cdot 2206,5 + 8,5 \cdot 89,6 \cdot 5158,9} = \frac{5220139 + 4174859}{6630290 + 3929018} = \\ &= \frac{9394998}{10559308} = 0,8897 \end{aligned}$$

Demak, umumiy qilingan xarajatlarda 11,03% kamaygan.

a) mahsulot hajmi hisobiga:

$$I_{mpq(q)} = \frac{\sum m_0 p_0 q_1}{\sum m_0 p_0 q_0} = \frac{28,7 \cdot 104,7 \cdot 1415,7 + 8,5 \cdot 89,6 \cdot 3841,6}{10559308} = \frac{4254023 + 2925762}{10559308} = \frac{7179785,5}{10559308} = 0,6799$$

Mahsulot miqdori kamayishi hisobiga umumiy xarajat 32,01% kamaygan.

b) mahsulot bahosi hisobiga mahsulot birligiga qilingan xarajat:

$$I_{mpq(p)} = \frac{\sum m_0 p_1 q_1}{\sum m_0 p_0 q_1} = \frac{28,7 \cdot 101,3 \cdot 1415,7 + 8,5 \cdot 94,5 \cdot 3841,6}{28,7 \cdot 104,7 \cdot 2206,5 + 8,5 \cdot 89,6 \cdot 3841,6} = \frac{4115879 + 3085765}{4254023 + 2925762,5} = \frac{7201644}{7179785,5} = 1,003$$

Bahoning o'zgarishi hisobiga material xarajatlari 0,3% oshgan.

v) mahsulot birligiga qilingan xarajatning o'zgarishi hisobiga:

$$I_{mpq(m)} = \frac{\sum m_1 p_1 q_1}{\sum m_0 p_1 q_1} = \frac{9394998}{7201644} = 1,304$$

Indekslar orasidagi bog'liqlik darajasini:

$$I_{mpq} = I_q \times I_p \times I_m = 0,6799 \cdot 1,003 \cdot 1,304 = 0,889$$

4) Mahsulot birligiga qilingan material xarajatlarning mutlaq o'zgarishi:

$$\Delta_m = \sum m_1 p_1 q_1 - \sum m_0 p_0 q_0 = 9394998 - 10559308 = -1164310$$

$$\Delta_{m(q)} = \sum m_0 p_0 q_1 - \sum m_0 p_0 q_0 = 7179785,5 - 10559308 = -3379523$$

$$\Delta_{m(p)} = \sum m_0 p_1 q_1 - \sum m_0 p_0 q_1 = 7201644 - 7179785,5 = +21858,5$$

$$\Delta_{m(m)} = \sum m_1 p_1 q_1 - \sum m_0 p_1 q_1 = 9394998 - 7201644 = +2193354$$

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-misol. Firmadagi asosiy fondlarning yil boshidagi to'la boshlang'ich qiymati mln.so'm, yil davomida olingan yangi asosiy fondlar qiymati 7,2 mln.so'm va chiqim qilingan asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati 4 mln.so'm, qoldiq qiymati 0,8 mln.so'mni tashkil qiladi. Asosiy fondlarning yil boshiga eskirish summasi 18%, yillik amorti-zatsiya me'yori 13%.

Aniqlang:

1. Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsiyentini;
2. Asosiy fondlarning chiqib ketish koeffitsiyentini;
3. Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsiyentini.

2-misol.Quyidagi jadvalda korxona bo'yicha asosiy fondlar balansi keltirilgan:

4.3.-jadval

Koʻrsatkichlar	"Uchqun" MCHJ						Yil oxiridagi qoldiq
	Yil boshiga qoldiq	Kelib tushgan		Chiqim qilingan			
		Jami	Sh.j. yangi	Jami	Amor-tizatsiya	Chiqim	
Bino	7583			3749	3749		
Inshoot	112			76	76		
Uzatish moslamalari	124			117	117		
Mashina va jihozlar	69414	27065	2706	65691	65524	167	
Transport vositalari	539			431	431		
Boshqa asosiy fondlar	272			264	264		
Jami					70161		

Korxona asosiy fondlar balansini tuzing va uning asosida quyidagilarni aniqlang:

1. Asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymatini;
2. Asosiy fondlarning mutlaq o'zgarishi;
3. Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsiyentini;
4. Asosiy fondlarning eskirish koeffitsiyentini;

3-misol.Ikki korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

4.4.-jadval

Ko'rsatkichlar	1 -korxona		2-korxona		2-korxonaning 1-korxonaga nisbatan o'zgarishi	
	bazis davr	hisobot davr	bazis davr	hisobot davr	bazis davrda	hisobot davrda
1.Sotishdan olingan sof tushum	77153	110730	95248	262715		
2.Ishlab chiqarish tannarxi	36920	60919	61081	200408		
Z.Ishchilarning o'rtacha yillik soni	192	171	257	246		
4.Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati	103857	104942	47175	51330		
5.Korxona bo'yicha ish haqi fondi	29077,1	41039,2	29003,2	59674,1		

Aniqlang:

1. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini.
2. Ikki korxona bo'yicha fond qaytimini o'zgaruvchan, o'zgarmas va tuzilmaviy siljishlar indeksini.
3. Mehnat unumdorligi darajasini.
4. Qisqacha xulosa yozing.

4-misol.Qurilish tashkilotlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (ming so'm):

4.5.-jadval

Qurilish tashkilotlari	Qurilish-montaj ishlari hajmi		Asosiy fondlarning yillik qiymati	
	Bazis	Joriy	Bazis	Joriy
1	2577	4300	3900	3980
2	2800	5000	1900	3500
3	3200	4500	3300	4000
4	5800	6900	2800	4800
5	6300	8500	3200	4000

Aniqlang:

1. Fond qaytimini.
2. Mahsulot hajmini, asosiy vositalar va fond qaytimining alohida indekslarini.
3. Birlashma bo'yicha fond qaytimining o'zgaruvchan, o'zgarmas, tuzilmaviy siljishlar indeksini.

5-misol.Quyidagi jadvalda firma bo'yicha asosiy fondlar balansi keltirilgan (ming so'm):

4.6.-jadval

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga qoldiq	Kelib tushgan		Chiqim qilingan			Yil oxiridagi qoldiq
		Jami	Sh.j. yangi	Jami	Amorti-zatsiya	Chiqim	
Bino	23106			14228	14187	41	
Inshoot	1206	32	32	881	881		
Uzatish moslamalari	903			853	853		
Mashina va jihozlar	32607	5540	5540	31436	31026	410	
Transport vositalari	1421			835	586		
Boshqa asosiy fondlar	668	991	991	912	912		
Jami							

Jami mahsulot qiymati 272115 ming so'm. O'rtacha ro'yxatdagi ishchilar soni 263 kishi. Asosiy fondlar balansi asosida aniqlang:

1. Jadvalda yetishmayotgan ma'lumotlarning to'ldiring.
2. Asosiy fondlarning mutlaq o'zgarishini.
3. Asosiy fondlarning yangilanish, eskirish va yaroqlilik koefitsiyentini.
4. Fond qaytimi va fond sig'imini.
5. Fond bilan qurollanish darajasini.
6. Qisqacha xulosa yozing.

6-misol. Avtokorxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

1. Xo'jalikdagi avtomobil kunlari – 72713
Shu jumladan, xo'jalikda ishlagan avtomobil kunlari – 42645
2. Xo'jalikdagi avtomobillarning tonna-kuni – 198321
3. Ishlagan avtomobillarning tonna-kuni – 117745
4. Avtomobillarning umumiy bosib o'tgan yo'li (ming km.) – 8879,7

Aniqlang:

1. Ishdagi avtomobillarning o'rtacha yuk ko'taruvchanligini.
2. Ro'yxatdagi avtomobillarning o'rtacha yuk ko'taruvchanligini.
3. Avtomobillarning bir sutkada bosib o'tgan o'rtacha yo'lini.

7-misol. Zavodning rekonstruksiya qilinishi sababli hisobot yilida quyidagi ishlar bajarilgan, (ming so'm):

1. Mexanika tsexining devori tiklandi – 3500
2. Omborxona qurish ishlari tugatilgan – 1450
3. Montaj ishlari uchun jihoz olindi – 7800
Shu jumladan, montaj ishlari – 5200
4. Jihozlarni o'rnatish (yig'ish) – 1600
5. Yig'uv tsexiga fundament qo'yildi – 1870
6. Zavod boshqarmasi binosini kapital ta'mir qilish – 201
7. Qurilish materiallari olindi – 1600
Shu jumladan, ishga qo'yilgan – 1200
8. Hisobot yilida tugallanmagan qurilish ishlari qoldig'i kamaygan – 640

Aniqlang:

1. Kapital qo'yilmalar hajmini.
2. Qurilishning Yalpi mahsulotini.
3. Tayyor mahsulot hajmini.

8-misol. Korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

4.7.-jadval

Ko'rsatkichlar	"Releavtomatika" MCHJ						
	Yil boshiga qoldiq	Kelib tushgan		Chiqim qilingan			Yil oxiridagi qoldiq
		Jami	Sh.j. yangi	Jami	Amortizatsiya	Sh.j. boshqa chiqim	
1	2	3	4	5	6	7	8
Bino	18194			1120	11171	32	
Inshoot	950	25	25	594	594		
Uzatish	711			372	372		
Mashina va	25675	4362	4362	1475	14430	323	
Transport	119			1119	462	657	
Boshqa asosiy fondlar	526	780	780	618	618		
Jami							

Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 95148 ming so'm

Aniqlang:

1. Asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymatini.
2. Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsiyentini.
3. Asosiy fondlarning eskirish koeffitsiyentini.
4. Asosiy fondlarning mutlaq o'zgarishini.
5. Fond qaytimini.

9-misol. Firmaning asosiy fondlaridan birining to'liq balans qiymatini qayta baholash vaqtida 126 ming p.b., uning qoldiq qiymati 118 ming p.b.ga to'g'ri kelgan. Tasdiqlangan qonunga binoan ushbu asosiy fondni qayta baholash indeksi 1,15 ga teng deb qabul qilindi.

Berilgan ma'lumotlarga asosanib, asosiy fondning quyidagi ko'rsatkichlarini aniqlang:

1. Qayta baholash vaqtiga kelib, tugatish qiymatini.
2. Qayta baholash natijasida to'liq tiklash qiymatini
3. Qayta baholashdan keyingi tugatish qiymatini
4. Qayta baholash natijasida asosiy fondning qoldiq qiymatini

10-misol. Korxonadagi asosiy fondlarning holati va harakati bo'yicha quyi-dagi ma'lumotlar keltirilgan (ming.so'm):

- 1) Yil boshiga asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati747
- 2) Yil boshiga tugatilish darajasi, %..... 20
- 3) Yil davomida kirim qilingan asosiy fondlarning qiymati120
- 4) Hisobdan chiqarilgan asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati...50
- 5) Hisobdan chiqarilgan asosiy fondlarning qoldiq qiymati..... 10
- 6) Yil davomida fondlarni tugatilish qiymati (amortizatsiya)60
- 7) Asosiy fondlarni o'rtacha yillik qiymati800
- 8) Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati 1400

Aniqlang: Yil oxiriga asosiy fondlarning to'liq qiymatini.

- 1) Yil oxiriga qoldiq qiymati bo'yicha asosiy fondlar qiymatini.
- 2) Yil oxiriga asosiy fondlarning tugatilish (iznos) koeffitsiyentini.
- 3) Asosiy fondlarning yil oxiriga qoldiq qiymatini.

11-misol. Ma'lumki, hisobot davrida mahsulot hajmi solishtirma baholarda 2% oshdi. Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati esa 5,5% ga oshdi. Kel-tirilgan ma'lumotga asosan fond qaytimi dinamikasini aniqlang.

12-misol. Korxona tsexiga 50 ta jihoz o'rnatilgan bo'lib, u ikki smenada ishlaydi, bir smenani ish vaqti 8 soat, ish vaqtining uzunligi 22 kun. Haqiqatda jihozlar 15000 mashina-soat ishlagan, reja bo'yicha esa 15600 soat.

Aniqlang: haqiqatda ishlagan ish vaqtini kalendar vaqtiga va reja vaqti fondiga nisbatan ekstensiv koeffitsiyentini (Kekst)

13-misol Har bir jihoz 1 soatda 10 tadan mahsulot ishlab chiqarishi kerak. Haqiqatda esa bir oyda 3000 mashina-soat va 28500 dona mahsulot ishlab chiqardi.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida jihozlar quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti (K_{intensiv})ni aniqlang.

14-misol.

4.8.-jadval

Korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (ming so'm):				
Ko'rsatkichlar	O'tgan davr	Joriy davr	O'zgarishi	
			Summa	%
1.Yalpi foyda	4925	5485		
2.Sotilgan mahsulotlar (baza davri) bahosida)	37850	42080		
3.Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati	33150	35400		
4.Moddiy aylanma mablag'lar zaxirasining o'rtacha yillik qiymati	5440	5525		

Aniqlang: Fond qaytimi va fond sig'imini.

- 1) Aylanma mablag'larning biriktirish ko'rsatkichini va aylanma koeffitsiyentini.
- 2) Sotilgan mahsulotlar samaradorligini.
- 3) Yuqoridagi ko'rsatkichlarning o'zgarishi natijalarini tahlil qiling.

15-misol. Korxona bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan:

Joriy davrda korxona balans foydasi 2,8 mln so'mga teng, asosiy fondlar hajmi yil boshiga 8,6 mln so'mga, yil oxiriga esa 10 mln so'mni, aylanma mablag'lar zaxirasining qoldig'i esa mos ravishda 2,2 va 2,0 mln so'mni tashkil etgan.

Aniqlang: ishlab chiqarish fondlarining samaradorlik darajasini:

16-misol. Korxona bo'yicha ikki davr uchun quyidagi ma'lumotlar berilgan:

4.9.-jadval

Ko'rsatkichlar	Bazis davr	Joriy davr
1. Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (o'zgarmas bahoda, ming so'm)	7525	8400
2. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik to'la qiymati (o'zgarmas bahoda, ming so'm)	2500	2850
Z. Korxona xodimlari soni, kishi	120	125

Aniqlang: 1. Har bir davr uchun:

- A) asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichini;
- B) mehnat unumdorligini.
2. Ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining omillar ta'sirida o'zgarishini:
 - A) fondlardan olinadigan samaraning o'zgarishi hisobiga;
 - B) mehnat unumdorligining o'zgarishi hisobiga.

17-misol. Korxonadagi asosiy kapital harakati haqida quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan (mln so'm):

4.10.-jadval

	Yil boshida mavjud asosiy kapital hajmi	4250
	Yil davomida:	
1.	Sotib olingan asosiy vositalar sh.j. yangilanganlari	1230 600
2.	Yemirilgan asosiy kapital hajmi sh.j. ishlab chiqarishdan olib tashlanganlari (likvidatsiya qilinganlari)	200 150
3.	Yil oxiridagi asosiy kapitalning qoldiq qiymati	3850
4.	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	50000

1. Asosiy kapitalning holat, harakat va foydalanish ko'rsatkichlarini aniqlang.
2. Asosiy kapital balansini tuzing.

18-misol. Firma bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

4.11.-jadval

Xom ashyo turi	Bir birlik mahsulotga sarf (kg)		Bazis davrdagi 1 kg bahosi
	Bazis davr	Hisobot davr	
A	240	2	54
	280	2	25

Hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot 2000 dona

Aniqlang: salmokli sarflarning umumiy indeksini

19-misol. Parrandachilik fermasi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (mln. so'm):

4.12.-jadval

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1) Mahsulot sotishdan tushgan tushum	6312 2208	7776 2430
2) Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati		

Aniqlang:

1) Har bir yil uchun aylanma mablag'larning aylanuvchanligini va aylanish muddatini;

2) Iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikisini.

20-misol. Firmaning birinchi chorakdagi aylanma kapitalining o'rtacha qol-di-qiyamati 4000 ming so'm, sotilgan mahsulot qiymati 8000 ming so'm-dan iborat

Aniqlang:

1. Aylanma kapitalning aylanish koeffitsiyentini.

2. Bir aylanish muddatini.

3. Bog'lanish koeffitsiyentini.

21-misol. Uchqo'rg'on don mahsulotlari aksionerlik jamiyatlari bo'yicha quyi-dagi ma'lumotlar berilgan:

4.13.-jadval

Ko'rsatkichlar	Bazis davrida	Hisobot davrida
Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum, so'm	2762033	2963458
Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, so'm	1722105	1892428

Aniqlang:

1) aylanma kapitalning aylanuvchanligini;

2) aylanuvchanlik kunini

22-misol. Ikki mahsulotning material xarajatlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

4.14.-jadval

Mahsulot turlari	Bazis davri		Hisobot davri	
	Ishlab chiqarilgan mahsulot, t	Umumiy material xarajati, kg	Ishlab chiqarilgan mahsulot, t	Umumiy material xarajati, kg
A	100	240	110	253
B	200	440	250	500

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

- 1) Mahsulot birligiga qilingan material xarajatlarini.
- 2) Material xarajatlarning alohida indeksini.
- 3) Material xarajatlarning umumiy indeksini.
- 4) Material xarajatlarning mutlaq o'zgarishini.

23-misol. Firmada oy boshiga materiallar zaxirasi 600 tonna, o'tgan davrda o'rtacha bir sutkada material xarajati 30 tonnani tashkil etdi.

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang: zaxiradagi material xarajatlari qancha muddatga yetadi?

24-misol. Korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (ming, so'm):

Hisobot yilining birinchi yarim yilida aylanma mablag'larning qoldiq qiymati – 54000

shu jumladan:

mahsulot ishlab chiqarishda ishlatilmagan materiallar zaxirasi – 3600

Debitorlik qarzlari – 5400

Yarim yilda sotilgan mahsulot qiymati (ming so'm) – 120000

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

- 1) bog'lanish koeffitsiyentini;
- 2) ikkinchi yarim yillikka reja bo'yicha aylanma kapitalga bo'lgan ehtiyojni (50% kamaytirilsa).

25-misol. Kichik xususiy korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (ming so'm):

4.15.-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar	
	2014y	2015y
1. Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum	5524	6432
2. Aylanma kapital qoldig'ining o'rtacha yillik qiymati	3504	3784
3. Kalendar kunlari soni	365	365

Aniqlang:

1. Aylanma kapitalning aylanish tezligi:
 - a) aylanishlar soni;
 - b) aylanish vaqti.
2. Aylanish tezligining o'zgarishi hisobiga bo'shagan aylanma kapital hajmini.

26-misol. Korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (mln. so'm)

4.16.-jadval

Ko'rsatkichlar	Choraklar	
	1-chorak	2-chorak
1. Sotilgan mahsulot, ulgurji bahoda	24,5	36,3
2. Aylanma kapitalning o'rtacha qoldig'i	4,0	4,9

Aniqlang:

1. Har bir chorak uchun aylanma kapitalning aylanish ko'rsatkichlarini (ayanishlar soni va aylanish davri kun hisobida).
2. Ikkinchi chorakda birinchi chorakka nisbatan aylanish tezligining o'zgarishi hisobiga bo'shagan aylanma kapital hajmini.

5-MAVZU. YALPI ISHLAB CHIQRISH STATISTIKASI

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Yalpi ichki mahsulot hajmini hisoblash. Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, oxirgi foydalanish usulida hisoblash. Yalpi ichki mahsulot – milliy hisoblar tizimining markaziy ko'rsatkichi xakida misollar keltirish va doir masalalar echish tartibini tushuntirish

Yalpi ichki mahsulot hajmini aniqlash usullariga ta'rif berish va doir masalalar echish tartibini tushuntirish

Xalqaro miqyosida Yalpi ichki mahsulot hajmini solishtirish afzalliklarini kursatib berish va doir masalalar echish tartibini tushuntirish

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Yalpi ichki mahsulot hajmini hisoblash usullari.
2. Asosiy kapitalni Yalpi jamg'arish.
3. Material aylanma mablag'lar zahiralarining ortishi.
4. Tovar va xizmatlarning sof eksporti.
5. Nominal va real Yalpi ichki mahsulot.
6. Ayrim tarmoqlar mahsulotlari hajmini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari.

Nazorat va muxokama uchun savollar:

1. MXT da ishlab chiqarish faoliyati va ularning chegaralari qanday aniqlanadi?
2. Yalpi ishlab chiqarish deganda nimani tushunasiz?
3. «Iqtisodiy faoliyat» va «Ishlab chiqarish faoliyati» tushunchalari bir xilmi?
4. Moliyaviy va nomoliyaviy sektorlar deganda nima tushuniladi?
5. Yalpi ishlab chiqarish hajmi nomoliyaviy sektorda qanday hisoblanadi?
6. Moliyaviy sektorda YaICh qanday hisoblanadi?
7. Yalpi ichki mahsulot deganda nimani tushunasiz?
8. YaIM qanday usullarda hisoblanadi?
9. SIM deb nimaga aytiladi va u qanday aniqlanadi?
10. YaIM dinamikasi, fizik hajmi va bahosi umumiy indeksleri qanday aniqlanadi?
11. Nominal va real YaIMlar bir-biridan nima bilan farq qiladi?
12. YaIM deflatori nima?
13. Yalpi milliy daromad deb nimaga aytiladi va u qanday aniqlanadi?
14. Sof milliy daromad deb nimaga aytiladi?
15. SMD qanday usullarda aniqlanadi?
16. YaMD nima? U qanday hisoblanadi?
17. Yalpi ichki mahsulot hajmini hisoblash usullari.
18. Asosiy kapitalni Yalpi jamg'arish.
19. Material aylanma mablag'lar zahiralarining ortishi.
20. Tovar va xizmatlarning sof eksporti.
21. Nominal va real Yalpi ichki mahsulot.
22. Ayrim tarmoqlar mahsulotlari hajmini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari.

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Har qanday jamiyatning bosh maqsadi ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan. Ehtiyojlarni qondirishning negizi ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayoni – bu kishilarning muayyan maqsadni ko'zlab amalga oshiradigan faoliyati bo'lib, iste'mol uchun zurrur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan jarayondir.

Ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy resurslar (ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari, kapital) ishlatiladi. Natijada moddiy mahsulotlar

(MM) va xizmatlardan (X) iborat hayotiy ne'matlar yaratiladi. Ushbu ne'matlar yig'indisi Yalpi ishlab chiqarishni (YaIch) tashkil qiladi:

$$YaIch = MM + X$$

Bozor munosabatlari sharoitida Yalpi ishlab chiqarish hajmini hisoblash uchun «iqtisodiy faoliyat» va «ishlab chiqarish faoliyati» tushunchalarining mohiyatini bilish zarur. Sababi bu ikki faoliyat turi mazmunan bir-biridan farq qiladi. Eng avvalo, iqtisodiy faoliyat ishlab chiqarish faoliyatiga nisbatan kengroq ma'noga ega. Iqtisodiy faoliyat tarkibi quyidagi ne'matlardan tashkil topadi:

- bozor uchun ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar;
- davlat budjetidan moliyalashtiriladigan, jamoa iste'moliga mo'ljallangan nobozor xizmatlar.

Iqtisodiy faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanib, iste'mol qilish bilan yakunlanadi. Ushbu faoliyat quyidagi to'rt jarayonni o'z ichiga oladi: ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol.

Ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy faoliyatdan uy xo'jaligida shaxsiy iste'mol uchun bajarilgan, ammo haq to'lanmaydigan xizmatlar bilan farq qiladi. Bunday xizmatlar quyidagilar hisoblanadi:

- uyda ovqat tayyorlash;
- bolalarni tarbiya qilish;
- kasallarga, qariyalarga qarashish;
- uy-joyni ta'mirlash, tozalash;
- oila a'zolarini shaxsiy transportda bir joydan ikkinchi joyga olib borish va boshqa xizmatlar.

Ushbu xizmatlar ishlab chiqarish faoliyati hisoblanmaydi va YaIM tarkibiga qo'shilmaydi. Ammo uy-joy xo'jaligida shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hisoblanadi. Bunday mahsulotlar quyidagi ne'matlar hisoblanadi:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni saqlash, ho'l meva, sabzavotlarni yetishtirish va yig'ish; ov va baliq ovi; o'tin tayyorlash;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash; bug'doydan un qilish; sabzavotlarni tuzlash; ichimliklarni tayyorlash; mollarni so'yish va chorva mahsulotlarini qayta ishlash;

Boshqa turli qayta ishlovlar: kiyim-kechakni tikish; oyoq kiyimini tikish, mebel va boshqalarni ta'mirlash.

Uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar va xususiy uy-joyni ta'mirlash ishlari ishlab chiqarish faoliyatiga kirmaydi.

Yalpi ishlab chiqarish va xizmatlarni makroiqtisodiyot sektorlari bo'yicha hisoblash. Yalpi ishlab chiqarish va xizmatlar hajmi makroiqtisodiyotning moliyaviy va nomoliyaviy sektorlari bo'yicha hisobga olib boriladi.

Nomoliyaviy sektor deganda turli mulk shakliga asoslangan ishlab chiqarish va moliyaviy bo'lmagan xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi korxonalar to'plami tushuniladi. Nomoliyaviy sektorga quyidagi korxonalar kiradi:

- Davlatga tegishli bo'lmagan nomoliyaviy korxonalar;
- Xususiy korxonalar;
- Jamoa korxonalari;
- Hissadorlik korxonalari, kooperativ korxonalar

Nomoliyaviy sektorda Yalpi ishlab chiqarish hajmi quyidagicha hisoblanadi:

$$YaICh = STX + BSTX,$$

Bu yerda: STX - sotilgan tovarlar va xizmatlar hajmi;

BSTX - bozorga chiqarish uchun mo'ljallanmagan tovar va xizmatlar.

Sotilgan tovarlar va xizmatlarning (STX) bozor bahosidagi qiymati quyidagicha hisoblanadi:

$$STX = A + V,$$

Bunda: A – sotilgan tovar va xizmatlar;

V – tayyor mahsulotlar g'amlamasidagi farq (bu qoldiq ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin).

Bozorga chiqarish uchun mo'ljallanmagan tovar va xizmatlar (BSTX)ga quyidagi ne'matlar kiradi:

- Korxonada ishlab chiqarilgan, ammo mehnat haqi o'rniga o'z xodimlariga natura shaklida to'langan mahsulotlar;
- Barter usulida almashiladigan mahsulotlar;
- Korxonaning jami kapital jamg'armasi maqsadida qoldirilgan mahsulotlar;

Shaxsiy iste'molga mo'ljallangan nokooperativ korxonalarning mahsulotlari va xizmatlariga uy xo'jaligida ishlab chiqarilgan, tayyorlangan, iste'mol qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari kiradi.

Nomoliyaviy sektordan tashqari moliyaviy sektorda ham Yalpi ishlab chiqarish hajmi aniqlanadi. Moliyaviy sektor deganda tijoratga

asoslangan moliyaviy muomilalar bilan shugʻullanuvchi institutsional birliklar toʻplami tushuniladi. Bular tijorat-kredit muassasalaridir, tijorat bank muassasalari, sugʻurta tashkilotlari, nafaqa fondi birgalikda moliyaviy sektor tarkibiga kiradi. Buni tijorat banklari misolida koʻrib chiqamiz. Tijorat banklari moliya bozorida vositachilik vazifasini bajaradi. Uning Yalpi ishlab chiqargan pirovard daromadi quyidagicha hisoblanadi (TB_{PD}):

$$TBPD = DP + STF + KK + V,$$

Bu yerda: DP – depozitlardan tushgan foizlar;

STF – sertifikatlardan tushgan foizlar;

QQ – qimmatli qogʻozlardan tushgan daromadlar;

V – veksellarni sotishdan tushgan daromadlar.

Mamlakat miqyosida Yalpi ishlab chiqarish va xizmatlarni oʻzida yaxlit holda umumlashtirib ifodalovchi koʻrsatkichlar YaIM, SIM, YaMD, SMD lar hisoblanadi.

Ushbu koʻrsatkichlar majmuasini odatda, «Milliy hisoblar tizimi» (MHT) deb yuritiladi. «Yalpi» tushunchasi «Sof» tushunchasining oʻrniga ishlatilib, milliy hisoblar tizimida asosiy kapitalning oraliqdagi isteʼmolini (A) bildiradi. MHT dagi ushbu toʻrtta umumlashtiruvchi koʻrsatkichlar oʻzaro bogʻliqligini quyidagi chizmadan aniq koʻrish mumkin:

$$\begin{array}{ccc} \boxed{\text{YaIM}} & - & \boxed{A} = \boxed{\text{SIM}} \\ \pm & & \pm \\ \boxed{\Delta D} & & \boxed{\Delta D} \\ = & & = \\ \boxed{\text{YaMD}} & - & \boxed{A} = \boxed{\text{SMD}} \end{array}$$

Bu yerda: $\Delta D = A - B$.

Shunda: A – mazkur mamlakat rezidentlarining xorijiy mamlakatlardan olgan daromadlari.

B – xorijiy investorlar va ishchilarning mazkur mamlakatdan olgan daromadlari.

Yalpi va sof ichki mahsulot statistikasi Yalpi ichki mahsulot (YaIM) bilan birga Yalpi milliy mahsulot (YaMM) makroiqtisodiyotning ikki yirik sohasini aks ettiradi, yaʼni moddiy ishlab chiqarish va

xizmatlar natijasini tavsiflaydi. Yalpi ichki mahsulot deb mazkur mamlakat hududida joylashgan barcha korxonalar (rezidentlar) tomonidan pirovard iste'mol uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati tushuniladi. Bu yerda korxonalarni qaysi mamlakatga tegishli ekanligi hisobga olinmaydi.

Yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi yordamida iqtisodiyotni rivojlanish qonuniyatlari va tendensiyalari tahlil etiladi, boshqa mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanish natijalari bilan solishtiriladi, iqtisodiyotning ishlab chiqarish strukturasi baho beriladi.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) deb mazkur mamlakatda va uning tashqarisida joylashgan milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlar qiymati tushuniladi. YaIM ko'rsatkichi YaMMdan mamlakatni tashqi kapital sarflaridan olgan foyda saldosi miqdoriga farq qiladi, ya'ni chetdan olingan foyda saldosi YaIMga qo'shilmaydi, agar YaIMga qo'shilsa YaMMni beradi. Yalpi milliy mahsulotni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$YaMM = \begin{array}{l} \text{Shu mamlakat} \\ \text{yuridik va jismoniy} \\ \text{shaxslarining xorijdan} \\ \text{oladigan daromadlari} \\ \text{(foydasi)} \end{array} + \begin{array}{l} \text{xorijiy investorlar va} \\ \text{ishchilarni shu} \\ \text{mamlakatdan} \\ \text{oladigandaromadlari} \\ \text{(foydasi).} \end{array}$$

1993-yildan boshlab mamlakatimizda YaMM o'rniga Yalpi milliy daromad (YaMD) ko'rsatkichi ishlatilib kelinmoqda.

YaIM jami ijtimoiy mahsulotdan ($JIM=c+v+m$) ham tubdan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilardan iborat:

- YaIM iste'mol uchun tayyor hayotiy ne'matlar hisoblanadi. Shu sababli uning tarkibiga qayta ishlash yoki qaytadan sotishga mo'ljallangan mahsulotlar kirmaydi, ya'ni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan oraliq mahsulot va xizmatlar qiymati (masalan, urug', o'g'it, yonilg'i, ozuqa, energiya va boshqalar) YaIM qiymatiga qo'shilmaydi.

- Ushbu ne'matlar haqiqatda ichki mahsulot hisoblanadi, chunki u shu mamlakat hududida joylashgan barcha rezidentlar (qaysi millat va qaysi davlat fuqarosiga mansub ekanligidan qat'iy nazar) tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

- YaIM tarkibiga ushbu mamlakat rezidentlarining xorijiy

mamlakatlardan olgan daromadlari (A) bilan xorijiy mamlakatlar investorlari va xodimlariga beriladigan daromadlari (B) o'rtasidagi farq ($\pm \Delta D$) kirmaydi.

YaIM quyidagi uch xil usul yordamida hisoblanadi:

- ishlab chiqarish usuli;
- taqsimlash usuli;
- pirovard foydalanish usuli.

• **YaIMni ishlab chiqarish usulida aniqlash.** YaIM ni aniqlash uchun tarmoqlar bo'yicha guruhlangan barcha mustaqil rezidentlarning Yalpi qo'shilgan qiymati (YaQQ) jamlanadi.

$$YaIM = \sum \text{Я} QQ.$$

Oraliq mahsulot (ORM) – ishlab chiqarish jarayonida to'la iste'mol qilingan mahsulotlar va xizmatlar qiymatidir..

• **YaIMni taqsimlash usulida** aniqlash uchun xodimlar, korxonalar va davlatning birlamchi daromadlari jamlanadi:

$$YaIM = MH + S + YaF$$

Bu yerda: MH – yollangan xodimlarning mehnat haqi;

S – ishlab chiqarish va importga soliq;

YaF – korxonalarning Yalpi foydasi va Yalpi aralash daromadlari.

YaF makroiqtisodiyot bo'g'inida quyidagicha aniqlanadi:

$$YaF = YaIM - Mh - S + SS$$

Bu yerda: SS – ishlab chiqarish va importni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan subsidiya.

YaF tarmoqlar va sektorlar bo'yicha quyidagicha hisoblanadi:

$$YaF = QQ - MH - QQS - BS + ITS + BSS$$

Bu yerda: QQS – qo'shilgan qiymat solig'idan tashqari mahsulot va import uchun soliq;

BS – ishlab chiqarishga solinadigan boshqa soliqlar;

ITS – importdan tashqari mahsulot uchun ajratilgan subsidiya;

BSS – ishlab chiqarish uchun ajratilgan turli subsidiyalar.

• **Pirovard foydalanish usulida** Yalpi ichki mahsulotni aniqlash

uchun iste'mol va jamg'armalar fondlariga eksport va import orasidagi qoldiq qo'shiladi (yoki ayiriladi):

$$YaIM = PI + YaJ + EIQ$$

Bu yerda: PI – pirovard iste'mol (iste'mol qilingan mahsulotlar va xizmatlar);

YaJ – Yalpi jamg'arma;

EIQ – mahsulotlar va xizmatlar eksporti va importining qoldig'i.

YaIM dinamikasining o'zgarishini statistik tahlil qilish uchun quyidagi uch xil indeksdan foydalaniladi:

- YaIM dinamikasi indeksi: $J_{qp} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0}$;
- YaIM fizik hajmi indeksi: $J_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}$;
- YaIM bahosi indeksi: $J_p = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0}$;

YaIM dinamikasi indeksi YaIM hajmining hisobot yilida bazis yiliga nisbatan umumiy o'zgarishini, ya'ni ko'payganligini yoki kamayganligini ifodalaydi. YaIM fizik hajmi indeksi YaIM fizik hajmining haqiqiy o'zgarishini, ya'ni ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan mahsulotlar (xizmatlar) ning fizik hajmining o'zgarishini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, YaIM fizik hajmining o'zgarishi tufayli YaIM qiymati (hajmi) qanchaga oshganligini yoki kamayganligini ko'rsatadi.

Baho indeksi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan o'rtacha baho qancha o'sganligini yoki kamayganligini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, mahsulotlar va xizmatlar bahosining o'zgarishi tufayli YaIM hajmi qanchaga o'zgarganligini ko'rsatadi.

• **Sof ichki mahsulotni** (SIM) aniqlash uchun Yalpi ichki mahsulotdan (YaIM) amortizatsiya ajratmalarini (A) chegirib tashlash kerak:

$$SIM = YaIM - A$$

Demak, sof ichki mahsulot YaIM dan amortizatsiya ajratmalarini o'z ichiga olmasligi bilan farq qiladi, shunigina uchun u YaIM dan har

doim kichik bo‘ladi: $SIM < YaIM$.

Yalpi ichki mahsulot joriy va taqqoslama (o‘zgarmas) baholarda hisoblanadi. Agar joriy baholarda hisoblansa, u nominal YaIM deb ataladi. Agar u baho o‘zgarishini hisobga olib aniqlansa, real YaIM deyiladi. Real YaIM ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarning haqiqiy moddiy hajmini ifodalaydi.

Real YaIM hajmini ($YaIM_r$) aniqlash uchun nominal YaIM hajmini ($YaIM_n$) bahoning umumiy indeksiga bo‘lish kerak:

$$YaIM_r = \frac{YaIM_n}{\text{Baho indeksi}}; \text{ ya'ni } \frac{\sum q_1 p_1}{J_p}.$$

Bu yerda: $J_p = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0}$ - bahoning umumiy indeksi.

Baho indeksidan ko‘rinib turibdiki, har ikkala davr uchun ham hisobot davridagi mahsulot va xizmatlar miqdori (q_1) qatnashadi. Shuning uchun ham, ushbu indeks faqat baho o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Nominal YaIM hajmi indeksiga ($J_{qp} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0}$;) nisbatan baho indeksi ($J_p = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0}$) syokin o‘ssa, real YaIM ko‘payadi.

Baholarning o‘zgarishi bilan mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishini ko‘rsatuvchi miqdorni barcha tayyor mahsulot va xizmatlarning umumiy **baho indeksi yoki deflatori** deb ataladi. Jami mahsulot tarkibiga millionlab nomdagi yaratilgan ne‘matlar kiradi va ularni har birining narxini o‘zgarib turishini jismonan kuzatish mumkin emas. Shuning uchun ham, deflator bozor savati yordamida aniqlanadi. Bozor savati YaIM tarkibiga kiruvchi, uning asosiy qismini tashkil etuvchi muhim tovar va xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Nominal YaIM hajmini real YaIM hajmiga bo‘lish orqali YaIM deflatori aniqlanadi:

$$YaIM_{\text{defl.}} = \frac{YaIM_n}{YaIM_r} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0} = \frac{\text{joriy yildagi bozor savatining joriy yil baholari bo'yicha qiymati}}{\text{joriy yildagi bozor savatining bazis yili baholari bo'yicha qiymati}};$$


2014 yil yanvar-dekabr holatiga ishlab chiqarilgan Yalpi ichki mahsulot

(YaIM) hajmi joriy narxlarda 144867,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi va 2013 yil yanvar-dekabriga nisbatan oʻsish surʼati 8,1 foizga teng boʻldi.

YaIM umumiy hajmining 82,9 foizi iqtisodiyotning nodavlat sektoriga, 17,1 foizi - davlat sektoriga toʻgʻri keldi.


Yanvar-dekabrda YaIMning mulkchilik shakllari boʻyicha taqsimlanishi quyidagicha ifodalanadi:

yakunga nisbatan foiz hisobida



YaIM ishlab chiqarishning tarkibi quyidagicha ifodalanadi:

yakunga nisbatan foiz hisobida



Respublikamizda bozor munosabatlarining asoslari jadal shakllanayotgan hozirgi paytda statistika tizimi islohotlarning birinchi bosqichida milliy hisoblar tizimi asosida uy xo'jaligining YAIMdagi ulushini aniqlash hamda daromadlarni shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanish, uning ishtiroki orqali aholining yashash darajasini tahlil qilish imkonini beradi.

Statistikada uy xo'jaliklarining a'zolari deganda, hozirgi paytda ushbu manzilda yashayotgan, umumiy oilaviy byudjetga ega bo'lgan va «umumiy qozon»dan ovqatlanadigan shaxslar (kattalar va bolalarni qo'shgan holda)ni tushunish lozim.

Uy xo'jaliklari byudjetining pul daromadlari xalqaro standartlar bo'yicha quyidagi ma'lumotlardan yig'iladi:

– pul ko'rinishidagi daromad ko'rsatkichlari (ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad, aksiya foizlari dividendlari, mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlarni sotishdan tushum, nafaqa, stipendiya, ko'chmas mulkni sotish va ijaraga berish, natura ko'rinishidagi daromad ko'rsatkichlari.

Uy xo'jaliklari byudjetining iste'mol xarajatlari tarkibi; – oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish; uydan tashqarida ovqatlanish, spirtli ichimliklarni sotib olish, tamaki mahsulotlarini sotib olish, shaxsiy iste'mol uchun nooziq-ovqatlar sotib olish, xizmatlar uchun to'lovlar, ko'chmas mulk sotib olish, asalari, parranda, hayvonlarni sotib olish, ishlab chiqarish xizmatlari haqi, soliq, badal va boshqa to'lovlar, individual – mehnat faoliyati uchun xom ashyo tovarlari sotib olish, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olishdan iborat.

Uy xo'jaliklarining daromadlari va xarajatlarini differentsiyalash iste'mol baholari indeksini hisoblash uchun iste'mol savatini shakllantiradi va iste'mol baholar indeksini hisoblashda ishlatiladi.

Uy xo'jaligi ko'rsatkichlarining alohida ifodalashdan maqsad, mamlakatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushini aniqlashdir.

Uy xo'jaligining yalpi qo'shilgan qiymati (YAQQ) yalpi mahsulot va xizmatlar qiymatidan oraliq iste'mol sarf –xarajatlarning ayirmasiga teng, yani:

$$\text{YAQQ} = \text{YAICH} - \text{OI}$$

Bu yerda YAICH – yalpi ishlab chiqarish va xizmatlar , OI – oraliq iste'mol.

YAICH – yalpi ishlab chiqarish:

Yalpi ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti.

Yalpi ko'rsatilgan pulli xizmatlar.

Yalpi nobozor xizmatlar.

$$\text{YAICH} = \text{YAICHnb} + \text{YAICHbo}$$

Bunda: YAICHnb – uy xo‘jaligining nobozor yalpi ishlab chiqarishi, u quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{YAICH nb} = \text{OI} + \text{MX} + (\text{Ni} - \text{Si}) + \text{AFI}$$

Bunda: OI – oraliq iste‘moli uchun sarflangan tovar va xizmatlar qiymati; MX – yollangan xizmatchi (uy xizmatchisi, bog‘bon, haydovchi, oshpaz v.b.) mehnat haqi; Ni – ishlab chiqarish davrida to‘langan ishlab chiqarish solig‘i; Si – ishlab chiqarish davrida davlat byudjetidan olingan subsidiya; AFI – asosiy fond iste‘moli.

YAICHboga – uy xo‘jaliklarining bozorga oid ishlab chiqarilgan mahsulotlarining qiymati va ularga uy yumushlarini bajaruvchilarning xizmatlari, yollangan ishchiga berilgan ish haqi, uni ovqatlantirish sarf – xarajatlari va boshqa rag‘batlantirish qiymatlari kiradi. Uy xo‘jaligi o‘zining pirovard iste‘moli uchun ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni qiymati, bozordagi xuddi shunga o‘xshash mahsulot va xizmatlari qiymati orqali hisoblanadi.

MHT metodologiyasida uy xo‘jaligini pirovard iste‘mol tovarlar va xizmatlarini aniq klassifikatsiyasi bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari va ularni saqlash.
- Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash (pishloq, konserva, piva, vino va boshqalar).
- Kiyim-bosh tikish, teriga ishlov berish, oyoq kiyimlar tikish, idish – tovoq tayyorlash va boshqalar.
- Uyda yashaydiganlarga uyni ko‘rsatgan shartli xizmati (bu shartli xizmat qiymati, shu uyni saqlash uchun sarflangan xarajatlar yig‘indisiga teng deb qaraladi).

Uy xo‘jaligining quyidagi faoliyat turi YAICHda hisobga olinmaydi:

- uy xizmatlarini, agarda uyning egasi bajarsa;
- uzoq muddat davomida ishlatiladigan iste‘mol tovarlarini ta‘mirlash xizmatlari, uni egalari bajarsa;
- uy – joyni joriy ta‘mirlash ishlarini uyda yashovchilar bajarsa (uyning egasi emas.)

Uy xo‘jaligining oraliq iste‘mol xarajatlari moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha hisoblanadi va ularga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish maqsadida sotib olingan urug'lik, qurilish materiallari, mayda – chuyda ishlab chiqarish inventarlari hamda ishlab chiqarishda ishlatiladigan turli – tuman sarf – xarajatlar;

- uy hayvonlarini veterinar ko'rigidan o'tkazish va sug'urtalash, xo'jalik qurilish xizmatlari haqi;

- ishlab chiqarish maqsadida ijaraga olingan imorat, asosiy vositalarning ijara haqlari;

- uy egasiga qarashli uy – joylarni joriy ta'mirlash sarf-xarajatlari va boshqalar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, YAKK ishlab chiqarish va ko'rsatilgan xizmatlar jarayonida yaratilgan (qo'shilgan) qiymatdir. U yalpi qo'shilgan qiymat holida yoki YAKK dan asosiy fondlar iste'molini ayrilib, sof qo'shilgan qiymat holida hisoblash mumkin ya'ni:

$$\text{SKK} = \text{YAQQ} - \text{AFI}.$$

Uy xo'jaligini makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga YAQQ dan tashqari aralash ham, daromad (AD), birlamchi daromadlar saldosi (BDS), ixtiyordagi daromad(ID), yalpi jamg'arma (YAJ) ham kiradi.

Uy xo'jaligining aralash daromadi – YAQQ ga davlat tomonidan ishlab chiqarishga berilgan subsidiya (I/chS) qo'shib, undan mehnat haqi (MH) va ishlab chiqarish soliqlarining (I/chS) ayirmasiga teng ya'ni:

$$\text{AD} = \text{YAQQ} + \text{I/ch S} - \text{I/ch N}$$

Bu yerda: **I/ch S** – ishlab chiqarishga berilgan subsidiya.

MH – yollangan xodimlarning mehnat haqi.

I/ch S – ishlab chiqarish solig'i.

Uy xo'jaliklarida faqat ishlab chiqarish solig'i bo'ladi va bu soliqqa quyidagilar kiradi:

- sotish huquqini olish solig'i;
- yer solig'i;
- tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan shaxslardan olinadigan soliqlar;
- avtoinspeksiya to'lovi.

Uy xo'jaligining birlamchi daromadlarini ishlab chiqarish jarayonidan olingan daromadlar hamda aktivlarni ishlab chiqarish jarayonida bilvosita qatnashganli uchun olinadigan mulk daromadlar yig'indisidan , mulkdan foydalanganligi uchun beriladigan mulk daromadlarini ayirsak – uy xo'jaligining birlamchi daromad saldosi ga teng bo'ladi. Mulkdan olingan daromatlarga quyidagidar kiradi:

- bankka qo'yilgan mablag'dan olingan foiz;

- divedendlar;
- yer ijara (renta) haqi;
- sug'urta polisidan olingan daromad.

Shunday qilib, uy xo'jaligining birlamchi daromadlar saldosi (qoldig'i) BDS teng:

$$\mathbf{BDS = AD + MH + MOD - MBD.}$$

Bunda:

AD – aralash daromad;

MX – iqtisodiy sektorlarga yollangan xizmatchilarning mehnat haqi;

MOD – mulkdan olingan daromad;

MBD – mulkdan foydalanganligi uchun to'langan mulk daromadi.

Keyingi bosqichda esa iqtisodiy sektorlarning birlamchi daromadlar saldosi qayta o'zaro taqsimlash operatsiyasi joriy transfertlar orqali bajariladi. Joriy transfertlarga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy nafaqa – qarilik, nogironlik uchun berilgan nafaqa;
- xususiy xalqaro joriy transfertlar – mamlakatimiz uy xo'jaliklari bilan tashqi dunyodagi uy – xo'jaliklar o'rtasidagi o'zaro oldi – berdi, sovg'alar hamda chet elda ishlayotgan ishchilarning (bir yildan ortiq ishlayotganlar) o'tkazgan pullari;
- sug'urta qatlamlari – sug'urta tashkilotlari sug'urta polisiga ega bo'lgan uy xo'jalik a'zolari ko'rgan zararni qoplash uchun berilgan to'lovlar;
- daromad va mulk soliqlari;
- ijtimoiy sug'urta ajratmalari;
- boshqa joriy transfertlar: ixtiyoriy xayr – exhsonlar, jarima, penyalar va boshqalar.

Shunday qilib, uy xo'jaligini BDS ga olingan joriy transfertlarini qo'shib, berilgan joriy transfertlarni ayirsak, uy xo'jaligining yana bir makro ko'rsatkichi yalpi ixtiyordagi daromadi (**Y AID**) hosil bo'ladi.

$$\mathbf{Y AID = BDS + OJT - BJT.}$$

Bunda :

OJT – olingan joriy transfertlar.

BJT – berilgan joriy transfertlar.

Endi uy xo'jaligi o'zining ixtiyoriy daromadidan qanday foydalanligini, ya'ni qancha qismi pirovard iste'moliga (PI), qancha qismi yalpi jamg'armaga (YAJ) sarflanganligini aniqlaymiz.

Uy xo'jaligining pirovard iste'mollar sarf – xarajatiga quyidagilar kiradi:

- sotib olingan tovarlar va xizmatlar;
- uy xo‘jaligida ishlab chiqarilgan iste’mol tovarlari va xizmatlar;
- mehnat haqiga berilgan natural mahsulotlar va xizmatlar.

Uy xo‘jaligining yalpi jamg‘armasi quyidagicha hisoblanadi:

$$YAJ = YAID - PI.$$

Mustaqil ishlash uchun misollar.

1-misol. Quyidagi ma’lumotlar asosida uy xo‘jaligi sektorining ishlab chiqarishini hisoblang ma’lumotlar shartli birlikda:

1. Uy xo‘jaligining xizmatlari – 155
2. Uy xo‘jaligining pulli xizmatlari – 40
3. Egasi tomonidan uzoq muddat foydalaniladigan iste’mol tovarlarini ta’mirlash – 60
4. Uy xo‘jaligi o‘zini iste’moli uchun ishlab chiqqan qishloq xo‘jalik mahsulotlari –100.

2-misol.Quyidagi ma’lumotlar asosida uy xo‘jaligining yalpi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini hisoblang ma’lumotlar shartli birlikda:

1. Uy xo‘jaligi ishlab chiqqan sut mahsuloti – 200.
Shu jumladan, o‘zining iste’moli uchun ishlab chiqqan sut mahsulotining 40 % ishlatdi.
2. Uy egasi tomonidan uy-joyini ta’mirlash xarajati –120
3. Barter uchun ishlab chiqilgan mahsulot –70
4. Uyning ijarasidan olingan daromad – 100
5. O‘zining iste’moli uchun sarflagan oziq-ovqatlar -60

3-misol.Quyidagi ma’lumotlar asosida uy xo‘jaligi sektorining yalpi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini hisoblang. Ma’lumotlar shartli birlikda:

1. Yollangan oshpaz haqi – 70
2. Uyda yashovchi tomonidan turar-joyini tamirlash xarajatlari – 100
3. Repetitorlikdan olgan daromadi –110
4. Kasanachilik asosida tayyorlangan tovar – 200.

4-misol.Nokorporativ korxonalarning iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyi-dagi ma’lumotlar mavjud, shartli birlikda:

1. Joriy yilda realizatsiya qilingan mahsulot – 800
2. Yosh mevali daraxtlar va tokzorlarni parvarish qilish xarajatlari – 900

3. So‘qimga boqilgan qora mol og‘irligi, hisobot boshida – 200 kg, hisobot oxirida – 250kg (1kg go‘sht narxi – 10)

5-misol. Yuqoridagi ma’lumotlar asosida korxonaning yalpi ishlab chiqarishi-ni hisoblang.

1. Nokorparativ korxonalarni ishlab chiqqan mahsulotlari – 100
2. Savdo-sotiqdan olgan daromadi – 110
3. Mardikorlikdan olgan daromadi – 50
4. Avtomashina ijarasidan olgan daromadi – 90
5. Uyni tozalash va toza tutish – 20

6-misol. Uy xo‘jaligi hisobot davridan quyidagi xarajatlarni sarfladi:

1. Urug‘ materiallarga -100
2. Oziq – ovqatlarga -200
3. Uyda yashovchilar turar-joyini ta’mirlashga bo‘yoq – 20 , g‘isht – 40, gul qog‘oz
4. Uyning ijara haqi-25

7-misol. Yuqoridagi ma’lumotlar asosida oraliq iste’mol xarajatlarni hisoblang.

1. Yuridik xizmatlarga –15
2. Yo‘l transport xizmat haqi – 25
3. Aloqa haqi – 20
4. Asbob-uskunalar ijara haqi – 10
5. Yerdan foydalanish ijara to‘lovi – 6
6. Kino - teatr va madaniy xizmatlar – 35

8-misol. Uy xo‘jaligini quyidagi ma’lumotlar asosida oraliq iste’mol xarajat-larini hisoblang:

1. Uy hayvonlarining veterinar xizmatlari haqi – 30
2. Uy hayvonlarini sug‘urtalash haqi – 20
3. Sotib olingan yem-xashak oziqlari – 50
4. Xarom o‘lgan mollar –15
5. Yem – xashak oziqlarini hisobot davrida zaxirasini o‘zgarishi:
 - hisobot davri boshida –25
 - hisobot oxirida –10

9-misol. Uy xo‘jaligi sektorining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma’lumotlar mavjud, shartli birlikda:

Uy xo'jaligida 1 tonna kartoshka yetishtirilgan, shundan 0.5 tonnasi o'zining iste'moliga ishlatildi va qolgan har bir kilogrammini 10 birlikdan sotdi.

Uyni joriy ta'mirlash uchun 50 birlik sarf-xarajat qilindi. Yollangan ishchi xizmati uchun 30 birlik ish haqi va ishchilarni ovqatlantirish uchun 5 birlik sarf qildi. Shaxsiy uyda yashash shartli xizmati 70 birlikka teng.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida uy xo'jaligi sektorining YAQQ ni hisoblang.

10-misol.Quyidagi jadvalda uy xo'jaligi sektorining kichik sektorlari iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi ma'lumotlar berilgan (shartli birlikda):

5.1-jadval

No	Ko'rsatkichlar va uy xo'jaligining kichik sektorlari	Bazis yil	Hisobot yil
1	Yalpi ishlab chiqarish (asosiy bahoda)		
1.1	Ish beruvchi uy xo'jaliklari sektori	200.0	205.0
1.2	Mustaqil faoliyat yurutuvchi uy xo'jaliklari sektori.	110.0	125.0
1.3	Yollanma ishchi xodimlar uy xo'jaligi sektori	75.0	84.0
2	Oraliq iste'mol xarajatlar:		
2.1	Ish beruvchi uy xo'jaliklari sektori	97.0	109.0
2.2	Mustaqil faoliyat yurutuvchi uy xo'jaliklari sektori.	43.0	57.0
2.3	Yollanma ishchi xodimlar uy xo'jalik sektori	15.0	21.0
3	Mahsulot solig'i	80.0	100.0
4	Mahsulot uchun subsidiya	20	25

Aniqlang :

1. Uy xo'jaligi sektorining yalpi qo'shilgan qiymatini bozor bahosida hisoblang.

2. Kichik sektorning YAQQ ni o'zgarishlarini aniqlang va izohlang.

11-misol.Uy xo'jaligining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi shartli birlikda berilgan ma'lumotlari:

5.2-jadval

Ko'rsatkichlar	Bazis davr	Hisobot davri
Yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar	7922.0	11604.4
Oraliq iste'molini yalpi ishlab chiqarishidagi ulushi, %	46.1	48.9
Asosiy fondlar iste'molini ishlab chiqarishdagi ulushi, %	9.1	10.3

Bundan tashqari hisobot davrida bazis davriga nisbatan baho o'zgarishi: yalpi ishlab chiqarishda 10,8 % ga , oraliq iste'molda 6.1% ga oshdi , asosiy fondlarning bahosi 2.1 % ga pasaydi .

Aniqlang:

1. Uy xo'jaligi sektorining yalpi va sof qo'shilgan qiymatini.
2. YAICH, YAQQ va SQQ ni taqqoslama baholarda fizik jami indeksi.

12-misol. Uy xo'jaligining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlari quyidagi ma'lumotlardan iborat (mln so'm):

5.3-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Bazis davri	Hisobot davri
1	Yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotlar va pulli xizmatlar (asosiy bahoda)	2450945.0	3593005.8
2	Oraliq iste'moli	742038.9	1130354.8
3	Boshqa ishlab chiqarish solig'i	212.7	46347.2
4	Yollangan ishchilarning mehnat haqi	202178.1	283603.8

Uy xujaligi sektorining ko'rsatkichlari miqdorini aniqlang :

1. Aralash daromadi .
2. Yalpi qo'shilgan qiymati .
3. YAQQning tarkibiy o'zgarishlarini aniqlang va izohlang.

13-misol. Quyidagi jadvalda uy xo'jaligi sektorining iqtisodiy faoliyatini ifoda-lovchi ma'lumotlar berilgan, joriy baholarda (mln so'm):

5.4-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Miktori
1	Yalpi ishlab chiqarish	5242231.4
2	Oraliq iste'mol xarajati	1635832.1
3	Boshqa ishlab chiqarish solig'i	29842.8
4	Uy xo'jaligi yollangan xizmatchilarining mehnat haqi	332436.1
5	Yollangan rezidentlarning mehnat haqi	3327124.9
6	Rezidentlarni chet davlatlardan olgan mehnat haqi	79403.05
7	Norezidentlarga to'langan mehnat haqi	407.7
8	Oraliq mulk daromadi	92309.3
9	To'langan mulk daromadi	26023.4

Yuqoridagi jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, uy xo'jaligi sektorining quyidagi ko'rsatkichlarini aniqlang :

1. Yalpi qo'shilgan qiymat.
2. Aralash daromad.
3. Uy xo'jalik sektori birlamchi daromad saldosi.

14-misol.Quyidagi ma'lumotlar asosida uy xo'jaligining ixtiyoridagi yalpi daromadni aniqlang:

ma'lumotlar: birlamchi daromadlar saldosi – 7049026.9 mln. so'm.

Ijtimoiy nafaqa – 1254172.1, sug'urda qoplanmasi – 1058.4; xalqaro hamkorlik aloqasi tufayli olingan transfertlar –354614.5; olingan boshqa joriy transfertlar – 39771.4; daromad solig'i – 338424.4; mol-mulk solig'i – 52906.8; sof sugurta mukofoti – 1058.4; xalqaro hamkorlik aloqasi tufayli berilgan joriy transfertlar – 66968.0; berilgan boshqa joriy transfertlar – 30880.0.

15- misol.Quyida uy xo'jaligi sektori daromadining shakllanishi, xarajati va undan foydalanishni ifodalovchi shartli iqtisodiy ma'lumotlar berilgan (mln. so'mda):

5.5-jadval

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1. Yalpi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish	600.0
2. Oraliq iste'mol xarajatlari	210.0
3. Asosiy fondlar iste'moli	38.0
4. Yollangan xizmatchilarning ish haqi	150.0
5. Ijtimoiy sug'urta ajratmasi	37.5
6. Sof ishlab chiqarish solig'i	21.0
7. Olingan dividendlar	60.0
8. Iqtisodiyotning boshqa sektorida yollangan xizmatchilarga berilgan kompensatsiya	2400.0
9. Yer va moddiy aktivlardan olingan daromad	15
10. Berilgan mulk daromadi	135.0
11. Ijtimoiy nafaqa	750.0
12. Daromad solig'i	240.0
13. Berilgan boshqa joriy transfertlar	9.0
14. Natura ko'rinishida olingan ijtimoiy transfertlar	84.0
15. Pirovard iste'mol	255.0

Uy xo'jaligi sektorining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblang va tahlil qiling.

16- misol.Quyida uy xo‘jaligi sektori daromadining shakllanishi, xarajati va un-dan foydalanishni ifodalovchi shartli iqtisodiy ma’lumotlar berilgan (mln. so‘mda): 5.6-jadval

Ko‘rsatkichlar	Miqdori
1. Yalpi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish	196.5
2. Oraliq iste’mol xarajatlari	69.3
3. Asosiy fondlar iste’moli	9.8
4. Yollangan xizmatchilarning ish haqi	49.1
5. Ijtimoiy sug‘urta ajratmasi	12.3
6. Olingan dividendlar	19.6
7. Iqtisodiyotning boshqa sektorida yollangan xizmatchilarga berilgan kompensatsiya	785.6
8. Yer va moddiy aktivlardan olingan daromad	4.9
9. Berilgan mulk daromadi	44.2
10. Ijtimoiy nafaqa	245.5
11. Daromad solig‘i	78.5
12. Berilgan boshqa joriy transfertlar	3.0
13. Natura ko‘rinishida olingan ijtimoiy transfertlar	30.0
14. Pirovard iste’mol	83.5

Uy xo‘jaligi sektorining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini hisoblang va tahlil qiling.

17- misol.Quyida uy xo‘jaligi sektori daromadining shakllanishi, xarajati va undan foydalanishni ifodalovchi shartli iqtisodiy ma’lumotlar berilgan (mln. so‘mda): 5.7-jadval

Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Yalpi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish	975.0
Oraliq iste’mol xarajatlari	341.2
Asosiy fondlar iste’moli	48.7
Yollangan xizmatchilarning ish haqi	243.8
Sof ishlab chiqarish solig‘i	34.2
Iqtisodiyotning boshqa sektorida yollangan xizmatchilarga berilgan kompensatsiya	3731.0
Olingan dividendlar	97.5
Yer va moddiy aktivlardan olingan daromad	24.4
Berilgan mulk daromadi	219.4
Ijtimoiy nafaqa	1218.8
Daromad solig‘i	390.0
Berilgan boshqa joriy transfertlar	14.7
Natura ko‘rinishida olingan ijtimoiy transfertlar	136.5
Pirovard iste’mol	414.5
Ijtimoiy sug‘urta ajratmasi	60.9

Uy xo‘jaligi sektorining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini hisoblang va tahlil qiling.

18- misol. Quyida uy xo‘jaligi sektori daromadining shakllanishi, xarajati va undan foydalanishni ifodalovchi shartli iqtisodiy ma’lumotlar berilgan (mln. so‘mda):

5.8-jadval

Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Yalpi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish	143
Oraliq iste’mol xarajatlari	50.6
Asosiy fondlar iste’moli	7.3
Yollangan xizmatchilarning ish haqi	36.2
Ijtimoiy sug‘urta ajratmasi	9.0
Sof ishlab chiqarish solig‘i	5.1
Iqtisodiyotning boshqa sektorida yollangan xizmatchilarga berilgan kompensatsiya	578.9
Renta va moddiy aktivlardan olingan daromad	3.6
Berilgan mulk daromadi	32.6
Ijtimoiy nafaqa	180.9
Daromad solig‘i	57.8
Berilgan boshqa joriy transfertlar	2.1
Berilgan natura ko‘rinishidagi ijtimoiy transfertlar	20.8
Pirovard iste’mol	61.5
Olingan dividendlar	14.5

Uy xo‘jaligi sektorining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini hisoblang va tahlil qiling.

19- misol. Uy xo‘jaligi sektorining pul daromadlari va xarajatlari to‘g‘risidagi shartli ma’lumotlarga asoslanib, uy xo‘jaligi sektorining asosiy schetlari-ni tuzing va tahlil qiling:

5.9-jadval

Ko‘rsatkichlar	Miqdori
1. Daromadlar va boshqa tushumlar	
1.1. ish haqi	1502.9
1.2. qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan tushum	385.0
1.3. tadbirkorlikdan olingan tushum	1155.0
1.4. nafaqa va stipendiya	330.3
1.5. bankka qo‘yilgan omonatdan olingan foizlar	96.2
1.6. dividendlar	20.8
1.7. sug‘urta qoplamasi	53.9
2. Xarajatlar	
2.1. sotib olingan oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar	308.0

2.2. sotib olingan mebellar va xo‘jalik jihozlari	61.6
2.3. sotib olingan avtomashina	46.2
2.4. sotib olingan qoramollar	30.8
2.5. tadbirkorlik uchun sotib olingan materiallar	192.5
2.6. qimmatbaho buyumlar	26.2
2.7. uy, turar-joy va maishiy xizmatlar xarajatlari	154.0
2.8. teatr, kino va muzeylarni tomosha qilish xarajatlari	23.1
2.9. daromad solig‘i	392.7
2.10. import solig‘i	38.5
2.11. bankka qo‘yilgan omonat jamg‘armasi	123.2
2.12. obligatsiyalar	15.4
2.13. olingan kreditlar uchun to‘langan foizlar	0.6
2.14. tadbirkorlik litsenziyasini olish haqi	23.1
2.15. majburiy ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari	279.5
2.16. shaxsiy xo‘jalikda ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining iste‘moli:	215.6
2.16.1. ishlab chiqarish iste‘moli	61.6
2.16.2. pirovard iste‘moli	154.0
2.17. shaxsiy uyda turganlik, shartli xizmatlar haqi	92.1
2.18. natura ko‘rinishidagi ijtimoiy transfertlar	713.0
2.19. binolarning yemirilishi, tiklash, amortizatsiya qiymati	30.8

Uy xo‘jaligi sektorining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini hisoblang va tahlil qiling.

20-misol. Uy xo‘jaligi sektorining pul daromadlari va xarajatlari to‘g‘risidagi shartli ma‘lumotlarga asoslanib, uy xo‘jaligi sektorining asosiy schetlari-ni tuzing va tahlil qiling:

5.10-jadval

Ko‘rsatkichlar	Miqdori
1. Daromadlar va boshqa tushumlar	
1.1. ish haqi	842.5
1.2. qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan tushum	215.8
1.3. tadbirkorlikdan olingan tushum	647.5
1.4. nafaqa va stipendiya	185.1
1.5. bankka qo‘yilgan omonatdan olingan foizlar	53.9
1.6. dividendlar	11.7
1.7. sug‘urta qoplamasi	30.3
2. Xarajatlar	
2.1. sotib olingan oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar	172.7
2.2. sotib olingan mebellar va xo‘jalik jihozlari	37.5
2.3. sotib olingan avtomashina	25.8
2.4. sotib olingan qoramollar	17.3

2.5. tadbirkorlik uchun sotib olingan materiallar	107.9
2.6. qimmatbaho buyumlar	14.6
2.7. uy, turar-joy va maishiy xizmatlar xarajatlari	86.4
2.8. teatr, kino va muzeylarni tomosha qilish xarajatlari	13.0
2.9. daromad solig'i	220.1
2.10. import solig'i	21.6
2.11. bankka qo'yilgan omonat jamg'armasi	69.1
2.12. obligatsiyalar sotib olish	8.6
2.13. olingan kreditlar uchun to'langan foizlar	6.5
2.14. tadbirkorlik litsenziyasini olish haqi	13.0
2.15. majburiy sug'urta to'lovlari	156.6
2.16. shaxsiy xo'jalikda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining iste'moli:	120.9
2.16.1. ishlab chiqarish iste'moli	34.5
2.16.2. pirovard iste'moli	86.4
2.17. shaxsiy uyda turganlik, shartli xizmatlar haqi	51.8
2.18. natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlar	399.6
2.19. binolarning yemirilishi, tiklash, amortizatsiya qiymati	17.3

Uy xo'jaligi sektorining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblang va tahlil qiling.

21-misol. Quyidagi uy xo'jaligi sektorining pul daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi shartli ma'lumotlarga asoslanib, uy xo'jaligi sektorining asosiy schetlarini tuzing va tahlil qiling:

5.11-jadval

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1. Daromadlar va boshqa tushumlar	
1.1. ish haqi	990.2
1.2. qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan tushum	260.3
1.3. tadbirkorlikdan olingan tushum	760.0
1.4. nafaqa va stipendiya	220.0
1.5. bankka qo'yilgan omonatdan olingan foizlar	65.2
1.6. dividendlar	15.3
1.7. sug'urta qoplamasi	40.2
2. Xarajatlar	
2.1. sotib olingan oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar	202.8
2.2. sotib olingan mebellar va xo'jalik jihozlari	42.4
2.3. sotib olingan avtomashina	30.3
2.4. sotib olingan qoramollar	20.1
2.5. tadbirkorlik uchun sotib olingan materiallar	127.3
2.6. qimmatbaho buyumlar	99.8
2.7. uy, turar-joy va maishiy xizmatlar xarajatlari	13.2

2.8. teatr, kino va muzeylarni tomosha qilish xarajatlari	17.2
2.9. daromad solig'i	255.4
2.10. import solig'i	26.0
2.11. bankka qo'yilgan omonat jamg'armasi	82.6
2.12. obligatsiyalar sotib olish	9.8
2.13. olingan kreditlar uchun to'langan foizlar	7.7
2.14. tadbirkorlik litsenziyasini olish haqi	16.2
2.15. majburiy sug'urta to'lovlari	184.2
2.16. shaxsiy xo'jalikda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining iste'moli:	141.3
2.16.1. ishlab chiqarish iste'moli	40.4
2.16.2. pirovard iste'moli	100.9
2.17. shaxsiy uyda turganlik, shartli xizmatlar haqi	60.7
2.18. natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlar	468.2
2.19. binolarning yemirilishi, tiklash amortizatsiya qiymati	21.2

Uy xo'jaligi sektorining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblang va tahlil qiling.

21- misol. Uy xo'jaligi sektorining pul daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi shartli ma'lumotlarga asoslanib, uy xo'jaligi sektorining asosiy schetla-rini tuzing va tahlil qiling.

5.12-jadval

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1. Daromadlar va boshqa tushumlar	
1.1. ish haqi	130.5
1.2. qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan tushum	390.5
1.3. tadbirkorlikdan olingan tushum	110.6
1.4. nafaqa va stipendiya	32.7
1.5. bankka qo'yilgan omonatdan olingan foizlar	6.9
1.6. dividendlar	17.8
1.7. sug'urta qoplamasi	0.3
2. Xarajatlar	
2.1. sotib olingan oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar	21.6
2.2. sotib olingan mebellar va xo'jalik jihozlari	14.3
2.3. sotib olingan avtomashina	5.2
2.4. sotib olingan qoramollar	64.8
2.5. tadbirkorlik uchun sotib olingan materiallar	8.7
2.6. qimmatbaho buyumlar	50.0
2.7. uy, turar-joy va maishiy xizmatlar xarajatlari	8.6
2.8. teatr, kino va muzeylarni tomosha qilish xarajatlari	13.0
2.9. daromad solig'i	12.7
2.10. import solig'i	4.8

2.11. bankka qo'yilgan omonat jamg'armasi	9.1
2.12. obligatsiyalar sotib olish	4.2
2.13. olingan kreditlar uchun to'langan foizlar	7.6
2.14. tadbirkorlik litsenziyasini olish haqi	2.6
2.15. majburiy sug'urta to'lovlari	7.4
2.16. shaxsiy xo'jalikda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining iste'moli:	
2.16.1. ishlab chiqarish iste'moli	20.6
2.16.2. pirovard iste'moli	40.5
2.17. shaxsiy uyda turganlik, shartli xizmatlar haqi	36.2
2.18. natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlar	10.2
2.19. binolarning yemirilishi, tiklash, amortizatsiya qiymati	9.8

Uy xo'jaligi sektorining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblang va tahlil qiling.

6-MAVZU. MILLIY DAROMAD VA MILLIY HISOBLAR TIZIMIDAGI BOSHQA DAROMAD KO'RSATKICHLARI

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Yalpi milliy daromad (YaMD) iqtisodiy atamasini tasniflash va aniqlash. Sof milliy daromad (SMD)ni turli usullarda hisoblash.

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. J. Xiksning daromad haqidagi ta'limoti.
2. Yangi MHTda J. Xiksning ta'limotiga kiritilgan aniqliklar.
3. Nominal va real daromad.
4. Daromad aqidagi ta'sir etuvchi ekstensiv va intensive omillar.
5. Milliy daromadni taqsimlash, qayta taqsimlash va oxirgi foydalanish statistikasi.
6. Yalpi milliy daromad, sof milliy mavjud daromad, yalpi milliy jamg'arish, sof milliy jamg'arish ko'rsatkichlari statistikasi.

Nazorat va muxokama uchun savollar:

1. SIM deb nimaga aytiladi va u qanday aniqlanadi?
2. YaIM dinamikasi, fizik hajmi va bahosi umumiy indeksleri qanday aniqlanadi?
3. Nominal va real YaIMlar bir-biridan nima bilan farq qiladi?
4. YaIM deflatori nima?
5. Yalpi milliy daromad deb nimaga aytiladi va u qanday aniqlanadi?

6. Sof milliy daromad deb nimaga aytiladi?
7. SMD qanday usullarda aniqlanadi?
8. YaMD nima? U qanday hisoblanadi?
9. J. Xiksning daromad haqidagi ta'limoti ta'riflang.
10. Yangi MHTda J. Xiksning ta'limotiga kiritilgan aniqliklarni sanb bering.

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Yalpi milliy daromad (YaMD) ishlab chiqarilgan mahsulotlar va bajarilgan xizmatlar qiymatlarini ifodalovchi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar tizimiga kiradi.

Milliy daromad deb mazkur mamlakat hududida joylangan barcha rezidentlarning birlamchi daromadlari va mazkur mamlakat rezidentlarining xorijiy mamlakatlardan olgan daromadlari bilan xorijiy investorlar hamda ishchilarning mazkur mamlakatdan olgan daromadlari orasidagi farqning yig'indisi tushuniladi, ya'ni, oldin qayd qilganimizdek, mazkur mamlakatda va uning tashqarisida joylashgan milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan barcha tovarlar va xizmatlar qiymatining yig'indisi yalpi milliy daromad (mahsulot) hisoblanadi. Buni quyidagi hisob-kitob asosida aniqlash mumkin.

$$YaMD = IH + R + FS + A + ES + MD \pm \Delta D$$

Bu yerda: *IH* – ish haqi va ijtimoiy ajratmalar;

R – renta, ya'ni ijara haqi;

FS – foiz stavkalari yoki foizli daromadlar;

A – amortizatsiya;

ES – biznesga solingan egri soliqlar (davlatning birlamchi daromadlari);

MD – mulkdan keladigan daromad.

Boshqacha aytganda, yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga ushbu mamlakat rezidentlarining xorijiy mamlakatlardan olgan daromadlari (*A*) bilan xorijiy investorlarga berilgan daromadlar (*B*) o'rtasidagi farqni ($A-B=\pm\Delta D$) qo'shish (yoki ayirish) natijasida yuzaga keladigan ko'rsatkichni **yalpi milliy daromad** deb aytiladi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$YaMD = YaIM \pm \Delta D$$

Masalan, YaMDni aniqlashni quyidagi misol orqali ko'rib chiqish mumkin:

Yalpi milliy daromadni aniqlash tartibi

6.1-jadval

T/r	Birlamchi daromadlar	Shartli belgilar	Mrd. so'm	Salmog'i %
1.	Yollanma ishchilarning ish haqi va ijtimoiy ajratmalar	IH	500	51,8
2.	Ijara haqi (renta)	R	40	4,1
3.	Foiz stavkasi	FS	80	8,3
4.	Iste'mol qilingan kapital qiymati (amortizatsiya)	A	100	10,4
5.	Biznesga solingan egri soliqlar (davlatning birlamchi daromadlari)	ES	82	8,5
6.	Mulkdan kelgan daromadlar (S+D+TF) Shundan: - korxonalar foydasiga soliqlar - dividentlar - korxonalarning taqsimlanmagan foydalari	MD S D TF	90 40 30 20	9,3 4,1 3,1 2,1
7.	Yakka qo'yilmalardan keladigan daromadlar (fond)	MD ¹	70	7,2
8.	Mamlakatni tashqi kapital sarflaridan olgan foyda sal'dosi (A-ning B-dan oshgan qismi)	ΔD	4	0,4
YaMD=IH+R+FS+A+ES+ MD ¹ $\pm$ ΔD		YaMD	966	100

YaMD 1993-yildan boshlab MHTga kiritilgan. U oldingi yalpi milliy mahsulot (YaMM) o'rnida ishlatilib kelinmoqda. Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, yalpi milliy daromad (YaMD) yalpi ichki mahsulotdan miqdor jihatidan ΔD ga farq qiladi, ya'ni ΔD ning musbat, manfiy yoki 0 ga teng bo'lishi tufayli u YaIM dan katta, kichik yoki unga teng bo'lishi mumkin:

$$YaMD > YaIM; YaMD < YaIM; YaMD = YaIM$$

ΔD ning musbat bo'lishi mazkur mamlakatning rivojlangan mamlakat ekanligidan dalolat beradi.

Sof milliy daromad (SMD) yangidan yaratilgan qo'shimcha mahsulotning puldagi ifodasidir, ya'ni u yangidan yaratilgan mahsulot (xizmat) larning haqiqiy hajmini belgilaydi. Sof milliy daromadni ikki usul bilan hisoblash mumkin:

Birinchi usul. Mamlakat yalpi milliy daromadidan (YaMD) iste'mol qilingan asosiy kapital qiymatini, ya'ni amortizatsiyasi (A)ni chegirib tashlash orqali SMD hisoblanadi:

$$SMD = YaMD - A = 1046 - 100 = 946 \text{ mlrd. so'm.}$$

Demak, SMD 946 mlrd.so'mni tashkil qiladi.

Ikkinchi usul. Mamlakat sof ichki mahsulotiga (SIM) rezidentlarining xorijdan olgan daromadlari xorijiy investorlarga berilgan daromadlardan ko'p bo'lsa, orasidagi farqni qo'shish orqali SMD aniqlanadi:

$$SMD = SIM + \Delta D$$

SMD amalda SIMdan ΔD ga farq qiladi. ΔD ning musbat, manfiy yoki 0 ga teng bo'lishiga qarab, u SIM dan katta, kichik yoki teng bo'lishi mumkin.

SMD milliy hisoblar tizimida (MXT) quyidagi tengliklarga ega:
Ishlab chiqarish schyotida:

$$SMD = YaMD - A.$$

Daromadlarning shakllanishi schyotida:

$$SMD = MH + IChS + YaF.$$

Bu yerda: IChS – ishlab chiqarishga sof soliqlar.

Daromadlardan foydalanish schyotida: $SMD = PI + J$

Bunda: J – jamg'arma;

PI – pirovard iste'mol.

Sof milliy daromadning asosiy qismi (PI) jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirish uchun sarflansa, ikkinchi qismi (J) ishlab chiqarishni yangidan barpo etish uchun sarf bo'ladi.

J. Xiksning daromad haqidagi ta'limoti Bozor munosabatlari amal qilayotgan iqtisodiyotda daromad kategoriyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni ikki miqyosda ko'rib chiqish mumkin: makromiqyosa va mikromiqyosda. Mikromiqyosdagi daromadlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy jarayonlarda qatnashishi natijasida olgan

ixtiyoriy daromadlardan iborat bo'lib, ularning hisobi buxgalteriya hisobida to'liq aks ettiriladi. Makromiqtosdagi daromadlar buxgalteriya hisobidagi daromadlarga mos kelmaydi va ularni mikromiqtosdagi daromadlarni to'g'ridan-to'g'ri qo'shish orqali hosil qilib bo'lmaydi. MHT-93 da qo'llaniladigan daromad kontseptsiyasi ingliz olimi Jon Xiksning daromad ta'rifiga asoslanadi. Uning "Qiymat va kapital" asarida keltirilgan daromad ta'rifining asosiy mohiyati quyidagicha: "Ma'lum davr boshida mavjud bo'lgan kapitalning qiymatini davr ohirida saqlab qolgan holda iste'mol uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan barcha mablag'larning maksimal yig'indisi – shu davrda hosil bo'lgan daromaddir". Ya'ni aholining qashshoqlashmasdan yoki qarzg botmagan holda iste'moli va jamg'arishi uchun sarflanadigan mablag'lardir. Jon Xiks nazariy tahlilga daromadning ikki kategoriyasini kiritadi, ya'ni kutilgan tushumlar (ex-ante) va haqiqiy tushumlar (ex-post). Uning fikriga ko'ra makroiqtisodiy tahlilda daromadlarning 1-kategoriyasidan foydalanish zarur, chunki kutilgan tushumlar real daromadlarni aks ettirib, haqiqiy tushumlar dan inflyatsiya va boshqa omillar natijasida aktivlar qiymatining o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi. Jon Xiksning daromadlar kontseptsiyasidan bir necha xulosalar kelib chiqadi. Birinchidan, har qanday pul tushumlari daromad bo'la olmaydi. Albatta mahsulot sotishdan tushgan tushumning ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash uchun sarflangan qismini daromad deb bo'lmaydi. J.Xiks kontseptsiyasining daromad ta'rifida faqat takror ishlab chiqariladigan kapitalni hisobga oladi. Biroq, daromadning shakllanishda takror ishlab chiqarilmaydigan kapitalni ham hisobga olish zarur (er, tabiiy resurslar va hokazo). Masalan, biror kishi sotilgan uydan olingan mablag'ni bankka qo'yib, shu mablag'dan tushgan foiz hisobiga yashyotgan bo'lsa, uyni sotishdan olingan mablag' daromad bo'la olmaydi, chunki bu holda aktivlar shaklining o'zgarishi sodir bo'ladi, ya'ni aktiv moddiy shakldan moliyaviy shaklga o'tadi. Bankdan olingan foizlar esa, aynan daromad hisoblanadi. Agar sotilgan uydan olingan mablag'ning bir qismi iste'mol tovarlarini sotib olishga sarflansa, bu holda daromad nolga teng bo'ladi va jamg'arma shu sarf etilgan qismga kamadi. Agar iste'mol tovarlarini sotib olish uchun qarz yoki kredit olingan bo'lsa, bu holda ham daromad nol darajada qayd etiladi. Ikkinchidan, naqd pullarning ko'payishi, yoki bankdagi depozitlar va boshqa moliyaviy aktivlarning ko'payishini jamg'armaning ko'payishiga tenglashtirib bo'lmaydi, chunki moliyaviy aktivlarning ko'payishi, yoki aktiv shaklining 229 o'zgarishi sababli ro'y berishi mumkin. Masalan, naqd

pulning ko'payishi aktsiyalarni sotish evaziga yoki qarz olish evaziga ko'payishi mumkin, yoki jamg'armaning bir qismi moddiy aktivlarni sotib olishga sarflanishi mumkin. Bu holda ixtiyordagi daromad tarkibida pirovard iste'mol xarajatlari hajmining ortishi va jamg'arma hajmining kamayishi sodir bo'ladi. Uchinchidan, tasodifiy sabablar ta'sirida yoki tashqi omillar ta'sirida kapital qiymatining ortishi daromad bo'lib hisoblanmaydi, masalan, inflyatsiya natijasida aktivlar qiymatining ortishi, metro qurilganligi sababli uning yonida joylashgan uy bahosining qimmatlashishi va boshqalar. Demak, har qanday moddiy aktivlarning moliyaviy aktivlarga aylanishi, moliyaviy aktivlar shaklini o'zgarishi, aktivlar qiymatining inflyatsiya natijasida o'zgarishi daromad bo'lib hisoblanmaydi.

MHTdagi daromad ko'rsatkichlari MHTda J.Xiks kontseptsiyasiga asoslanuvchi, taqsimlash jarayonining barcha jabhalarini xarakterlovchi daromad ko'rsatkichlari tizimi yaratilgan. Bu tizim quyidagi daromad ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi:

- birlamchi daromadlar
 - joriy transfertlar
 - ixtiyordagi daromadlar
 - natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlar
 - tuzatish kiritilgan ixtiyordagi daromad
 - milliy daromad (yalpi va sof)
 - milliy ixtiyordagi daromad (yalpi va sof)
- Birlamchi daromad bu - institutsion birliklarning boshqa birliklarning iqtisodiy faoliyatida bevosita va bilvosita (moliyaviy va ishlab chiqarilmagan aktivlari bilan) qatnashganliklari natijasida ega bo'ladigan daromadlaridir. Birliklarning iqtisodiy faoliyatida bevosita qatnashishlari quyidagi belgi va sifatlar bilan xarakterlanadi: ishlab chiqarishni tashkil qiluvchi va yurituvchi sifatida, yollanma mehnatchi sifatida, iqtisodiy faoliyat yuritish uchun xuquqiy bazani yaratuvchi va infratuzilmani shakllantiruvchi sifatida. Birliklarning iqtisodiy faoliyatida bilvosita qatnashishlari quyidagi belgi va sifatlar bilan xarakterlanadi: o'z aktivlari bilan ishlab chiqaruvchi birlikning ustav kapitalini shakllantirishda qatnashish, moliya mablag'larini kelishilgan muddatga berish, asosiy vositalarni moliyaviy lizing asosida berish, birlikning aktsiyalariga va qimmatli qog'ozlariga ega bo'lish, ishlab chiqarilmagan aktivlarni berish va sug'urta polislariga ega bo'lish. Birlamchi daromadlar tarkibiga mehnat xaqi, sof soliqlar, foyda, aralash daromad va mulk uchun daromad kiradi. Mehnat

haqi uy xo'jaligi sektorining birlamchi daromadi hisoblanadi. Mehnat haqi ko'rsatkichi bu schyotda mamlakatdagi barcha rezident birliklarining mamlakat iqtisodiy hududida va tashqarisida ishlab chiqarishda ko'rsatgan faoliyatlari natijasida olgan mehnat xaqklarining (ish haqi, mukofotlar, 230 qo'shimchalar soliqlar, majburiy sug'urta badallari va fondlarga to'lovlar bilan) yig'indisidan iborat. Sof soliqlar davlat boshqaruv idoralari sektorining birlamchi daromadi hisoblanadi. Sof soliqlar ikki qismdan: soliqlar va subsidiyalardan iborat. Soliqlar institutsion birliklar tomonidan davlat birliklariga majburiy ravishda to'lanadigan to'lovlardir. Subsidiyalar esa davlat tomonidan institutsion birliklarga ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash maqsadida beriladigan to'lovlardan iborat. Subsidiyalar o'z xarakteriga ko'ra mamlakatning (davlat boshqaruv idoralari sektorining) birlamchi daromadlari hisobidan boshqa sektorlarga berilgani uchun minus ishora bilan yoziladi. Soliqlar va subsidiyalar ayirmasi odatda sof soliqlar deb yuritiladi va u davlat boshqaruv idoralari sektorining birlamchi daromadi hisoblanadi. Shuni aytish joizki, hamma soliqlar ham birlamchi daromad bo'lavermaydi. Jumladan, daromad va mulk soliqlari (foydadan soliq, daromad solig'i, ishlab chiqarishda foydalanilmagan aktivlardan mulk solig'i), kapital soliqlar (merosga qolgan, sovg'aga berilgan mulkni rasmiylashtirishda to'lanadigan soliq) (davlat tashkilotlariga to'lanishiga qaramay) birlamchi daromad sifatida qaralmaydi. Ular qayta taqsimlash operatsiyalari (joriy yoki kapital transfert) sifatida qayd etiladi. Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruv idoralarining birlamchi daromadi tarkibiga soliq turlaridan faqat ishlab chiqarish va import uchun soliqlar plyus ishora bilan subsidiyalar minus ishora bilan kiradi. Ishlab chiqarish va import uchun soliq (subsidiya)lar soliqlar va subsidiyalar tasnifiga asosan ikki qismga bo'linadi: a. mahsulot va import uchun soliq(subsidiya)lar; shu jumladan: - mahsulot uchun soliqlar (subsidiyalar) - import uchun soliqlar (subsidiyalar) b. bevosita ishlab chiqarish uchun soliq(subsidiya)lar. Mahsulot uchun soliqlar rezident birliklar tovar yoki xizmatni ishlab chiqarganda va uni sotganda mahsulot birligiga nisbatan bevosita va yashirin to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan emas) soliqlar miqdoridan iborat. Ular tarkibiga qo'shilgan qiymat, aksiz, mahsulot narhiga ustama va qo'shimchalar va yashirin soliqlar kiradi. Mahsulot uchun subsidiyalar rezident birliklariga davlat byudjeti tomonidan tovar yoki xizmatni ishlab chiqarganda yoki uni sotganda mahsulot birligiga nisbatan bevosita va yashirin to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan emas) subsidiyalar miqdoridan iborat. Ular

tarkibiga bevosita davlat tomonidan berilayotgan va yashirin ko'inishdagi subsidiyalar kiradi. Ularni mahsulot va import uchun subsidiyalar sifatida guruhlash mumkin. Ularga misol tariqasida, mahsulotni sotganda yoki import qilganda korxonaga davlat tomonidan beriladigan mablag'larni keltirish mumkin. Bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar rezident institutsion birliklarning ishlab chiqarish faktorlariga to'laydigan to'lovlaridan iborat. Ular tarkibiga er 231 solig'i, ishlab chiqarishda foydalanilgan mulk(asosiy vositalar)solig'i, mehnat resurslariga to'lovlar, foydali qazilma boyliklarini topish maqsadida bajariladigan geologiya-qidiruv ishlari uchun ajratmalar, yakka tartibda faoliyat ko'rsatish uchun patent to'lovlari, obodonlashtirish uchun soliqlar, qurilish ob'ektlari egalaridan olinadigan soliq, import va davlat bojlari, bozorlardan yig'imlar, transport solig'i, o'rmon solig'i va boshqalar kiradi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, ayrim soliqlar va subsidiyalar amaliyotda operatsiya sifatida yaqqol ko'inishda bo'lmasligi mumkin, yani ular soliq tashkilotlarida va ishlab chiqaruvchi birliklar hisoblarida qayd etilmagan bo'lishi mumkin. Masalan, paxta tolasi markazlashgan tarzda davlatga tegishli savdo kompaniyalari orqali sotiladi. Bunda paxta tolasini savdo kompaniyalariga etib kelgandagi tola qiymati(narhi) eksportga sotgandagi qiymatdan kam yoki ko'p bo'lishi mumkin. Narhlardagi farq asosida hosil bo'lgan qiymat eksport narhi yuqori bo'lsa musbat qoldiq hosil bo'ladi, aks holda manfiy qoldiq hosil bo'ladi. MHT metodologiyasiga asosan musbat qoldiq mahsulot uchun soliq olingan, manfiy qoldiq esa - mahsulot uchun subsidiya berilgan deb talqin qilinadi. Chunki bu qoldiqlar davlat byudjetiga borib qo'shiladi yoki hosil bo'lgan zarar byudjetdan qoplanadi. Bunday holatlar yuzaga kelganda milliy hisobchilar tegishli schyotlarda o'zgartirishlar kiritishlari lozim. Sof foyda nomoliya, moliya, davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning birlamchi daromadi hisoblanadi. MHT metodologiyasiga asosan birlamchi daromad sof holda hisoblanishi tavsiya etiladi. Lyokin, amaliyotda asosiy kapitalning iste'moli ko'rsatkichini hisoblash qiyin bo'lgani sababli, sof foyda ko'rsatkichi bilan ACI birga qo'shib hisoblanadi. Hosil bo'lgan ko'rsatkich yalpi foyda deb yuritiladi. Bu ko'rsatkich, yuqorida zikr etilgan sektorlarning bevosita ishlab chiqarish faoliyatlari natijasida ega bo'lgan daromadlaridan iborat. Nazariy jixatdan qaraganda, uning qiymati daromadlarni shakllanishi schyotidagi saldo ko'rsatkichiga teng bo'ladi. Aralash daromad uy xo'jaliklariga

tegishli nokorporativ korxonalarning birlamchi daromadi hisoblanadi. Ko'rsatkichning "aralash daromad" deb atalishiga asosiy sabab, bu ko'rsatkich tarkibida mehnat xaqi va yalpi foyda qo'shilib ketgan bo'ladi yoki ularni alohida hisoblash amaliy jixatdan qiyin bo'ladi. Masalan, uy xo'jaligiga qarashli ustaxonada yollangan ishchilar bilan birgalikda uy xo'jaligi a'zolari faoliyat ko'rsatadilar. Yollangan ishchilar ish haqi oladilar, uy xo'jaligi a'zolari esa odatda ish haqi olmaydi. Natijada, bunday korxonalarda foyda ko'rsatkichi tarkibida uy xo'jaligi a'zolari tomonidan olinmagan ish haqi yotga bo'ladi va uni ajratishning zarurati bo'lmaydi. Shu sababli, bunday korxonalarning foyda ko'rsatkichi aralash daromad deb yuritiladi. Aralash daromadni MHT metodolgiyasiga ko'ra sof usulda hisoblash tavsiya etiladi. Lyokin, amaliyotda uy xo'jaliklari uchun asosiy kapitalning iste'moli ko'rsatkichini hisoblash qiyin bo'lgani sababli, aralash daromad tarkibida ACI yotgan bo'ladi. Shu sababli, bu ko'rsatkichni yalpi aralash daromad deb atash metodologik jixatdan to'g'ri bo'ladi. Bu ko'rsatkich, uy xo'jaligi sektorlarining bevosita ishlab chiqarish faoliyatlari natijasida ega bo'lgan daromadlaridan iborat. 232 Nazariy jixatdan qaraganda, uning qiymati uy xo'jaligi sektorining daromadlarni shakllanishi schyotidagi saldo ko'rsatkichiga teng bo'ladi. Mulk uchun daromad deganda, - institutsion birliklarning boshqa birliklar iqtisodiy faoliyatida o'zlariga tegishli bo'lgan moliyaviy va ishlab chiqarilmagan aktivlari bilan qatnashganliklari natijasida ega bo'ladigan daromadlarini tushunamiz. Birliklarning iqtisodiy faoliyatida moliyaviy va ishlab chiqarilmagan aktivlari bilan qatnashishlari quyidagi ko'rinishlarda nomoyon bo'lishi mumkin: o'z aktivlari bilan ishlab chiqaruvchi birlikning ustav kapitalini shakllantirishda qatnashish, moliya mablag'larini kelishilgan muddatga berish, asosiy vositalarni moliyaviy lizing asosida berish, boshqa birlikning aktsiyalariga va qimmatli qog'ozlariga ega bo'lish, ishlab chiqarilmagan aktivlarni berish, sug'urta polislariga ega bo'lish. Bu faoliyat natijasida birliklar quyidagi ko'rinishdagi daromadlarga ega bo'lishlari mumkin: moliyaviy aktivlar berganliklari uchun foiz to'lovlari, to'g'ri investitsiyalar va aktsiyalar uchun dividendlar, foydadagi ulushlar, renta, sug'urta polisidan daromad. Mulk uchun daromadlar oldi-berdi operatsiyalari mamlakat rezidentlari o'rtasida va rezidentlar bilan norezidentlar o'rtasida bo'lishi mumkin. Rezident birliklar bir-birlariga bir vaqtning o'zida mulk uchun daromad to'laganlaganliklari va olganliklari uchun mamlakat miqyosidagi hisoblarda daromadlar olingani to'langaniga teng bo'ladi.

Shuning uchun, ichki iqtisodiyot sektorlarining mulk uchun daromadlar saldosi nolga teng va mamlakat miqyosidagi hisoblarda ularni qayd etish zarurati qolmaydi. Transfertlar - bir tomonlama iqtisodiy operatsiyalardan iborat. Bu operatsiyalar orqali bir institutsion birlikning boshqa institutsion birliklarga tovar va xizmatlarni, moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni, egalik huquqini bepul berish jarayonlari aks ettiriladi. Transfertlar pul va natura holatida berilishi mumkin. Pul holatidagi transfertlar bir birlikning ikkinchi birlikka naqd pul yoki hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan bergan pul miqdoridan iborat. Natura holatidagi transfertlar deganda, bir birlikning ikkinchi birlikka evaziga hech narsa olmay, tovar va aktivlarni berish, hamda xizmatlarni ko'rsatish jarayoni tushuniladi. Natura holatidagi transfertlar olingan(berilgan) tovarlar, aktivlar va ko'rsatilgan xizmatlarning shu davrdagi bozor baholaridagi miqdorida qayd qilinadi. Pul va natura holatidagi transfertlar joriy va kapital xarakterda bo'lishi mumkin. Ularni bir biridan farqlash juda muhim. Chunki, joriy transfertlar pul holidagi daromadlarni qayta taqsimlash schyotida, kapital transfertlar esa kapital xarajatlar schyotida qayd qilinadi. Joriy transfertlar qatoriga quyidagilar kiradi: daromad va mulk uchun joriy soliqlar; sotsial sug'urta ajratmalari; sotsial to'lovlar; sug'urta mukofotlari va qoplamalari; turli qayta taqsimlash to'lovlari(jarimalar, nafaqalar, insonparvarlik yordamlari, a'zolik badallari, xayr-ehson va x.k.). 233 Iqtisodiyot sektorlarining olgan va bergan joriy transfertlar miqdorlari har doim ham bir-biriga teng bo'lavermaydi. Chunki, joriy transfertlar operatsiyalarining bir qismi mamlakat ichki sektorlari (rezident) va norezident birliklar o'rtasida sodir bo'ladi. Joriy transfertlar olingani va berilgani o'rtasidagi farqni birlamchi daromadlar saldosi qo'shib ixtiyordagi daromad ko'rsatkichiga ega bo'lamiz.

Milliy daromadni taqsimlash, qayta taqsimlash va oxirgi foydalanish statistikasi. Milliy daromad mamlakat rezident birliklarining hisobot davrida yaratgan daromadlarining yig'indisidan iborat. Bu ko'rsatkich mamlakat miqyosida hisoblanganligi uchun uni odatda agregat ko'rsatkich deb yuritiladi. MHTda daromadni hisoblash usuli sifatida J.Xiksning daromadni hisoblash kontseptsiyasi qabul qilingan. Unga ko'ra, daromadni sof usulda hisoblash tavsiya etiladi. Bunga ko'ra, daromad tarkibiga asosiy kapitalning iste'moli kiritilmaydi. Sof usulda hisoblangan milliy daromad sof milliy daromad (SMD), yalpi usulda hisoblangan milliy daromad yalpi milliy daromad (YMD) deb ataladi. Rezident birliklarning chet eldan olgan va

norezidentlarga bergan birlamchi daromadlarining farqi mamlakatning chet eldan olgan sof daromadi (birlamchi daromadlar saldos (CHEBDS)), deb ataladi. Bu ko'rsatkich musbat yoki manfiy miqdor bo'lishi mumkin. Milliy daromad agregati mamlakatdagi barcha rezident birliklarning olgan birlamchi daromadlarining yig'indisidan iborat bo'lib, bu agregat yalpi va sof usullarda, ya'ni asosiy kapitalning iste'moli ko'rsatkichi qo'shilgan yoki qo'shilmagan holda hisoblash mumkin. Yalpi ichki mahsulot (YAIM) va YAMD ko'rsatkichlari bir-biridan rezident birliklarning tashqi dunyodan olgan va bergan birlamchi daromadlarining saldosiga farq qiladi. Bu holatni bunday ifodalash mumkin: $YAMD = YAIM + CHEBDS$ yoki $SMD = SIS + CHEBDS$. Odatda rivojlanayotgan mamlakatlarning YAMD ko'rsatkichi YAIM ko'rsatkichidan kichik bo'ladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda esa, YAMD YAIMga nisbatan ko'proq bo'lishi mumkin. Chunki, rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy aktivlar kiritib, shu mamlakatning YAIMni yaratishda qatnashadilar va birlamchi daromadlar oladilar. Bu daromadlar norezident mamlakatning chet eldan olgan sof daromadini ko'paytiradi. Natijada, norezident mamlakatning YAMD ko'rsatkichi yalpi ichki mahsulotga nisbatan kattaroq bo'ladi. Mamlakat miqyosida barcha iqtisodiyot sektorlarining ixtiyordagi daromadlari yig'indisi milliy ixtiyordagi daromad (MID) deyiladi. Bu YAIM va YAMD agregatlari kabi muhim agregatlardan hisoblanadi. Bu agregat ham yalpi (YAMID) va sof (SMID) usullarda hisoblanadi. Tashqi dunyodan olingan va tashqi dunyoga to'langan joriy transfertlar o'rtasidagi farq tashqi dunyo joriy 234 transfertlar saldos (TDJTS) deyiladi. U musbat yoki manfiy bo'lishi mumkin. YAMID va YAMD o'rtasida quyidagi munosabat o'rinli: $YAMID = YAMD + TDJTS$. Bunga ko'ra, tashqi dunyodan olingan joriy transfertlar berilganiga nisbatan qancha ko'p bo'lsa, mamlakatning ixtiyordagi daromadi shuncha ko'p bo'ladi. Davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlariga kiruvchi birliklar o'zlariga tegishli ixtiyordagi daromadlarining bir qismini uy xo'jaliklarining yakuniy iste'moli uchun sarflaydilar. Bu xizmatlar odatda individual (kollektiv emas) tarzda ko'rsatiladi. U pul yoki natura (tovar yoki xizmat) ko'rinishida bo'lishi mumkin. Bu transfertlar aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy himoyalash va yordam maqsadida amalga oshiriladi va natura holidagi sotsial transfertlar deb ataladi. Natura holidagi sotsial transfertlar davlat byudjeti va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar mablag'lari

hisobiga uy xo'jaliklariga bepul ko'rsatiladigan meditsina va o'quv xizmatlaridan, sotsial, diniy, siyosiy va madaniy xizmatlardan, turli xil tovarlarni (dori-darmonlar, nogironlar aravachalari va avtomobillari va x.k.) bepul berishdan iborat. Natura holidagi transfertlarning qayta taqsimoti hamma iqtisodiyot sektorlarida ham bo'lavermaydi. Bu transfertlarning oluvchisi uy xo'jaligi sektoridan, ya'ni aholidan iborat. Sotsial transfertlarni beruvchilar esa, davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlaridan iborat. Shuni aytish joizki, mamlakat miqyosida olingan va berilgan sotsial transfertlarning miqdori bir-biriga teng bo'ladi. Natijada, ixtiyordagi daromad tuzatilgan ixtiyordagi daromadga teng bo'ladi.

7-MAVZU. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR STATISTIKASI.

Amaliy mashg'ulot vazifasi: Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasi (TIAS) mazmun-mohiyatini yoritish. Tashqi savdo statistikasining vazifalarini izohlash. Tashqi savdo statistikasining xarakterli tomonini tahlil qilish. Tashqi savdo statistikasida tovarlarni hisobga olish tizimlari haqida ma'lumot berish. Xalqaro xizmatlarning asosiy turlarini ifodalash.

Xalqaro savdo operatsiyalarini hisobga olishda qo'llaniladigan qiymat kategoriyalari, o'lchov birliklari haqida ma'lumot berish. Jahon bo'yicha tovar aylanishi bo'yicha chuqur tasavvurga ega bo'lish.

Jahon savdo hisoblarida qo'llaniladigan tovar tasniflari va nomenklaturalari bo'yicha ma'lumot berish.

Xalqaro kapital migratsiyasi, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi tushunchalarini izohlash.

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasi (TIAS) mohiyati.
2. Tashqi savdo statistikasining vazifalari.
3. Tashqi savdo statistikasining xarakterli tomonlari.
4. Tashqi savdo statistikasida tovarlarni hisobga olish tizimlari.
5. Xalqaro xizmatlarning asosiy turlari.
6. Xalqaro savdo operatsiyalarini hisobga olishda qo'llaniladigan qiymat kategoriyalari, o'lchov birliklari.
7. Jahon bo'yicha tovar aylanishi.

8. Jahon savdo hisoblarida qo'llaniladigan tovar tasniflari va nomenklaturalari.
9. Xalqaro kapital migratsiyasi, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi.

Nazorat va muxokama uchun savollar:

1. Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasi (TIAS) mohiyatini yoriting?
2. Tashqi savdo statistikasining vazifalari nimalardan iborat?
3. Tashqi savdo statistikasining xarakterli tomonlari sanab bering?
4. Tashqi savdo statistikasida tovarlarni qanday hisobga olish tizimlari mavjud.
5. Xalqaro xizmatlarning asosiy turlari0.
6. Xalqaro savdo operatsiyalarini hisobga olishda qo'llaniladigan qiymat kategoriyalari, o'lchov birliklari.
7. Jahon bo'yicha tovar aylanishi.
8. Jahon savdo hisoblarida qo'llaniladigan tovar tasniflari va nomenklaturalari.
9. Xalqaro kapital migratsiyasi, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi.

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Tashqi iqtisodiy aloqa turli mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar bo'lib, iqtisodiy foyda ko'rish maqsadida olib boriladigan faoliyat natijasidir. Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasi (TIAS)da tovar va xizmatlar eksporti va importi, xalqaro moliyaviy operatsiyalar hamda shartnoma asosida xorijdagi ishlab chiqarish faoliyatlari, kapital migratsiyasi, ishchi kuchi migratsiyasi va h.k.lar qamrab olinadi.

Tashqi savdo eksport-import operatsiyalaridan tashkil topib, ularda tovar massalarining harakati, bojxona chegaralari orqali xizmatlar bilan bog'liq mamlakat resurslarini oshiradigan (import) yoki kamaytiradigan (eksport) operatsiyalari sodir bo'ladi.

Tashqi savdo statistikasining vazifalari quyidagilardan iborat: tashqi savdoning hajmi, uning tarkibi va dinamikasini o'rganish; tashqi savdoning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish; turli mamlakatlar tashqi savdosini taqqoslash va o'rganish.

Tashqi savdo xalqaro statistikasining ikkita xarakterli tomoni mavjud:

1. Statistika faqat bojxona chegaralarini kesib o'tgan tovar massasi va xizmatlarni hisobga oladi.

2. Statistika bo'xona chegaralaridan o'tgan tijorat va notijorat maqsadidagi tovar massalarining har qanday harakatini hisobga oladi.

Tashqi savdo statistikasida tovarlarni hisobga olishning ikkita tizimi mavjud:

- ba'zi tovar turlari uchun maxsus hisobga olish tizimi;
- barcha tovarlarga taalluqli umumiy tizim.

Xizmatlarning xalqaro savdosi ularning ishlab chiqarish jarayoni bilan uzviy bog'langan.

Xalqaro xizmatlarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi: transport xizmatlari, sayohat (turistik xizmatlar), aloqa xizmatlari, qurilish xizmatlari, sug'urta xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, kompyuter va axborot xizmatlari, lizing haqlari, boshqa ishbilarmonlik xizmatlari, jismoniy shaxslarga madaniyat va dam olish, maorif, tibbiyot sohasidagi xizmatlar, davlat xizmatlari va yuqorida qayd qilinmagan boshqa xizmatlar.

Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasida halqaro savdo operatsiyalarini hisobga olishda quyidagi qiymat kategoriyalari qo'llaniladi:

1. Tashqi savdo aylanmasi – eksport va import qiymatlari yig'indisi.
2. Savdo balansi saldosi – eksport va import qiymatlari farqi. U aktiv yoki passiv bo'lishi mumkin.
3. Qoplash koeffitsiyenti – eksport va import qiymatlari nisbati.
4. Savdo balansi – mamlakat tashqi savdo statistikasi ma'lumotlari bo'yicha ma'lum davr uchun (odatda, bir yil) eksport va import qiymatlari nisbati. Savdo balansi maqbul aktiv va passiv bo'lishi mumkin.
5. To'lov balansi – ma'lum mamlakatning bir yil davomidagi xorijga to'lovlari va xorijdan tushumlar nisbati. U tushum va xarajatlardan tashkil topadi.

Tashqi savdoda muomalada bo'lgan tovarlar miqdorini hisobga olish, ya'ni savdo operatsiyalarida quyidagi o'lchov birliklari hisobga olinadi: 1. O'ziga xos o'lchov birliklari. 2. Og'irligi bo'yicha:

brutto (tovar iste'molchiga idishi bilan birga o'tganda); netto; netto-legal = brutto og'irligi – tara-tarif ma'lumotnomalariga ko'ra idish va o'rama uchun chegirma. 3. Ularga sarflangan moliyaviy mablag'lar bo'yicha.

Jahon bo'yicha tovar aylanishi – chegaralarni kesib o'tadigan barcha tovar eksport va importlari qiymatlarining yig'indisiga teng.

Jahon savdo saldosi jahon eksporti va jahon importi qiymatlarining farqi sifatida aniqlanadi. Ushbu saldo jahon eksporti FOB va jahon importi SIF narxlarida hisoblanganligi uchun doimo salbiy bo'ladi. FOB narxlarida hisoblangan tovar qiymati doim SIF narxlarida hisoblangan tovar qiymatidan kichik bo'ladi. ($FIB < SIF$). Transport,

sugʻurta va boshqa xizmatlarga narxlarning oshib borishi bilan ular orasidagi farq kattalashib boraveradi. Agar bundan 20-30 yil ilgari ular orasidagi farq 2-3%ni tashkil qilgan boʻlsa, hozir farq 6-8%ni tashkil qilmoqda.

Xalqaro savdo hisobi amaliyotida tashqi savdo tovar massalarini maʼlum belgilarga koʻra guruhlashlardan foydalaniladi.

XX asr oxirlaridan boshlab jahon savdo hisoblarida quyidagi tovar tasniflari va nomenklaturalari keng qoʻllanila boshlandi:

1. BMTning Xalqaro savdo andoza tasnifi (XSAT).
2. Bojxona hamkorligi boʻyicha nomenklatura Kengashi (Sobiq Bryussel Kengashi) (BHBKN).
3. Yagona tovar nomenklaturasi (YATN – sobiq Oʻzaro iqtisodiy yordam kengashiga aʼzo mamlakatlarda qoʻllanilgan).

Yuqorida sanab oʻtilgan har bir tasnifni tuzishning oʻziga xos tamoyillari mavjud.

Tashqi savdo statistikasidan indekslar tovar aylanishi dinamikasini, eksport va importning fizik hajmini, bahoning oʻzgarishini, tashqi savdo strukturasini va ayrim olingan omillarni tovar aylanishiga taʼsirini oʻrganish uchun foydalaniladi.

Tashqi savdo statistikasi koʻrsatkichlar tizimi yordamida ayrim mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish darajasi oʻrganiladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar ishlab chiqarish kooperatsiyasi, kapital migratsiyasi, ishchi kuchi migratsiyasi shakllarida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish migratsiyasi deganda ikki va undan ortiq mamlakatlarning maʼlum bir ishni bajarishi yoki qandaydir bir pirovard mahsulotni ishlab chiqarish boʻyicha hamkorlikdagi faoliyati tushuniladi va ular chet el firmalarining salmogʻi, chet el firmalari bilan hamkorlikda faoliyat yuritayotgan qoʻshma korxonalar soni, qoʻshma korxonalarning ishlab chiqarilgan mahsulotdagi salmogʻi koʻrsatkichlari bilan tavsiflanadi.

Xalqaro kapital migratsiyasi deganda koʻproq foyda olish maqsadida kapitalni bir mamlakatdan boshqasiga (hususiy kapitalni, davlat kapitalini) chiqarish tushuniladi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi deganda mehnatga layoqatli aholining ish qidirib, bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga koʻchib yurishi tushuniladi.

1-misol. Quyidagi maʼlumotlardan foydalanib “A” mamlakat valyutasining “V” mamlakat valyutasiga nisbatan xarid quvvatini aniqlang:

7.1-jadval

Ko'rsatkichlar	Milliy valyutadagi qiymati		A/V mamlakatlararo xarid qilish qobiliyati nisbatlari
	"A" mamlakat	"V" mamlakat	
Uy xo'jaliklarining pirovard iste'mol xarajatlari	16200	3370	4,4
Davlat idoralarining joriy iste'moli	3650	860	4,2
Asosiy kapitalning Yalpi shakllanishi	5320	1330	3,8
Moddiy aylanma mablag'lar zaxiralarining o'zgarishi	+270	+35	6,5
Tashqi savdo saldosi	+185	+25	5,3

Yechish:

"A" mamlakat YAIM tarkibi bo'yicha paritet:

$(16200 \cdot 4,4 + 3650 \cdot 4,2 + 5320 \cdot 3,8 + 270 \cdot 6,5 + 185 \cdot 5,3):$

$(16200 + 3650 + 5320 + 270 + 185) = 109561,5 : 25625 = 4,275$

"V" mamlakat YAIM tarkibi bo'yicha paritet:

$(3370 \cdot 4,4 + 860 \cdot 4,2 + 1330 \cdot 3,8 + 35 \cdot 6,5 + 25 \cdot 5,3):$

$(3370 + 860 + 1330 + 35 + 25) = 23854 : 5620 = 4,244$

Fisher formulasi bo'yicha:

$(\text{"A" mamlakat YAIM tarkibi bo'yicha paritet} \cdot \text{"V" mamlakat YAIM tarkibi bo'yicha paritet})^{(1/2)} = (4,275 \cdot 4,244)^{(1/2)} = 4,259$

2-misol. "A" va "V" mamlakatlarning YAIM hajmlarini quyidagi ma'lu-motlar yordamida taqqoslang:

7.2-jadval

Ko'rsatkichlar	Milliy valyutadagi qiymati		A/V mamlakatlararo xarid qilish qobiliyati nisbatlari
	"A" mamlakat	"V" mamlakat	
Uy xo'jaliklarining pirovard iste'mol xarajatlari	16200	3370	4,4
Davlat idoralarining joriy iste'moli	3650	860	4,2
Asosiy kapitalning Yalpi shakllanishi	5320	1330	3,8
Moddiy aylanma mablag'lar zaxiralarining o'zgarishi	+270	+35	6,5
Tashqi savdo saldosi	+185	+25	5,3

$$YAIM_A:YAIM_V=(16200+3650+5320+270+185):$$

$$(3370*4,4+860*4,2+1330*3,8+35*6,5+25*5,3)=25625:23854=1,074$$

Xulosa: agar ikkala mamlakat YAIMlarini bir xil valyutaga aylantirsak, “A” mamlakat YAIM “V” mamlakat YAIMdan 7,4%ga katta ekanligi aniqlanadi.

3-misol.

7.3-jadval

Ko‘rsatkichlar	Bazis davri	Joriy davr
Qayta tiklanmaydigan moddiy ne‘matlar	400	450
Moliyaviy aktivlar	830	895
Moddiy aylanma mablag‘larning zaxiralari	166	204
Nomoddiy aktivlar	107	115
Uy-joy binolari	906	912
Boshqa doimiy kapital	638	704
Moliyaviy passivlar	796	804

Quyidagi ko‘rsatkichlarning dinamikalari aniqlansin:

1. Sof moliyaviy aktivlarning.
2. Barcha aktivlar sof qiymatining.
3. Qayta tiklanadigan moddiy aktivlarning.
4. Doimiy kapital uchun tarkibiy o‘zgarishlar koeffitsiyentini.

Yechish:

1. Sof moliyaviy aktivlar=Moliyaviy aktivlar – Moliyaviy passivlar

Bazis davr: $830-796=34$;

Joriy davr: $895-804=91$;

Dinamika= $91:34=2,7$;

Baravar oshgan.

2. Sof aktivlar qiymati = Sof moliyaviy aktivlar + Qayta tiklanmaydigan moddiy ne‘matlar+Moddiy aylanma mablag‘lar zaxiralarining o‘zgarishi+Nomoddiy aktivlar+Uy-joy binolari+ +Boshqa doimiy kapital

Bazis davri: $34+400+166+107+906+638=2251$

Joriy davr: $91+450+204+115+912+704=2476$

Dinamika= $2476:2251*100=110\%$

3. Qayta tiklanadigan moddiy kapital =Moddiy aylanma mablag‘lar zaxiralarining o‘zgarishi+Uy-joy binolari+Boshqa doimiy kapital

Bazis davri: $166+906+638=1710$

Joriy davr: $204+912+704=1820$

Dinamika: $1820:1710*100=106,4\%$

4. Doimiy kapital = Uy-joy binolari + Boshqa doimiy kapital
 Bazis davri: 906+638=1544
 Joriy davr: 912+704+1616
 Dinamika=1616:1544*100=104,7%
 5. Tarkibiy o'zgarishlar koeffitsiyenti:

7.4-jadval

Ko'rsatkichlar	Bazis davri	Joriy davr	Ulushi (d)		Umumlashtiring mutlaq o'zgarishi $ d_1 - d_0 $
			d_0	d_1	
Uy-joy binolari	906	912	0,587	0,564	0,0224
Boshqa doimiy kapital	638	704	0,413	0,436	0,0224
JAMI	1544	1616	1,000	1,000	0,045

$$K_{\text{tark.o'zg.}} = \sum |d_1 - d_0| : n = 4,5 : 2 = 2,25(\%)$$

4-misol. Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib, ishlab chiqarish samara-dorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni resurslar va xarajatlar usulida hisoblang:

7.5-jadval

	Bazis davri	Joriy davr
Milliy daromad	700	850
Asosiy kapital	3640	4340
Moddiy xarajatlar (amortizatsiya)	690	820
Aylanma kapitalning o'rtacha yillik qiymati	830	890
Shartli pul ko'rinishida baholangan mehnat resurslari	2060	2090
Iqtisodiyotdagi yo'qotishlar	18	26
Asosiy kapital amortizatsiyasi	102	109
Mehnat haqi	370	460

Yechish:

1. *Resurslar varianti:* Milliy daromad: (Asosiy kapital+ Aylanma kapital+Shartli pul ko'rinishida baholangan mehnat resurslari);

Bazis davrida: 700:(3640+830+2060)=700:6530=0,11072

Joriy davrda: 850:(4340+890+2090) =850:7320=0,1161

2. *Xarajatlar varianti:*Milliy daromad: (Amortizatsiya moddiy xarajatlar+Iqtisodiyotdagi yo'qotishlar+Mehnat haqi+ asosiy kapital amortizatsiyasi)

Bazis davrida=700:(690+18+370+102) =700:1180=0,5932

Joriy davrda=850:(820+26+460+190) =850:1415=0,6007

5-misol. 2014-yilning 1 yanvarida 1500 ming AQSH dollari turadigan, xizmat qilish muddati 10 yillik asosiy fondlar ishlab chiqarishga kiritilgan. Ularning yillik amortizatsiya normasi 20% ga teng bo'lib, ushbu norma bu asosiy fondlarning xizmat qilishi davomida o'zgar-maydi.

2016-yilning 1 yanvarida 2000 ming AQSH dollari turadigan, xizmat qilish muddati 10 yilga teng bo'lgan va kumulyativ amortizatsiya tizimi qo'llaniladigan asosiy fondlar kiritilgan.

2018-yilning 1 yanvar holatiga asosiy fondlarning umumiy ya-roqlilik koeffitsiyenti hisoblansin.

Yechish:

1. 2014-yilda kiritilgan asosiy fondlarning 2008-yil 1 yanvar ho-latiga qoldiq qiymatini hisoblaymiz:

2014-yildagi eskirish summasi : $1500 \cdot 0,2 = 300$

2015-yildagi eskirish summasi : $(1500 - 300) \cdot 0,2 = 240$

2016-yildagi eskirish summasi : $(1200 - 240) \cdot 0,2 = 192$

2017-yildagi eskirish summasi : $(960 - 192) \cdot 0,2 = 153,6$

2018-yil 1 yanvar holatiga qoldiq qiymati:

$1500 - (300 + 240 + 192 + 153,6) = 1500 - 885,6 = 614,4$

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-misol. Eksport (FOB baholari) va import (SIF baholari) to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan (mlrd. AQSH dollari):

7.6-jadval

Mamlakatlar	Import		Eksport	
	2012 y.	2017 y.	2012 y.	2017 y.
Dunyo bo'yicha	2006,5	4238,9	1931,5	4173,8
Shu jumladan:				
AQSh	361,6	689,2	218,8	512,2
Yaponiya	129,5	275,5	175,7	397,4
Germaniya	158,6	381,1	184,0	426,6
O'zbekiston	-	38,7	-	63,3

Aniqlang:

1) butun jahon va ayrim mamlakatlar bo'yicha eksport va importning yillik qo'shimcha mutlaq va nisbiy o'sishini;

2) tashqi savdo saldosini;

3) ayrim davlatlarda importni eksport bilan qoplanish koef-fitsiyentini.

2-misol. Yaponiya tashqi savdosi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (mlrd. yena. 2009-yil baholari)

7.7-jadval

Yillar	Eksport				Import			
	Jami	Evropa	Osiyo	Amerika	Jami	Evropa	Osiyo	Amerika
2009	6565	1200	2665	2700	6690	900	1900	3890
2016	41530	7000	18000	16530	31500	5500	14550	11450

Aniqlang:

1. Yaponiya tashqi savdo oboroti, eksport va import di-namikasini;
2. Ushbu ko'rsatkichlarni o'rtacha yillik o'sish sur'atlarini;
3. Yaponiya tashqi savdosida geografik regionlar salmog'ini va di-namikasini.

3-misol. Amerika tashqi savdosi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (mln. dollar, joriy baholarda):

7.8-jadval

Ko'rsatkichlar	Import		Eksport		Eksport indeksi	Import indeksi
	2009	2016	2009	2016		
Oziq-ovqat	4500	4700	230	200	0,886	0,783
Kimyoviy mahsulot	2300	2300	2200	2800	0,993	0,635
Mashina va us-kuna	5900	7990	29100	29000	1,041	0,714
Metallar	1420	1850	2825	2699	1,232	0,679
To'qimachilik	1800	2300	1040	836	0,993	0,635
Boshqa mahsu-lotlar					1,053	0,621

Hisoblang;

- a) eksport guruhi jismoniy hajmi indekslarini va import baholari indekslarini;
- b) umumiy qiymat indeksini, baho, jismoniy hajm indekslarini;
- v) AQSH uchun guruh eksporti va importi umumiy savdo sharoiti indekslarini.

4-misol. Xitoy tashqi savdosi quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi (mlrd.doll):

7.9-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2009	2013	2014	2015	2016
Eksport	27,2	62,1	140,8	150,1	182,1
Import	42,2	53,5	132,1	138,8	142,4

Aniqlang:

1. Xitoy tashqi savdo oboroti va saldosi;
2. Eksport, import va tashqi savdo oboroti dinamikasini (2000-yilga nisbatan)
3. Ushbu ko'rsatkichlarning o'rtacha yillik o'sish sur'atini.

8-MAVZU. MOLIYA-KREDIT TIZIMI STATISTIKASI

Amaliy mashg'ulot vazifasi. Moliya bozori statistikasi mazmun mohiyatini yoritish. Moliya bozori statistikasini tashkil etuvchi bo'limlarini tushuntirish. Davlat moliya statistikasi tizimi ta'riflash.

Mamlakatning moliya tizimida davlat byudjetining o'rni va ahamiyatini ifodalash. Davlat byudjeti daromadlari tashkil etuvchi sarflar yig'indilari haqida tasavvurga ega bo'lish. Davlat byudjeti hisobiga kiruvchi daromadlar, kapital xarajatlar haqida tushuncha berish. Inflyatsiya darajasini baholash. Defitsitni belgilangan usulga aniqlash.

Amaliy mashg'ulot rejasi

1. Moliya bozori statistikasi mazmun mohiyati.
2. Moliya bozori statistikasini tashkil etuvchi bo'limlari.
3. Davlat moliya statistikasi tizimi
4. Mamlakatning moliya tizimida davlat byudjetining o'rni va ahamiyati
5. Davlat byudjeti daromadlari tashkil etuvchi sarflar
6. Davlat byudjeti hisobiga kiruvchi daromadlar
7. Kapital xarajatlar
8. Inflyatsiya darajasini baholash.
9. Defitsitni belgilangan usulga aniqlash.

Nazorat va muxokama uchun savollar:

1. Moliya bozori statistikasi deb nimaga aytiladi?
2. Moliya bozori statistikasi qanday bo'limlardan tashkil topgan?
3. Davlat moliya statistikasi tizimi ta'riflang.
4. Mamlakatning moliya tizimida davlat byudjetining o'rnini va ahamiyatini yoritib.
5. Davlat byudjeti daromadlari qanday sarflar yig'indisidan tashkil topadi?
6. Davlat byudjeti o'z ichiga qanday soliqlardan daromadlar oladi va ularning tarkibiga qanday daromadlar kiradi?
7. Kapital xarajatlar deb nimaga aytiladi?
8. Inflyatsiya darajasini qanday usulda baholanadi?
9. Defitsit qanday usullar bilan aniqlanadi?

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Moliya bozori statistikasi moliya bozorida qo'llaniladigan moliyaviy operatsiya va bitimlarning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar yig'indisidir.

Moliya statistikasi ommaviy hodisalar bo'yicha xulosa chiqarmasdan, balki alohida operatsiya va bitim qatnashchilari bo'yicha ham xulosa chiqaradi.

Moliya bozori statistikasi quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

1. Moliya statistikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari;
– Moliya balans va schyotlar ko'rsatkichlari, to'lov balansi, xalqaro moliyaviy zaxiralar va boshqalar.
2. Davlat va inqisodiy birliklari moliya statistikasi.
3. Tijorat korxonalarining moliya statistikasi.
4. Pul muomalasi va kredit stavkasi.
5. Moliyaviy bozorlar statistikasi.

Davlat moliya statistikasi makroiqtisodiy statistikaning muhim tarkibiy qismidir. Davlat moliya statistikasi tizimi – davlat boshqaruvi muassasalari sektoridagi operatsiyalar to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlarni to'plash, ishlov berish, tahlil qilish hamda iste'molchilarga yetkazib berish borasidagi faoliyatda qo'llaniladigan iqtisodiy va statistik tushunchalar majmuasidir.

Mamlakatning moliya tizimida davlat byudjetining o'rnini va ahamiyati katta. Davlat byudjeti bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish usullarini bilishning ahamiyati katta. Jumladan:

- Davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar summasini hisoblash;
- Davlat byudjetining rejalari bajarilishini tahlil qilish;
- Davlat byudjetining tarkibi va dinamikasini o‘rganish;
- Davlat byudjeti bo‘yicha mavjud qonuniyatlarni aniqlash va baholash;

- Davlat byudjeti daromadi ko‘rsatkichlari va xalq xo‘jaligining muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish.

Davlat byudjeti daromadlari summasi soliq sifatida olinadigan daromadlar, turli yig‘im tushumlaridan, xarajatlari esa xalq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirish, moliyalashtirish, ijtimoiy va madaniy tadbirlarni moliyalashtirish, fan, huquq organlarini saqlash va hukumat xarajatlari, Mudofaaga va boshqa sarflar yig‘indisidan tashkil topadi.

Davlat byudjeti o‘z ichiga soliqlardan daromadlar: foyda solig‘i, jis-moniy shaxslardan daromad solig‘i, qo‘shilgan qiymatdan soliq, aksiz solig‘i, tabiiy resurslardan foydalanganligi uchun to‘lovlar, boshqa daromadlarni oladi.

Soliqdan tashqari daromad tarkibiga: tashqi iqtisodiy faoliyatdan daromad, mulkdan daromad (davlat mulkini sotishdan), davlat zaxiralarini sotishdan daromad va boshqa daromadlar kiradi.

Joriy xarajatlar tovar va xizmatlarni sotib olish, foizlarga to‘lovlar, subsidiya va joriy transfertlardir.

Kapital xarajatlar – bu asosiy fondlarning qo‘yilmalaridan davlat zaxira va rezervlarini tashkil etish va kapital transfertlardir.

Inflyatsiya darajasini baholashda Laspeyresning iste‘mol baho indeksi ma’lumotlarini berilishiga qarab, agregat va o‘rtacha tortilgan indeks hisoblanadi:

$$Yib = \frac{\sum P_1 Q_0}{\sum P_0 Q_0} = \frac{\sum P_0 Q_1}{\sum P_0 Q_0}$$

Inflatsiya darajasini hisoblash:

$$Inf = Yib - 100 \%$$

Inflyatsiya dinamikasi quyidagi ko‘rsatkichlarda baholanadi:

$$N = \frac{Inf1 - Inf0}{Inf1}$$

Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari summasi hisoblangandan so'ng, uning tarkibini va tarkibiy siljishlarini o'rganadi hamda dinamikasi (ma'lum vaqt ichida o'rganish) muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat byudjeti tarkibi va dinamikasini o'rgangandan so'ng davlat byudjeti defitsiti yoki profitsitini aniqlash boshlanadi. Defitsit quyidagi usullar bilan aniqlanadi:

$$U = \frac{D - X}{X} * 100 \quad Y = \frac{D - X}{\text{yalpi milliy mahsulot}} * 10$$

Bu yerda,

Y – byudjet defitsiti; D – daromadlar summasi; X – xarajatlar summasi.

XVFning taklifi bo'yicha u quyidagi formula bilan ham hisoblanishi mumkin:

$$\Delta = \left(\begin{array}{l} \text{zavod} \\ \text{daromadlari} \end{array} + \text{dotatsiyalar} \right) - \left(\begin{array}{l} \text{davlat} \\ \text{xarajatlari} \end{array} + \text{qoplanmagan kreditlar} \right)$$

Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari bo'yicha tasdiqlangan rejalarining bajarilishi so'm va foizda aniqlanadi.

So'm hisobida $\Delta Q = Q_x - Q_p$

Foizda $RB = (Q_x : Q_p) * 100$

Bu yerda,

Q_x – haqiqiy erishilgan daraja;

Q_p – rejadagi miqdor.

Statistikada byudjet moddalari bo'yicha reja bajarilishi yoki bajarilmasligini aniqlash bilan birga, unga ta'sir etuvchi omillar ham hisoblanadi:

1) Soliq bazasining (B) o'zgarishi;

2) Soliq stavkasining (S) o'zgarishi.

Bu omillar ta'siri quyidagicha tahlil qilinadi:

$$\Delta KKS = Q_x - Q_p$$

Omillar hisobiga o'zgarish quyidagicha:

$$\text{a) } \Delta KKS_b = (B_x - B_r) S_r$$

$$\text{b) } \Delta KKS_s = (S_x - S_r) B_x$$

ΔKKS bo'yicha umumiy o'zgarish:

$$\Delta KKS = \Delta KKS_b + \Delta KKS_s$$

1-Misol. Mamlakat byudjeti bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan:

9.1-jadval

	Reja	Haqiqat
Qo'shilgan qiymat bo'yicha soliq summasi (mlrd. so'm)	441.6	458.4
Soliq stavkasi %	19.1	20.0
Qo'shilgan qiymat summasi (mlrd. so'm)	2312.4	2292

Qo'shilgan qiymat bo'yicha soliq summasi, soliq bazasi va stavka-ning o'zgarishi hisobidan ortgan summa aniqlansin.

Misolning yechimi.

QQS bo'yicha soliq summasining o'zgarishi:

$$\Delta KKS = Q_x - Q_p = 458.4 - 441.6 = 16.8 \text{ mlrd.so'm}$$

a) O lik bazaning o'zgarishi hisobiga:

$$\Delta KKS(b) = (B_x - B_r) S_r = (2292 - 2312.1) 0.191 = -3.839 \text{ mlrd.so'm.}$$

b) Soliq stavkasi o'zgarishi hisobiga:

$$\Delta KKS(s) = (S_x - S_r) B_x = (0.20 - 0.191) * 2292 = 20.6 \text{ mlrd.so'm.}$$

Ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qo'shilgan qiymat bo'yicha soliq summasining o'zgarishi faqat soliq stavkasining o'zgari-shi hisobiga $(16.8 = -3.839 + 20.6)$ amalga oshadi.

Byudjet dinamikasi va daromadlar darajasi hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda statistik usullardan foydalaniladi. Masalan, statistikani indeks usuliga to'xtalamiz.

Agar davlat byudjeti daromadlari boshlang'ich darajasini U_0 bilan, unga ta'sir etadigan omillarni – J_a, J_b, J_v, J_g, J_d bilan belgilasak, daromadlarning shu omillarning o'zgarishini hisobga olgan holdagi darajasi quyidagicha hisoblanadi:

$$Y_{1a} = Y_0 * J_a$$

$$Y_{1ab} = Y_{1a} * J_b$$

$$Y_{1abv} = Y_{1ab} * J_v$$

$$Y_{1abvg} = Y_{1abv} * J_g$$

$$Y_{1abvgd} = Y_{1abvg} * J_d$$

Bu tengliklardan foydalanib, ayrim omillar hisobidan davlat byudjeti daromadlarining o'zgarishi quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$\Delta Y_a = Y_{1a} - Y_0$$

$$\Delta Y_b = Y_{1ab} - Y_{1a}$$

$$\Delta Y_v = Y_{1abv} - Y_{1ab}$$

$$\Delta Y_g = Y_{1abvg} - Y_{1abv}$$

$$\Delta Y_d = Y_{1abvgd} - Y_{1abvg}$$

Shunday qilib, byudjet daromadlarining umumiy mutlaq o'zgarishi teng:

$$\Delta Y = \Delta Y_a + \Delta Y_b + \Delta Y_v + \Delta Y_g + \Delta Y_d$$

Amaliyot darslarida talabalarni moliyaviy hisoblash usullari va statistik ko'rsatkichlarning qo'llanishi va hisoblash texnologiyasi bilan tanishtiriladi.

Moliyaviy operatsiya va bitimlarda vaqt omili asosiy o'rinni egallaydi. Pulning oshgan qiymati, odatda, sodda va murakkab foizlarda hisoblanadi:

$$S = P + Pin \quad \text{yoki} \quad S = P + (1 + in)$$

Bu yerda, S – pulning oshgan qiymat summasi,

P – boshlang'ich summasi, n – foizning davrlar soni, i – foiz stavkasi, $1+in$ – boshlang'ich summani ko'paytiruvchi miqdori.

2-Misol. 1.5 mln. so'm 2 yilga 15% stavkasi bilan berilgan. Pulning oshgan qiymati summasi aniqlansin.

$$S = P + Pin = 5 + 5 * 0.25 * 2 = 7.5 \text{ mln.so'm}$$

$$S = P + (1 + in) = 5 (1 + 0.25 * 2) = 7.5 \text{ mln.so'm}$$

Agar qarz muddati bir yildan kam bo'lsa, oshgan qiymati quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$S = P \left(1 + \frac{t_i}{t} * i \right) \quad \text{yoki} \quad S = P (1 + di)$$

Bu yerda : t_i – qarz kunlar soni;

d – qarz kunlari hissasi.

Oshgan qiymat dekursiv usul bilan chegaralanmasdan, rekursiv usullardan foylaniladi:

$$s = \frac{B}{1 - di} : \text{bu yerda } B = P(1 - d)$$

Masalan, qo'shma korxona 200 kunga 90 mln. so'm kredit olish uchun bankka murojat qiladi. Bank esa hisob stavkasi (18%) bilan kredit berishga rozi.

Aniqlang:

1. Hisob stavkasini.
2. Oshgan qiymat summasini.

Yechimi:

1. Hisob stavkasi summasi:

$$P \cdot d \cdot i = 90 \cdot (200:360) \cdot 0.18 = 90 \cdot 0.099 = 8/9 \text{ mln. so'm}$$

$$B = 90(1 - 0.555 \cdot 0.18) = 90 \cdot 0.90 = 8 \text{ mln. so'm}$$

Yoki qo'shma korxona oladigan summa : $(90 - 8.9)$ 81 mln. so'm

Yuqorida keltirilgan formula bo'yicha oshgan qiymat summasi:

$$S = \frac{81}{1 - 0.55 \cdot 0.18} = 89 \text{ mln. so'm}$$

Oshgan qiymat murakkab foizlarda quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$S = P(1+i)^n$$

Oddiy va murakkab foizlarda hisoblangan qiymatni aniqlashda inflyatsiya darajasi hisobga olinadi va uning formulasi:

$$S = P \left(\frac{1+i}{1+r} \right)^n \text{ bu yerda } r - \text{inflyatsiya darajasi.}$$

3-misol. 21 foizli stavka bilan 30 mln. so'mli kapital ikki barobarga ortishi uchun necha yil kerak?

$$n = 60 - 30 = \frac{30}{30 \cdot 0.21} = \frac{30}{6.3} = 4.76 \text{ yil kerak bo'ladi.}$$

$$S = P \left(1 + \frac{j}{m} \right)^m \text{ bu yerdan } I = P \left(1 + \frac{j}{m} \right)^m - 1$$

4-misol. 40 ming so'mlik qiymati bilan obligatsiya 5 foiz nominal stavkada 4 yilga chiqarilgan. Stavkalarni kapitallashtirishni 1 yilda, yarim yilda va har kvartalda amalga oshirilsa, shulardan qaysi biri samarali stavka hisoblandi?

Yechish.

Bir yil uchun stavka $i=0.05$

Yarim yil uchun

$$i = P \left(1 + \frac{j}{m} \right)^m - 1 = (1 + 0.05 : 2)^2 - 1 = 0.0506 \text{ yoki } 5.06\%$$

Kvartal uchun

$$i = P \left(1 + \frac{j}{m} \right)^m - 1 = (1 + 0.05 : 4)^4 - 1 = 0.0509 \text{ yoki } 5.09\%$$

Ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, kredit beruvchiga samarali kvartallik, oluvchi uchun bir yillik samarali bo'ladi.

Keltirilgan misol asosida oshgan qiymatni ham hisoblash mumkin:

$$Sj1 = 40(1 + 0.05)^4 = 10(1.05)^4 = 48.560 \text{ mln. so'm}$$

$$Sj2 = 40(1 + 0.05/2)^{2*4} = 40(1.025)^8 = 40*1.216 = 48.720 \text{ mln. so'm}$$

$$Sj3 = 40(1 + 0.05/4)^{4*4} = 40(1.012)^{16} = \dots$$

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-misol. Mamlakat bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar mavjud (mlrd. so'm):

9.2-jadval

Daromad	Bazis davri	Hisobot davri
Foyda solig'i	49,1	98,1
Jismoniy shaxslardan daromad solig'i	1,1	24
Qo'shilgan qiymat solig'i	142,0	267,5
Aksizlar	68,5	101,9
Tabiiy resurslardan foydalanish uchun to'lovlar	4,0	12,8
Boshqa daromadlardan soliq	46,9	112,1
Tashqi iqtisodiy faoliyatdan daromadlar	22,5	44,0
Davlat mulkidan daromadlar	24,2	806
Davlat zaxiralarini sotishdan daromad	4,3	
Boshqa soliqlardan daromad	1,5	6,5
Qaytarmaslik sharti bilan pul o'tkazmasi	3,6	00
Maqsadli byudjet foizidan daromad	31,8	68,5
Xarajatlar		
Mahsulot va xizmatlar sotib olish	213,4	355,2
Foiz to'lovlar	179,9	196,9
Subsidiya va joriy transfertlar	149	174,6
Asosiy fondlarga kapital qo'yilmalar	25,7	65,1
Davlat zaxirasi va rezervini tashkillashtirish	5,4	0,0
Kapital transfertlar	1,2	1,6

Yillar bo'yicha aniqlang:

1. Soliqlardan daromad hajmini.
2. Soliqdan tashqari daromadning umumiy hajmini.
3. Joriy xarajatlarning umumiy hajmini.
4. Kapital xarajatlarning umumiy hajmini.
5. Defetsit (profetsit).

2-misol. Quyidagi shartli ma'lumotlar mavjud (mln. so'm):

9.3-jadval

Tovarlar guruhi	Bazis davridagi xarajatlar	Hisobot davridagi xarajatlar (Bazis davridagi iste'molning joriy davridagi baholardagi tartibi)
Oziq-ovqat mahsulotlari	720,0	780,7
Nooziq-ovqatlar, tovarlar	670,1	687,2
Xizmatlar	310,7	372,0

3-misol. Mijoz "Hamkorkbank"ka 22 mln. so'm pulni 3 yilga 15% oddiy stavka bilan joylashtirdi. Mijozning qaytarib oladigan daromad summasini aniqlang.

4-misol. Har oyda % to'lanishi sharti bilan mijoz 3.2 mln. so'mni omonatga qo'ydi. Bank qo'yilgan omonatga yiliga 18% dan to'lashni belgilagan. Har oyda mijoz qancha so'm daromad oladi?

5-misol. "Ipak yo'li" bankiga mijoz 22% bilan 27 mayda oddiy stavka bilan 3 mln. so'mni joylashtirdi. Omonat 31 avgust kuni qaytarib olindi. Mijozning qaytarib olgan summasi va daromadini aniqlang.

6-misol. Joriy davrdagi qarz hajmi foizi bilan 3.12 mln. so'm. Kredit tash-kiloti to'lovni 1.5 oyga cho'zdi.

Aniqlang:

majburiyat bo'yicha qarz summasini 10% yilligi bo'yicha.

7-misol. Mijozga joriy yil 01.07 dan 2010 gacha 20 mln. so'm 20 yillik foiz stavkasi va har oyda to'lash sharti bilan qarz berildi.

Qarz summasini aniqlang.

8-misol. Qo'shma korxona bankdan 200 mln. so'mlik kredit oldi. Kredit muddati 6 yil. Foiz stavkasi 1-yil uchun 11.4%, 2-yil uchun 13%, qolgan yillarga 14%. Qarz muddati tugagandan keyin qaytarib beriladigan summani aniqlang.

9-misol. Tadbirkor 57 kundan keyin 5.4 mln. so'm dividend oladi. Lyokin unga bugun 4 mln. so'm kerak. Bank 145 % bilan kredit berishga rozi. Oshgan qiymat 5.4 mln. so'mdan oshmasligi uchun tadbirkor qanday muddatga kredit olishi mumkin?

10-misol. Nominal stavka (yillik) 36%. Stavkani kapitallashtirish 4 variantda amalga oshiriladi: (yil, yarim yil, chorak va oy). Samarali stavkani aniqlang.

11-misol. Nominal stavka (yillik) 62%. Yiliga 4 marta hisoblanadi va qo‘shi-ladi. Samarali stavkani hisoblang.

12-misol. 5-yil davomida mijoz bankdan 50 mln. so‘m oldi. Omonatga 16% qo‘shimcha yozilgan (murakkab foizlar). Omonatning boshlang‘ich summasi qancha bo‘lgan?

13-misol. Firmaga 20 mln. so‘m zarur. Agarda firma 90 kundan keyin 24 mln. so‘m qilib qaytarib bersa, bank kredit berishga rozi. Hisob – kitobda hisob stavkasi qo‘llanilgan. Hisob stavkasini aniqlang.

14-misol. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari (mln. so‘m):

9.4-jadval

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2011	2012	2013	2014	2015
Davlat maqsadli jamg‘armalarisiz. Jami xarajatlari.	2376943,9	2743230,1	3464107,1	4313522,1	5334229,1
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvat-lash Jami:	1082308,3	1305416,5	178908,7	2255348,9	288572,4
1. 1. Maorif	623041,1	753361,2	991502,9	1285178,5	1740447,2
1. 2. Sog‘liqni saqlash	228708,5	282213,3	377846,9	494675,1	636085,1
1. 3. Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari.	45852	51291,5	59381,6	66179,7	71502,5
1. 4. Fan	5473	18882,3	17931,4	212549,3	28923,02
1. 5. Ijtimoiy ta‘minot	9519,5	107915	13873,2	16872,4	20688,4
1. 6. Aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan xizmatlar narxida-gi farqni qoplash	31900	21740,5	15979,9	13160,9	14463,8
1.7. Bolali va kam ta‘minlangan oilalarga nafaqalar	137814,2	167136,2	212864,4	282554,8	350020,6
1. Iqtisodiyotga va markazlashgan investitsiya-larni moliyalash xarajati.	622250,2	667022,5	804254,6	952666,1	1103381,6
2. Davlat hokimiyati boshqaruv organlari va sud organlari xarajatlari	58657,7	69933,4	95085,7	115963	157862,3
3. Boshqa xarajatlar	613727,7	700857,7	825858,1	989544,2	1119912,8
Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari maktab ta‘limining jamg‘arma xarajatlari			146007,1	261855,1	364550,0
I. Davlat maqsadli jamg‘armalarining xarajatlari	80400,4	936386,6	127401,1	1623906,9	2165915,5
Jami xarajatlar:	3180947,3	3679616,7	4884115,2	6199284,0	7864694,6

Aniqlang:

1) Har bir yil uchun alohida xarajat turlarining umumiy xarajatlardagi hissasini.

2) 2011-2015-yildagi ro'y bergan tarkibiy siljishlarini.

15-misol. Davlat byudjeti xarajatlari (14 misol bo'yicha)ning mutlaq o'zgarishi, o'zgarish sur'ati va qo'shimcha o'zgarish sur'atlarini bazisi va zanjirsimoni aniqlansin. Olingan natijalarni statistik grafiklarda tasvirlang.

16-misol. Agar tovar aylanmasi 12 % ga, mahsulot jismoniy hajmi 8 % ga oshsa, qanchaga o'zgaradi?

17-misol. Diskont vekselni qoplash muddati 05.07 joriy yil. Joriy yilning 23.02ga sotib olish qiymati qanday? Vekselning nominali 1 mln so'm, 8% yillik hisob stavkasi.

18-misol. 50 mln. so'm ssuda yillik 10% bilan to'qqiz oyga berilgan. Ope-ratsiya oxirida bir yo'la qarz va % ni to'lash kelishilgan. Birinchi 3 oy-dan keyin ssuda bo'yicha to'lov 10.5% ni tashkil etdi. Qaytaradigan summa qiymatini aniqlang.

9-MAVZU. AHOLI TURMUSH DARAJASI STATISTIKASI

Amaliy mashg'ulot vazifasi. Aholi turmush darajasi mavzusini chuqur o'rganish uchun talaba quyidagi bilim va ko'nikmalarni bilishi hamda tahlil qila olishi kerak:

1. Aholi daromadlari va xarajatlari, ularning tarkibi;
2. Real daromad dinamikasi;
3. Tovar va xizmatlarning iste'mol darajasi;
4. Daromadlar differentsiyalashuvi ko'rsatkichlari;
5. Qashshoqlik darajasi.

Amaliy mashg'ulot rejasi

1. Aholi daromadlari va xarajatlari, ularning tarkibi;
2. Real daromad dinamikasi;
3. Tovar va xizmatlarning iste'mol darajasi;
4. Daromadlar differentsiyalashuvi ko'rsatkichlari;
5. Qashshoqlik darajasi.

Nazorat va muxokama uchun savollar:

1. Turmush darajasi nima?
2. Uni umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar qanday hisoblanadi?

3. Jon boshiga to'g'ri kelgan YAIM, SIM, MD, SMD,... lar qanday hisoblanadi?
4. Nominal va real daromad indeksi qanday hisoblanadi?
5. «Balans» qanday tuziladi?
6. Aholining manaviy va marifiy darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar?
7. Aholining sotsial sharoitini tavsiflovchi ko'rsatkichlar?
8. Inson barkamolligi indeksini aniqlash?
9. Yashash minimumi va istemol savatchasi deganda nimani tushunasiz?
10. Kambag'allilik va uning indekslarini aniqlash?

Amaliy mashg'ulotning uslubiy ta'minoti

Aholi turmush darajasini dastavval quyidagi ko'rsatkichlar umumlashtirib ifodalaydi;

- jon boshiga to'g'ri kelgan sof milliy daromad
- nominal va real daromad indeksleri
- turmush qiymati indeksi
- inson barkammoligi indeksi
- qashshoqlik indeksi
- Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi
- yashash minimumi va boshqalar

Bu ko'rsatkichlar qiymat pul ko'rsatkichlari bo'lib, aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yorini aks ettiradi. Aholi jon boshiga yaratilgan SMD iqtisodiy taraqqiyotini va aholi turmush darajasini ifodalaydi.

$$K_{td} = \frac{SMD}{A}$$

Bu erda; K- Aholi turmush darajasi koeffitsienti;

SMD - sof milliy daromad A - Aholining o'rtacha soni

Aholi turmush darajasining yuksalishi uchun SMDning o'sish sur'ati aholining o'sish sur'atidan yuqori bo'lishi lozim. Buni aniqlash uchun turmush darajasi indeksini hisoblash kerak

$$J_{atd} = \frac{SMD_1}{A_1} \div \frac{SMD_0}{A_0}$$

$$J_{atd} = K_{td1} : K_{td0}$$

Bu erda: J_{atd} -Aholi turmush darajasining indeksi

Agar $J_{atd} > 1$ bo'lsa, iqtisodiy o'sish sodir bo'lgan, binobarin

Aholi turmush darajasi oshgan. Agar $J_{atd} < 1$ bo'lsa, aksincha.

$J_{atd} = 1$ bo'lganda Aholi turmush darajasi ham o'zgarmagan.

Nominal daromad - bu bevosita hodim mehnatining miqdori va sifatiga qarab to'lanadigan haq bo'lib, u pul shaklidagi daromadni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan nominal daromad quyidagicha hisoblanadi:

$$ND = MBOD + MKD$$

Bu erda: ND-nominal daromad: MBOD - mehnat bilan olingan daromad, ya'ni ish xaqi, menejer daromadi, tadbirkor daromadi: MKD-mulkdan kelgan daromad, ya'ni foyda, foiz va dividend.

Real daromad jami pul daromadlaridan turli to'lovlar (soliqlar, sotsial sug'urta to'lovlari) chegirib tashlangandan keyin qolgan qismi sof pul daromadini baho indeksiga bo'lish yordamida aniqlanadi.

$$RD = \frac{ND + TT - S}{J_r}$$

Bu erda : TT- transfer to'lovlar evaziga tushgan daromadlar.

S- Soliqlar va turli to'lovlar. J -bahoning umumiy indeksi.

Real daromad indeksi quyidagicha hisoblanadi:

$$Jrd = \frac{RD_1}{RD_0} \div Jp \quad \text{trb} \quad Jp = \frac{RD_1}{Jp} \div RD_0$$

Bu erda: RD_0 va RD_1 real daromadning bazis va joriy davrlardagi summasi; Jp - bahoning umumiy indeksi.

Kambag'allik shunday holatki, bunday vaziyatda inson asosiy ehtiyojlarini qondirish imkoniga ega bo'lmaydi. Aholi va oilalarning bu qatlami pul mablag'lari, mulk va boshqa resurslar bilan nisbatan kam ta'minlanganligi sababli ularning moddiy va ma'naviy imtiyozlari past darajada qondirilgan bo'ladi.

Statistika amaliyotida kambag'allikni tavsiflash maqsadida quyidagi usullar qo'llaniladi.

- statistik usul, ya'ni daromad darajasi bo'yicha taqsimotini aniqlash
- normativ usul, ya'ni me'yordagi iste'mol savatchasini hisoblab chiqish.

Birinchi usulda tegishli hukumat tashkilotlari mamlakatlar bo'yicha har bir kishi va oilaning o'rtacha daromadlarini aniqlab chiqadi. Aynan shu o'rtacha daromad kambag'allik chegarasi deb

yuritilib, daromad darajasi undan past bo'lganlar kambag'allar, yuqorilari esa nisbatan boylar deb yuritiladi.

Normativ usulda kambag'allik darajasi tarkibi eng zarur bo'lgan oziq-ovqatlar, iste'mol buyumlari va xizmatlar to'plamidan iborat bo'lgan eng kam iste'mol savati qiymati asosida aniqlanadi.

Iste'mol savatining qiymat ifodasi eng kam iste'mol byudjeti deb ataladi. Eng kam iste'mol byudjetiga yoki ko'pincha uning ma'lum bir kismiga mos keluvchi kambag'allik chegarasi hisoblanadi.

Kambag'allikning vaqt bo'yicha o'zgarishi qator indekslarni hisoblash yordamida aniqlanadi.

- kambag'allik indeksi
- kambag'allikning chuqurlashuv yoki sayozlashuv indeksi
- kambag'allikning keskinlashuv indeksi

Kambag'allik indeksi (J_k) joriy davrdagi kambag'allik koefitsientini (K_k) bazis davrdagi kambag'allik koefitsienti (K_{k0})ga bo'lish yordamida hisoblanadi.

$$J_k = \frac{K_{k1}}{K_{k0}}; \quad K_{k1} = \frac{KCH_{a1}}{A_1}; \quad K_{k0} = \frac{KCHP_{a0}}{A_0}$$

Bu yerda: $KCHP_{a0}$ va $KCHP_{a1}$ - kambag'allik chegarasidan past daromadga ega bo'lgan Aholi soni bazis va joriy davrlarda, A_1 va A_0 Aholining o'rtacha soni.

Agar $J > 1$ bo'lsa, u holda kambag'allik darajasi o'sish tomonga, $J < 1$ bo'lsa, pasayish tomonga moyil bo'lgan. Agar $J = 1$ bo'lsa, u holda kambag'allik darajasi o'zgarmagan bo'ladi.

Kambag'allikning keskinlashuv indeksi (J) quyidagicha hisoblanadi joriy davrdagi kambag'allik darajasining variatsion kengligi bazis davridagi variatsion kengligiga nisbati bilan o'lchanadi.

Agar $J_{kk} > 1$ bo'lsa, demak o'ta boylar bilan o'ta kambag'allar o'rtasidagi absolyut va nisbiy tafovut katta bo'ladi va aksincha.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik daromad quyidagicha aniqlanadi:

$$D_{j.b} = \frac{\sum D}{\bar{A}}$$

bu yerda,

$\sum D$ – jami daromad, so'm;

$\bar{A}$ – aholining o'rtacha yillik soni, kishi.

Aholi daromadi Yalpi va ixtiyordagi daromadlarga bo'linadi. Ixtiyordagi daromad – majburiy to'lovlar va badallar to'langandan keyin qolgan daromaddan iborat, ya'ni:

$$ID=YAD - (MT+B);$$

bu yerda,

MT – majburiy to'lovlar;

B – badallar.

Aholining real daromadlari dinamikasi nominal daromadlar indeksini baho indeksiga nisbati orqali aniqlanadi:

$$I_{PD} = \frac{l_1}{l_0} : I_P \text{ yoki } I_{PD} = \frac{l_1^1}{l_0}; \quad l_1^1 = l_1 : I_P$$

bu yerda:

I_{PD} – real daromad indeksi;

l_1 – joriy yildagi nominal daromad;

l_0 – o'tgan yildagi nominal daromad;

I_P – yillik iste'mol bahosi indeksi;

l_1^1 – joriy yildagi real daromad.

Tovar va xizmatlar iste'moli dinamikasi ham baho indeksini hisobga olgan holda quyidagicha aniqlanadi:

$$I_P = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}; \text{ yoki } I_P = \frac{\sum q_1 p_0 : \sum p_1 q_1}{\sum q_0 p_0 : \sum p_0 q_1} = I_{qp} : I_P$$

bu yerda, I_q , I_{qp} va I_p – mos ravishda mahsulotlarning fizik hajmi, umumiy hajmi va baho indeksleri;

$\sum q_1 p_0$ – joriy davrda iste'mol qilingan tovar va xizmatlarning bazis davr bahosidagi qiymati;

$\sum q_0 p_0$ – bazis davrda iste'mol qilingan tovar va xizmatlarning shu davr bahosidagi qiymati.

Daromadlar o'zgarishining iste'mol hajmiga ta'sirini o'rganishda quyidagi elastiklik koeffitsiyentidan foydalaniladi:

$$K_{\Delta n.} = \frac{\Delta Y}{\Delta X} : \frac{Y_0}{X_0} = \frac{\Delta Y}{Y_0} : \frac{\Delta X}{X_0};$$

bu yerda:

X_0 – bazis davrda o'rtacha jon boshiga daromad hajmi;

Y_0 – bazis davridagi iste'mol darajasi;

ΔX – daromadning o'zgarishi;

ΔY – iste'molning o'zgarishi.

Bu ko'rsatkichlar daromadning o'rtacha jon boshiga 1% o'zgarganida iste'mol darajasi qanchaga o'zgarganligini baholaydi.

Daromadlarning tabaqalanishi quyidagi ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi:

1. Modal va mediana daromad;
2. Fond koeffitsiyenti va tabaqalanishning detsili koeffitsiyenti;
3. Jini koeffitsiyenti va Lorenz egri chizig'i;
4. Qashshoqlik ko'rsatkichlari fond koeffitsiyenti (KD) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_d = \frac{\bar{d}_{10}}{\bar{d}_1} \text{ yoki } K_d = \frac{D_{10}}{D_1}$$

Bu yerda:

$\bar{d}_1$ – past daromadli 10% aholining o'rtacha jon boshiga daromadi;

$\bar{d}_{10}$ – yuqori daromadli 10% aholining o'rtacha jon boshiga daromadi;

D_1, D_{10} – past va yuqori daromadli 10% aholining jami daromadi.

Detsili koeffitsiyenti: $K_d = \frac{d_9}{d_1}$;

bu yerda,

d_9 – yuqori daromadli 10% aholining eng kichik daromadi (quyi chegarasi)

d_1 – past daromadli 10% aholining eng katta daromadi (yuqori chegarasi)

Jini koeffitsiyenti: $K_6 = 1 - 2 \sum_{i=1}^n X_i Y_i^1 + \sum_{i=1}^n X_i Y_i$

bu yerda:

X_i – i guruhdagi aholi salmog'i;


Y_i – i guruhdagi aholi daromadining jami daromaddagi salmog'i;

n – tabaqalanishi bo'yicha aholi guruhlarining soni.

$$Y_i^1 = Y_1 + Y_2 + \dots + Y_i$$

Daromad teng taqsimlanganda bu ko'rsatkich 0 ga intiladi. Daromadlar taqsimlanishi turlicha bo'lsa, bu ko'rsatkich 1ga yaqinlashadi.

Daromadlar tabaqalanishi tengsizligini grafikda tasvirlash Lorents egri chizig'i yordamida amalga oshiriladi. Lorents egri chizig'i kvadrat diagonaliga suyangan yoydan iborat bo'ladi. Ya'ni quyidagicha:



Bu chiziq yordamida kvadratning pastki burchagida hosil bo'lgan yuzalar qiymati bo'yicha ham Jini koeffitsiyentini hisoblash mumkin.

$$K_6 = \frac{S_a}{S_a + S_e}$$

1-misol. Daromadlar taqsimoti bo'yicha quyidagicha ma'lumotlar berilgan:

9.1-jadval

Oylik o'rtacha joriy baholar-dagi daromad, ming so'm	Aholi soni mln. kishi, f	Interval, o'rtacha, X	Xf	Kumulyativ chastota, r
10,0 gacha	2,9	5		
10,0-20,0	18,5	15		
20,0-30,0	25,5	25		
30,0-40,0	23,4	35		
40,0-50,0	18,8	45		
50,0-60,0	14,3	55		
60-70	10,7	65		
70-80	8,0	75		
80-90	6,0	85		
90-100	4,5	95		
100-110	3,0	110		
110-120	3,0	110		
120-130	1,7	125		
130-140	1,8	135		
140 dan yuqori				

Aniqlang:

- 1) O'rtacha jon boshiga daromad;
- 2) Pastki va yuqori detseli;
- 3) Detseli koeffitsiyenti.

Yechilishi:

$$1. \bar{X} = \frac{\sum Xf}{\sum f} = \frac{76140}{148.2} = 513,8 \text{ ming so'm.}$$

2. Pastki va yuqori detsili mediana formulasiga binoan aniqlanadi:

$$d_1 = Xd_1 + id_1 \cdot \frac{\frac{tf}{10} - P_{d_1-1}}{fd_1} = 10,0 + 10 \cdot \frac{14,2 - 2,9}{18,5} = 16,44$$

$$d_9 = Xd_9 + id_9 \cdot \frac{\frac{9\sum f}{10} - P_{d_9-1}}{fd_9} = 10,0 + 10 \cdot \frac{133,4 - 132,6}{3,0} = 102,67$$

$$3. K_d = \frac{d_9}{d_1} = \frac{102,67}{16,44}$$

Bu koeffitsiyent aholi daromadi bo'yicha tabaqalanish keskin ekanligini nomoyon qiladi, ya'ni 10% boy va 10% kambag'al aholi daromadlari nisbati 6,2 martani tashkil qiladi.

2-misol. Region bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan, %:

9.2-jadval

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Joriy yil
20% daromadlar – jami aholi guruhlari uchun	100	100
I	9,8	6,5
II	14,9	10,6
III	18,8	16,5
IV	23,8	22,5
V	32,7	43,9

Har bir yil uchun:

1. Jini koeffitsiyentini hisoblang;
2. Lorents egri chizig'ini grafikda tasvirlang.

Yechilishi.


9.3-jadval

Yil	Aholi guruhlari	Aholi salmog'i X_i	Daromadlar salmog'i Y_i	Hisoblangan ko'rsatkichlar		
				Y_i^1	$X_i Y_i$	$X_i Y_i^1$
Bazis yili	I	0,2	0,098	0,098	0,0196	0,0196
	II	0,2	0,149	0,247	0,0248	0,0494
	III	0,2	0,188	0,4,5	0,0376	0,0870
	IV	0,2	0,238	0,675	0,0476	0,1346
	V	0,2	0,327	1,000	0,0654	0,2000
	Jami	1,0	1,000	-	0,2000	0,4260
Joriy yil	I	0,2	0,065	0,065	0,0130	0,0130
	II	0,2	0,106	0,171	0,0217	0,0342
	III	0,2	0,165	0,336	0,0330	0,0672
	IV	0,2	0,225	0,561	0,0450	0,1122
	V	0,2	0,439	1,000	0,0878	0,2000
	Jami	1,0	1,000	-	0,2000	0,4260

1. Djini koeffitsiyenti:

$$K_{6_0} = 1 - 2 \cdot 0,49061 + 0,2 = 0,219$$

$$K_{6_1} = 1 - 2 \cdot 0,4266 + 0,2 = 0,347$$



3-misol. Oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli va daromadlar bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

9.4-jadval

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Joriy yil
1. O'rtacha jon boshiga iste'mol (kg):		
– non mahsulotlari	100	106
– sut mahsulotlari	296	274,7
2. O'rtacha jon boshiga daromad ming so'm (solishtirma bahoda)	2400	2688

Iste'mol elastikligi koeffitsiyentini hisoblang.

Yechilishi:

$$K_{\vartheta} = \frac{\Delta Y}{Y_0} : \frac{\Delta X}{X_0}$$

1. Non bo'yicha:

$$\Delta Y = Y_1 - Y_0 = 106 - 100 = 6 \text{ kg}$$

$$\Delta X = X_1 - X_0 = 2688 - 2400 = 288 \text{ ming so'm}$$

$$K_E = \frac{6}{100} : \frac{288}{2400} = 0,5$$

2. Sut bo'yicha

$$\Delta Y = Y_1 - Y_0 = 274,7 - 296 = -21,3 \text{ kg}$$

$$\Delta X = 288 \text{ ming so'm}$$

$$K_{\vartheta} = \frac{-21,3}{296} : \frac{288}{2400} = -0,6$$

Demak, daromadlarning 1% oshishi natijasida non mahsulotlari iste'moli 0,5% ko'paygan, sut mahsulotlari iste'moli esa 0,6% kamaygan.

Aholi daromadlari tarkibi va bu tarkibning siljishi quyidagi ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi:

$$1) V_{\pi} = \frac{\pi_i}{\sum \pi}; V_x = \frac{X_i}{\sum X};$$

Bu yerda:

V – salmoq;

– daromadlar;

X_i – xarajatlar.

2) Tarkibiy siljishlarni baholovchi ko'rsatkichlar:

$$a) \text{ chiziqli koeffitsiyenti: } d = \frac{(V_1 - V_0)}{n};$$

b) kvadratik koeffitsiyent: $\sigma = \sqrt{\frac{(V_1 - V_0)^2}{n}}$;

s) K.Gataev interval koeffitsiyenti: $K_v = \sqrt{\frac{(V_1 - V_0)^2}{\sum V_1^2 - \sum V_0^2}}$

d) Saloi indeksi: $\sigma = \sqrt{\frac{1}{n} \sum \left(\frac{V_1 - V_0}{V_1 + V_0} \right)^2}$

bu yerda: V_0, V_1 – davrlar bo'yicha yoki hududlar bo'yicha daromad (xarajat) turlari bo'yicha salmoq.

n – daromad (xarajat) turlari soni, ya'ni tarkibini tashkil qiluvchi elementlar soni.

Mustaqil ishlash uchun misollar

1-misol. Ikki tuman bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (taqqoslama baholarda):

9.5-jadval

№		A tuman		B tuman	
		2006	2007	2006	2007
1.	Yalpi daromad, mlrd.so'm	22	28	20	24
2.	Aholi salmog'i, %	74	76	71	74
3.	Aholi soni, mln.kishi	10	13	11	12

Aniqlang:

1. Jon boshiga iste'mol hajmini.
2. Jon boshiga iste'mol indeksini.

2-misol. Ishchilarning nominal ish haqi 13%, xizmatchiniki esa 11%ga oshgan. Shu davrda tovar va xizmatlar bahosi 3% oshgan bo'lsa, real ish haqi qanchaga o'zgargan? Ishlar va xizmatlar salmog'i 60% va 40% teng bo'lgan.

3-misol. Ish haqi fondi 1 mlrd.dan 2mlrd.ga oshdi. Ishchilar soni esa 290 mingdan 310 ming kishiga oshdi. Baho 2%ga oshgan bo'lsa, real ish haqi qanchaga oshgan?

4-misol. Quyidagilar berilgan:

9.6-jadval

Mahsulot va xizmat	Mahsulot va xizmat iste'moli qiymati		Bahoning o'zgarishi
	2006	2007	
Nooziq-ovqat mahsulot	72	78	-9.5
Oziq-ovqat mahsulotlari	89	93	-0.6
Xizmatlar	10	15	+10.1

Aniqlang: 1) Mahsulot va xizmatlar turi bo'yicha aholi iste'molining o'zgarishini:

- har bir mahsulot turi bo'yicha;
- barcha iste'moldagi mahsulot va xizmatlar bo'yicha.

2) Bahoning alohida va umumiy indeksi.

3) Bahoning o'zgarishi hisobida aholining tejagani yoki ortiqcha sarfi qiymati.

5-misol. Quyidagilar berilgan:

- 1) Ish haqi fondi 29% oshdi;
- 2) Baho 10%ga oshdi;
- 3) Ish vaqti 5%ga kamaydi;
- 4) Ishchilar soni 12% ga oshdi.

Real ish haqi indeksini ish vaqti o'zgarishini hisobga olgan holda va hisobga olmasdan aniqlang.

6-misol. Ikki tuman bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (taqqoslama baholarda):

9.7-jadval

Ko'rsatkichlar	A tuman		B tuman	
	yillar		yillar	
	2013	2014	2013	2014
Yalpi daromad	22	28	20	24
Aholi iste'molining Yalpi daromaddagi salmog'i	74	76	71	74
Aholi soni	10	13	11	12

Aniqlang: 1) jon boshiga iste'mol hajmi;

2) Jon boshiga iste'mol hajmining indeksi

7-misol. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha Yalpi ixtiyordagi daromadlar keltirilgan:

9.8-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar			
	2010	2011	2012	2013
Yalpi ixtiyordagi daromad, shu jumladan:	3209633.0	4856576.8	7431766.6	10035227.1
Yakuniy iste'mol xarajatlari, shundan	2623650.9	3939366.9	1604137.2	7192136.6
Uy xo'jaligi...	1985172.2	2986117.5	4417891.8	5366891.4
Davlat boshqaruv organlari	607264.7	903810.2	1339170.3	1717376.4
Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari	31214.0	46339.2	70567.3	107868.9

Hisoblang: Yalpi ixtiyordagi daromadning tarkibini yillar bo'yicha hisoblab chiqing va xulosa qiling.

8-misol. Quydagi jadvalda aholi jon boshiga daromad hajmining taqsimoti keltirilgan: 9.9-jadval

Ko'rsatkichlar	Jami aholiga nisbatan % hisobida
Jami aholi, shu jumladan, aholi jon boshiga olingan daromad (ming so'm).	100
90-130	2.7
130-170	6.7
170.1-210	8.7
210.1-250	14.8
250.1-290	21.9
290.1-330	15.2
330.1-370	13.3
370.1-410.0	10.4
410-yuqori	6.3

Aniqlang: 1) Aholining o'rtacha daromadi hajmini; 2) Modani; 3) Medianani; 4) Detsel koeffitsiyent ma'lumotlarini tashkil qiling.

9-misol. Uy xo'jaliklarini byudjet bo'yicha tekshirish natijasida ma'lum bo'ldiki, joriy davrda o'tgan davrga nisbatan sabzavot iste'moli 2.2%ga oshdi, sut mahsulotlari 1.5%ga pasaydi. Shu davr ichida uy xo'jaligini jon boshiga daromadi 8% ga ko'paydi.

Aniqlang: elastiklik koeffitsiyentni.

10-misol. Bazis davrida kartoshka iste'moli jon boshiga oyiga 15 kgni tashkil etdi, hisobot davrida esa – 1.3 kgga oshdi. Bazis davrida har bir kilogramm kartoshkaning bahosi 500 so'mni tashkil etdi, hisobot davrida 2.3%ga oshdi. Shu davr ichida aholi jon boshiga 3250 so'mdan 3750 so'mga oshdi.

Hisoblang: daromadlarning o'zgarishi hisobiga kartoshka iste'molining elastiklik koeffitsiyentini.

11-misol. Hisobot davrida tuman ishchilarining o'rtacha oylik ish haqi 148297 so'mni tashkil qildi, bazis davrida esa 208020 so'm. Shu davrda iste'mol baholar indeksi 2.01 martaga oshdi.

Aniqlang: real ish haqi indeksini.

12-misol. Quydagi shartli ma'lumotlar keltirilgan:

9.10-jadval

Ko'rsatkichlar.	Bazis davri	Hisobot davri
Joriy baholarda tovarlar iste'moli, mlrd. so'm	223008	310206
Mahsulotlarning umumiy baho indeksi	-	1.0375
Aholi soni, mln. kishi	20.0	21.2

Aniqlang: 1. Iste'molini, tovarlarning umumiy fizik hajm indeksini.
2. Aholi jon boshiga iste'mol tovarlar darajasi indeksini.

13-misol. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumoti: aholini shifokorlar va kasalxonadagi o‘rinlar bilan ta’minlash bo‘yicha: 9.11-jadval

Ko‘rsatkichlar	Yillar					
	2005	2010	2011	2012	2013	2014
Shifokorlar soni, ming kishi	74.7	81.5	81.4	81	80.4	77.9
O‘rta tibbiyot xodimlari, ming kishi	246.8	259.7	263.1	265.9	265.3	266.0
Kasalxonadagi jami o‘rinlar soni, ming dona	177.5	138.6	140.1	147	146.7	142.9
Doimiy aholi soni, ming kishi	22906.5	24813.1	25115.8	25427.9	25707.4	26021.3

Hisoblang: 1) Shifokorlar va o‘rta tibbiyot xodimlari soni dinamikasini; 2) Kasalxonadagi o‘rinlar soni dinamikasini; 3) Aholini (10000 kishi) vrachlar bilan ta’minlanishini; 4) Aholini (10000 kishi) o‘rta tibbiyot xodimlari bilan ta’minlanishini; 5) Aholini (10000 kishi) kasalxonadagi o‘rinlar bilan ta’minlanishini.

14-misol. Chorakda pul daromadlarining o‘sishi 96%ni tashkil etdi. Shu davr-da oziq-ovqatlarga qilingan xarajatlar 93%ni tashkil etdi.

Hisoblang: bu ikki ko‘rsatkichlar orasidagi elastiklik koeffitsiyentni.

15-misol. O‘zbekiston Respublikasida oliy ma’lumotli va o‘rta maxsus muta-xassislar tayyorlash to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud:

9.12-jadval

Ko‘rsatkichlar	Yillar					
	2005 2006	2010 2011	2011 2012	2012 2013	2013 2014	2014 2015
Oliy o‘quv yurtlari: O‘quv muassasalari soni	58	61	61	61	62	63
Talabalar soni, ming kishi	192,1	183,6	207,2	232,3	254,4	263,6
Qabul qilinganlar soni, ming kishi	23,3	44,7	50,6	54,7	61	59,3
O‘rta maxsus bilim yurtlari soni	252	481	531	606	682	892
Talabalar soni, ming kishi	194,8	324,1	446,1	546	684	788,1
Qabul qilinganlar soni, ming kishi	67,4	106,6	222,4	236,5	256,2	323,5
Kasb-hunar kollejlari soni	-	241	303	414	533	827
Talabalar soni, ming kishi	-	59525	216762	366927	531620	77562
Akademik litseylar soni	-	46	47	51	54	65
Talabalar soni, ming kishi	-	9771	17516	20536	26236	30471
Doimiy aholi soni, ming kishi	22906,5	24813,1	25115,8	25427,9	25707,4	26021,3

Hisoblang: 1) Asosiy ko‘rsatkichlar dinamikasini (zanjirli va bazis usullarida); 2) Har 10000 aholiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni; 3) qisqacha xulosa qiling.

TAYANCH IBORALAR

Aholining tabiiy harakati – bu tugʻilganlar va oʻlganlar, nikohdan oʻtganlar va ajrashganlar sonida oʻz aksini topadi.

Amortizatsiya ajratmalari – asosiy ishlab chiqarish vositalari eskirishi natijasidaular narxining ishlab chiqarishga muntazam narxning oʻtgan qismi. $A=P/n$ P-asbob uskuna narxlari, n-foydalanilgan muddat.

Asosiy mablagʻlar – ishlab chiqarishda uzoq yil va koʻp marta ishlatiladigan asosiy ishlab chiqarish vositalarini sotib olishga moʻljallangan mablagʻ.

Aylanma mablagʻlar – xom-ashyo, materiallar ishchi kuchi kabilarga sarflangan mablagʻ.

Boj – davlat tomonidan koʻrsatilgan baʼzi bir xizmatlar uchun toʻgʻridan-toʻgʻri toʻlanadigan haq.

Bozor iqtisodiyoti – erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, ijtimoiy yoʻnaltirilgan hamda tovar-pul munosabatlarga xos iqtisodiy qonunlarga asoslangan iqtisoddir.

Budjet kamomadi – davlat xarajatlari daromadidan koʻp holati, xarajatlar va daromadlar orasidagi farq.

Davlat byudjeti – davlatning bir yillik daromadi, xarajatlar rejalashtirilgan asosiy moliyaviy hujjat.

Davlat qarzi – yillar davomida yigʻilib qolgan budjet kamomadining jami miqdori.

Eksport – tovarlar, xizmatlar va kapitallarni chet el bozorlariga chiqarish.

Friksion ishsizlik – bu ish qidirayotgan yoki yaqin vaqt ichida ish bilan taʼminlanishini kutayotgan kishilar.

Ijara haqi – (renta) birov mulkidan foydalanish.

Import – mazkur mamlakatga xorijiy mamlakatlardan tovarlarni keltirish.

Inflyatsiya – mamlakat miqyosida muomalada yurgan qogʻoz pul massasining muomala ehtiyojlaridan oshib ketishi. Narxlarning oʻsishi natijasida pulning xarid qilish quvvatining tushib ketishi.

Inson kapitali – kishining aqli, idroki, bilimi, zakovati, kuchi, ish tajribasi, kasbiy malakasi, sogʻligʻi.

Iqtisodiy oʻsish – YaIM, YaMM, SMM hajmining ortib borishi, aholi jon boshiga yaratilgan mahsulotning koʻpayishi bilan oʻlchanadi.

Kvota – davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tovarlarni ishlab chiqarish, ularni eksport va import qilish yuzasidan cheklashlarning

joriy etilishi.

Makroiqtisodiyot – butun mamlakat iqtisodiyotiga tegishli hodisalarni ularning sababini o‘rganuvchi fan.

Makroiqtisodiy samaradorlik – mamlakat yoki region miqyosida 1so‘mlik (100 so‘mlik) sarf bo‘lgan mehnat yoki mablag‘ hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati.

Makroiqtisodiy samaradorlikning integral ko‘rsatkichi – aholi jon boshiga yaratilgan sof milliy daromad.

Mehnat taqsimoti – mahsulot ishlab chiqarish jarayonini ishchilar o‘rtasida ishni taqsimoti.

Mehnat unumdorligi – resurs birligidan foydalanib ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori. $U_i = \frac{Q}{N}$; Q- mahsulot miqdori; N- ishchilar soni. $U_T = \frac{Q}{N * T}$; T-vaqt sarfi.

Milliy daromad – mamlakat aholisining bir yillik jami ish haqi, foiz, renta, daromadlari barcha korxonalar foydalarining yalpi miqdori.

Mikroiqtisodiy statistika – korxonalar (fermer, dehqon xo‘jaliklari va boshqalar), firmalar, birlashmalar iqtisodiyotida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning miqdor tomonlari bilan sifat tomonlarini chambarchas bog‘lab o‘rganuvchi fan.

Muqobil qiymat – tanlov natijasida voz kechilgan, eng katta nafga ega bo‘lgan imkoniyat.

Muvozanat narx – bozorda tovarga bo‘lgan talab miqdorining tenglashtirib berilgan narx.

Nominal daromad – daromadning joriy narxdagi qiymati.

Nominal YaIM – joriy baholarda hisoblangan YaIM.

Real daromad – daromadning muayyan yildagi narxlarga nisbatan qiymati. $P_r = \frac{P_n}{I}$; I- narxlar oshish darajasi.

Real YaIM – baholarning o‘zgarishini hisobga olib, hisoblangan YaIM. Bu ko‘rsatkich nominal YaIM hajmini baho indeksiga bo‘lib aniqlanadi.

Reklama – lotincha jar solish degan ma‘noni anglatib, axborot vositasida iste‘molchiga tovarlar haqida ma‘lumot beradi hamda tovarlarga bo‘lgan talabni oshirishga xizmat qiladi.

Sof ichki mahsulot (SIM) – YaIM dan amortizatsiya ajratmalarini chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

Sof milliy daromad (SMD) – yangidan yaratilgan qo‘shimcha

mahsulotlarning (mahsulotlar va xizmatlarning) puldagi ifodasidir. U YaMD bilan amortizatsiya orasidagi farq tariqasida aniqlanadi.

Sof foyda – firmaning ma’lum davrdagi foydasidan bo’lgan soliq va to’lov to’lagandan so’ng qolgan qismi.

Soliq – fuqaro, firma, korxonalardan davlat xazinasiga undiriladigan qonunda ko’rsatilgan majburiy to’lov. Mutanosib-o’sishiga qarab o’zgarmas, progres-o’suvchi, regres kamayuvchi bo’ladi.

Soliq stavkasi – soliq miqdorining soliq solinadigan jami summaga nisbatanfoizdagi miqdori.

Taklif – ishlab chiqaruvchilar ma’lum vaqt ichida ishlab chiqarishga qodir bo’lgan narxning har bir darajasida bozorga sotishga chiqaradigan mahsulotlar miqdoridir.

Taklif egiluvchanligi – taklif narxga ko’ra egiluvchanligining taklif miqdorining o’zgargan narxlarning foizda o’zgarishi.

Taklif miqdori – bozorda ma’lum vaqt davomida ma’lum narxlarda sotishga taklif etilgan tovar miqdori.

Tanlov – cheklangan resusrlardan foydalanish imkoniyatlar orasidan birini tanlash.

Tashqi iqtisodiy aloqalar – davlat va korxonalarining chet el bilan bo’ladigan iqtisodiy munosabatlari.

Toqchilik – bozorda talab miqdorining taklif miqdoridan ortishi natijasida tovar yetishmasligi.

To’g’ri soliq – bevosita daromad oluvchi, tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan to’langan soliq. Egri soliq - daromad oluvchi, tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan emas, ularni iste’mol qiluvchilar tomonidan to’lanadigan soliq.

Transfert to’lovlar – davlat budjetidan aholi moddiy jihatdan kam ta’minlangan qatlamini qo’llash uchun sarflangan mablag’.

YaIM – mamlakat hududida joylashgan (qaysi mamlakatga tegishli bo’lishidan qat’iy nazar) barcha korxonalar (rezidentlar) tomonidan pirovard iste’mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar qiymatining yig’indisidir.

Yalpi ishlab chiqarish – ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy resurslar ishtirokida yaratilgan hayotiy ne’matlar (moddiy mahsulotlar va xizmatlar)ning yig’indisi.

Yalpi milliy daromad (YaMD) – mamlakat hududida va xorijiy mamlakatlarda joylashgan milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan barcha tovarlar va xizmatlar qiymatining yig’indisidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.: O‘zbekiston, 2003.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat statistikasi to‘g‘risida”gi 2002 yil 12 dekabr, № 441-II-son Qonuni.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

3. “Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi Farmoni.
4. “Barkamol avlod yili” davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zR Prezidentining Farmoyishi. 2009 yil 9 dekabr //Xalq so‘zi. -2009. - № 238. –dekabr. – 1 b.

III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy- me‘yoriy hujjatlari

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy va kredit yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 290-sonli qarori. –T.: 31.12.2008y
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish haqida”gi 2003 yil 8 yanvar 8-son qarori.
7. Davlat statistikasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarori 12 dekabr 2002 yil №442-II.

IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- 8.I.A.Karimov Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. –T.: «O‘zbekiston», 2010. 34-50 b.
- 9.I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: O‘zbekiston, 2009.-56 b.
- 10.I.A.Karimov. “2008 yilda respublikani ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror

rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruza” “Xalq so‘zi”, 2009 y.14 fevral, № 33-34 (4696-4697)

11.Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi. 2016, 16 yanvar.

V. Darslik va o‘quv qo‘llanmalar

12.Nabiyev X., Ayubjonov A.H., Sayfullaev S.N. Iqtisodiy statistika. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 324 bet.

13.Soatov N.M., X. Nabiyev N.M., Nabiyev D., Tillaxo‘jayeva G.N. Statistika. Darslik. – T.:TDIU,2011. – 548 bet.

14.Статистика: Учебник / под ред. И.И. Елисеевой. - М.: Высшее образование, 2008. 566 с.

15.Статистика: Учебник /Под ред. И. И. Елисеевой. -.М.: Изд-во Проспект, 2010.-448 с.

16.Харченко Н.М. Экономическая статистика: Учебник. - "Дашков -К" 2008.-368 с.

17.Soatov N.M. Statistika. Darslik – Toshkent.: «Abu Ali ibn Sino», 2003.

18.Abdullaev Y. Statistika nazariyasi. – Toshkent.: «O‘qituvchi», 2003.

19.H.G‘.Nabiyev, D.H.Nabiyev. Iqtisodiy statistika. Darslik. T.: “Aloqachi”, 2008, -512 b.

20.Статистика. Учебник / Н.Умаров, А.Абдуллаев, Р.Зулинова. –Т.: “Iqtisod-moliya”, 2009. – 308 с.

21.Shodiyev X. Moliya statistikasi: oliy o‘quv muassasalarining talabalari uchun darslik. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010, -320 b.

22.Shodiyev X. va boshqalar. Statistikadan o‘quv-uslubiy qo‘llanma: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligi; - Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. – 320 b.

23.Nabixodjaev A., Umarova M. Mintaqaviy statistika.–T.; 2012. 142 b.

24.Ayubjonov A.H. "Statistika" fanidan o‘quv uslubiy qo‘llanma. - T.: TDIU, 2007, 145 b.

- 25.Буданов К. М., Лосева О. В. Практикум по общей теории статистики: Учебное пособие/ Пенз. гос. пед. университет. - Пенза, 2009. - 92 с.
- 26.Статистика: конспект лекций / И.Н. Нименья. –М.: Эксмо, 2007. – 176 с.
- 27.Гинзбург А.И. Статистика. – СПб.: Питер, 2007. – 128 с.
- 28.Рудакова Р.П., Букин Л.Л., Гаврилов В.И. Практикум по статистике. – СПб.: Питер, 2007. 288с.
- 29.Велижанская Т.А. Социально-экономическая статистика: Учебное пособие. – Тюмень: Изд-во ТюмГУ, 2007. – 410 с.

VI. Statistika to'plamlar

- 30.Инвестиции Республики Узбекистан 2009. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2009. – 148 с
- 31.Промышленность Республики Узбекистан 2009. Статистический сборник. - Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2007. – 156 с.
- 32.Сельское хозяйство Узбекистана 2009. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2009. – 160 с.
- 33.Промышленность Республики Узбекистан 2009: Статистический сборник. — Т.: Гос комитет РУ по статистике, 2010, 115 с.
- 34.Узбекистан в цифрах 2008. Статистический сборник. – Т.: 2009, 195 с.
35. Статистический ежегодник регионов Узбекистана, 2008. Статистический сборник. – Т., 2009, 215 с.

VII. Internet ma'lumotlari:

- 36.www.economics.ru
- 37.www.ved.ru
- 38.www.ser.uz
- 39.www.uza.uz
- 40.www.ifmr.uz
- 41.www.Lex.uz
- 42.www.Ziyonet,uz
- 43.www.marketing.uz
- 44.www.brand.uz
- 45.<http://verstud.narod.ru/kurs.htm>
- 46.<http://www.rbcnet.ru>.
- 47.<http://www.college.ru>.

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
1-mavzu. O‘zbekiston milliy hisoblar tizimi – iqtisodiy statistikaning uslubiy negizi.....	5
2-mavzu. Aholi statistikasi.....	19
3-mavzu. Mehnat bozori statistikasi.....	35
4-mavzu. Milliy boylik statistikasi.....	60
5-mavzu. Yalpi ichki mahsulot statistikasi	79
6-mavzu. Milliy daromad va milliy hisoblar tizimidagi boshqa daro- mad ko‘rsatkichlari	103
7-mavzu. Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi.....	114
8-mavzu. Moliya-kredit tizimi statistikasi.....	123
9-mavzu. Aholi turmush darajasi statistikasi.....	133
Tayanch iboralar	146
Adabiyotlar.....	149

Muharrir	K. Sidiqova
Texnik muharrir	A.Moydinov